

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**  
**FALSAFA KAFEDRASI**

**O'RTA ASR YAQIN VA O'RTA SHARQ XALQLARI  
NATURFALSAFASI**

**FANIDAN  
MA'RUDA MATNI**

Ta'lism sohasi: 200000 – Gumanitar fanlar va san'at

Ta'lim yo'nalishi: 220000 – Gumanitar fanlar

Magistratura mutaxassisligi: 5A220313 – Zamoniyy Sharq falsafasi va tarixi

Ma’ruzalar matni namunaviy dastur va ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida barcha magistratura mutaxassisligi 5A220313 – Zamnaviy Sharq falsafasi va tarixi uchun “Yaqin va o’rta sharq xalqlari naturfalsafasi” predmeti bo'yicha tuzilgan.

**Tuzuvchi: Qodirov M.** – ToshDShI «Falsafa» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:** ToshDSHI «Falsafa» kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi Po’latova D.A., Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti «Falsafa tarixi va mantiq» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi Ro‘zmatova G.M.

Ma’ruzalar matni ToshDShI O‘UK da muhokama qilingan va tasdiqlangan.  
2010 yil 17.06 dagi 4- sonli bayonnomma

## Kirish

Fanning maqsadi va vazifalari: “O‘rta asr Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari naturfalsafasi” predmeti falsafa fakulteti talabalari magistr bosqichi uchun milliy mustaqillik mafkurasi va milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari va metodologik talabalari nuqtai nazardan ma’lum nazariy va ma’rifiy ahamiyatga ega. Ushbu kursda Markaziy Osiyo xalqlari falsafa tarixining rasionalistik, hurfikrlilik va ilmiy an’analari va tajribalarining erishgan yutuqlari haqida ma’lum bilim beriladi. Shuningdek Markaziy Osiyo xalqlari jahon xalqlari falsafa va ma’naviyat xazinasiga qqshgan hissallarda Markaziy Osiyo xalqlari O‘ziga xos o‘rni yoritiladi. Magistr bosqichida Markaziy Osiyo xalqlari falsafa tarixi ikki yQnalish bo‘yicha qqitiladi. Birinchisi Markaziy Osiyo xalqlarining mutafakkirlari ontolgik-gnoseologik qarashlarining mohiyat va tamoyillari. Ikkinci Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy merosida rasionalizm va hurfikrlilik.

### O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - magistratura talabalariga O‘rta asr Yaqin va O‘rta sharq xalqlari naturfalsafasining muammolari va yo‘nalishlari haqida izoh berish, va shu asosda ularning falsafiy bilimlarini mukammallashtirishdan iboratdir.

**Fanning vazifalari:** O‘rta asr Yaqin va O‘rta sharq xalqlari naturfalsafasining muammolari va yo‘nalishlari haqida ilmiy ma’lumotlar berish bilan birqalikda, talabalarda mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

### Fan bo‘yicha talablarning bilimga, ko‘nikma va malakaga qo‘yiladigan talablar

O‘rta asr Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari naturfalsafasi fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar doirasida magistrant:

- din va falsafaning tushuncha, tamoyillarining o‘zaro munosabati; O‘rta asr Yaqin va O‘rta sharq xalqlari naturfalsafasining ijtimoiy va gnoseologik ildizlari; naturfalsafada inson muammosining turlicha talqini; O‘rta asr falsafasida ilmiy bilish metodologiyasi masalalarining tadqiq etilishi; Tanqidiy rasionalizm va uning mohiyati; Falsafiy va xususiy-ilmiy bilimlarning demarkatsiya qilinishi; zamonaviy falsafiy maktablar va

yo‘nalishlarda inson muammosini; O‘rta sharq xalqlarida noklassik falsafaning shakllanishi, uning yo‘nalishlari va maktablari; O‘rta asr Yaqin va O‘rta sharq xalqlari naturfalsafasining asosiy g‘oya va tushunchalari, uslublari; antroposotsiogenezning zamonaviy konsepsiysi; inson hayoti mazmuni ***haqida tasavvurga ega bo‘lishi;***

- Eng yangi davr G‘arb falsafasini tahlil qilish metodini; Sub’ektivistik falsafiy oqimlarning tahlil uslubini; XX asr gumanistlarining g‘oyalari tahlil qilingan materiallardan foydalana olishni; Noklassik falsafa vakillarining asarlarini, ularda ilgari surilgan g‘oyalarni; O‘rta asr Yaqin va O‘rta sharq xalqlari naturfalsafasining asosiy yo‘nalishlari, masalalari, tamoyillarini; inson masalasiga ijtimoiy-falsafiy yondashishni; insonning biopsixologik mohiyatini; o‘lim va hayot muammolarini; inson fenomenining oliv qadriyat sifatidagi mohiyatini; insonning tabiat va jamiyat bilan munosabatlarini falsafiy o‘rganishni; postindustrial jamiyat sharoitida inson muammosini tahlil qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- Sharq faylasuflari asarlaridan foydalanish; Falsafiy bahslar natijalarini tahlil etish va umumlashtirish; Noklassik falsafani tahlil etishning asosiy prinsiplarini bilish va ulardan foydalanish; O‘rta asr Yaqin va O‘rta sharq xalqlari naturfalsafasida inson fenomenini o‘rganish; insonning tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarini falsafiy o‘rganish; postindustrial jamiyat sharoitida inson muammosini tahlil etish; hozirgi O‘zbekistonda inson ma’naviy-axloqiy hayoti masalalarini ijodiy tahlil qila olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;***

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar btlan o‘zaro bog‘liqligi va uslub jixatdan uzviy ketma – ketligi**

O‘rta asr Yaqin va O‘rta sharq xalqlari naturfalsafasi fani o‘quv rejadagi boshqa falsafiy fanlar bilan aloqadorlikka ega.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda olingan bilim muntazam qo‘llaniladi.

### **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

O'rta asr Yaqin va O'rta sharq xalqlari naturfalsafasining fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an'anaviy usullar, davra suhbat texnologiyaning "Klaster", "Bumerang", "Matbuot konferensiyasi", "Aqliy hujum", prezentatsiya singari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq..

## **Asosiy qism**

### **IX-XI asrlarda urta va Yaqin Sharq mamlakatlarda falsafiy va tabiiy –ilmiy fikrlar rivoji**

Abbosiylar xukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sharoit. Xalifalikda davlatchilik masalasi. Ilm-fan rivoji. Bog'dodda «Baytul xikmat» («Donolar uyi»-«Ma'mun akademiyasi») ning tashkil qilinishi va uning ilm-fan rivojidagi roli. Markaziy Osiyolik olimlarning «Ma'mun akademiyasi»ni tashkil qilishdagi o'rni va ilm-fan rivojidagi roli. Mu'taziliy ta'limotining keng tarqalishi. Arab adabiyoti va unda ijtimoiy ahloqiy masalalar. Abu Yusuf al-Kindiy (800-865) birinchi arab faylasufi. Al-Kindiy hayoti va ilmiy merosi. Al-Kindiy Arastu asarlarining sharxlovchisi. Falsafiy atamalarning (terminalogiya) ishlab chiqilishi, fanlar tasnifi va uning metadalogik ahamiyati. Al-Kindiy metadalogik qarashlarida Arastu ta'limotining yangicha talqini. Xudo-birinchi sabab. Sabablar haqida Arastu ta'limotiga yangi g'oyaning kiritilishi. Materiya, shakl, zamok, makon, harakat. Aksidensiya va substansiya. Kosmologik ta'limoti. Al-Kindiy gneseologik ta'limotida sezgi va tafakkur masalasi, ularning o'zaro munosabati. Haqiqat ta'limoti.

Abul Alo al-Marri (vaf. 1017 y) dunyoqarashi. Maarri-buyuk arab shoiri, ilmiy merosi. Maarriy fanning kelib chiqishining tarixiy va gnoeseologik ildizlari haqida. Dinning ijtimoiy ildizlari haqidagi farazlar. Maariyning diniy yekensisdan xurfikrlilikka qarab borishi Maarriy dunyoqarashida siyosiy va ahloqiy masalalar. Ijtimoiy adolat haqida g'oyalar. Kelajak haqida orzular.

Abu Bakr ar-Roziy buyuk eron olimi va mutafakkiri. (865-925) hayoti va ilmiy merosi. Tabiiy-ilmiy qarashlari va uning dunyoqarash ahamiyati. Ar-Roziy sharqda atomistik ta'limotning asoschisi. Besh boshlang'ich xudo, zamon, makon va materiya haqidagi ta'limot. Substansiya va aksidensiya, materiya va shakl munosabatlari haqidagi ta'limot. Kosmologik va uning mohiyati. Gneseologik ta'limot. Sezgilar va tashqi seskantiruvchi ta'sirlar haqidagi ta'limot. Sezgilardan tafakkurga o'tish jarayoni. Aqlning mohiyati. Aqlning sezgilar mohiyatdagi o'rni. Aqlning vazifasi. Intitutiv bilish. Aftoritetga bo'lgan munosabat. Ikki xil haqiqatga bo'lgan munosabat. Ar-Roziy dunyoqarashida

inson va uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni masalasi. Ar-Roziy mulklarni umumiylashtirish g‘oyasini tarafdori, ar-Roziy ahloqiy qarashlarida turli dinlar va xalqlarda tarqalgan tarki dunyochilikning har qanday shakllarining tanqidi. Inson hayotining mazmuni. Baxtga erishish vositalari. Mehnat ma’rifat va yuksak ahloqiylik, dunyo noz-ne’ matlaridan lazzatlanish-inson baxtli hayotining tamoyilari. Ar-Roziy rasional gedonizmi. Inson fazilati qadr-qimmatining mezoni. Dinga bo‘lgan munosabat dinning tarixiy va gneseologik ildizlari haqida. Din yashovchanligining sababi haqida. Payg‘ambarlikka bo‘lgan munosabat Ar-Roziyijtimoiy-falsafiy va ahloqiy qarashlariga O‘rtta asr mutafakkirlari va ilohiyotchilarining munosabati.

### **Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy va Axmad Fargoniylarning tabiy- ilmiy karashlarning xususiyatlari.**

Muhammad Ik Muso Xorazmiy (780 — 850) Sharqning buyuk mutafakkiri Qomusiy olimi. Bag‘dodda buyuk «Baytul — Xikma» («Bilm uy) akademiyaga rahbarlik qilish «Bilim uyi»da Muso Xorazmiy Ahmad Farg‘oniy, Ahmad ibn Abdullo Marvaziy, Abbas Javhariy va boshQalar bilan falakiyat va riyozat bo‘yicha yunon tillardan adabiyotlari tarjima qilishlari va tahlil qilishlari. Xorazmiyning tabiy fanlarni bilish va fan yutuqlarini blvostia jamiyat hayotga tatbiq etish. Xorazmiyning matematika sohalariga buyuk xizmatlari Muso al — Xorazmiyning niyozoy va falakiyat ta’limotlarining A.R. Beruniy, At — Tusiy, Al — Koshiy, Umar — Xayyom va Ulug‘beklarning tabiy — ilmiy ta’limotlariga ta’siri.

Ahmad Al — Farg‘oniy Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al — Farg‘oniy O‘rtta asrning buyuk tabiatshunos allomalardan biri ekanligi. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida.

Olimning Bag‘doddagi «Bayt ul — Xikma» («Xikmatlar uyi») dagi ijodi haqida. Uning Bag‘dod va Damashq shaharlarida olib borgan astronomik tajribalari haqida. Ahmad- Farg‘oniy iqtidorli muhandis sifatida ta’mirlanganligi haqida. Al — Farg‘oniyning «Osmon jismlari xarakati va yulduzlar ilmi to‘plami» asarining tarixiy ahamiyati.

Uning «Asturlobdan foydalanish haqida. Kitob», «Quyosh soatini yasash» kabi asarlarining bugungi kunda astronomiya fanning rivojlanishidagi roli va o‘rni. Uning «Geometriya va arifmstike yordamida mukammal shimoliy va janubiy asturloblarni yasash» risolasining geometriya faniga oid yangi fikrlarning shakllanishi haqida.

## **IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiy va tabiiy - ilmiy fikrlar rivoji.**

(Abu Nasr Forobi Abu Ali ibn Sino va Abu Rayxon Beruniylar)

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda markazlashgan mustaqil feodal davlatlarning vujudga kelishi: Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviyilar davlatining vujudga kelishi va ularning mintaqasi iqtisodiy va madaniy rivojidagi ahamiyati. Iqtisodiy va madaniy yuksalish. Uyg‘onish davri va uning xususiyatlari. Xorazmda «Majlis ul-Ulamo» (Olimlar majlisi-Ma’mun akademiyasi) ning tashkil etilishi va tabiiy-ilmiy ilmlarning rivoji. Muhammad ibn muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolar tabiiy-ilmiy qarashlarining dunyoqarashidagi, ahamiyati. Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning vujudga kelishida xalq harkatlarining o‘rni.

Abu Nasr Farobi (873-950) Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqda tugalangan ijtimoiy — siyosiy va falsafiy ta’limot yaratgan mutafakkir. Farobi va ilmiy merosi. Farobi «Ikkinchi muallim». Farobi antologik qarashlarining g‘oyaviy ildizlari. Borliqning olti bosqichi — Xudo, osmoniy mohiyatlar, faol aql, jon, shakl, materiya xaqida ta’limoti. Farobi ontologik va kosmologik ta’limotida panteizm va neoplotonizm g‘oyalari. Arastu ta’limotining yangicha talqini. Substansiya va aksidensiya, materiya va shakl munosabatlari. Fanlar tasnifi. Bilishda sezgi va tafakkurning roli va munosabati. Mantiq ilmi va uning bilish va ilm — fan rivojidagi o‘rni. Farobi mantiqiy qarashlarining metodologik ahamiyati. Farobi O‘rta asrda sotsiologik ta’limot asoschisi. Inson jamoalarining kelib chiqishi. Inson — ijtimoiy — siyosiy hayvon. Inson jamoalarining shakllari va tuzilishi. Inson jamoalarining mohiyati, maqsadi va intilishi va jihatdan farqlanishi. Fozil va johil jamoalar. Xukmronlik shakllari. Davlatning kelib chiqish sabablari. Ijtimoiy kelishuv. Manarxiya va Manarx va fuqarolar o‘rtasidagi munosabat. Inson hayotining mazmuni va baxt saodatga erishuv vositalari. Xalklar o‘rtasida tinch — totuvlik munosabatlari. Farobi dunyoqarashining kelgusidagi ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ta’siri.

Abu Rayxon Beruniy dunyoqrashi. Hayoti va ilmiy merosi. Beruniy — O‘rta asrning Qomusiy olimi. Beruniy tabiiy — ilmiy qarashlarining ilmiy va dunyoqarash ahamiyati. Beruniy fan tarixchisi.

Falsafa tarixining qiyosiy o‘rganishi. Beruniy ontologik qarashlarining deletik mohiyati. Kosmologik va kosmogonik ta’limotida ilmiylik an’analari. Beruniy dunyoqarishida dialektika unsurlari. Beruniy — tajribaviy metod asoschisi. Aqlning mohiyati va vazifasi. Xaqiqat kriteriyasi masalasi. Inson ongida noto‘g‘ri bilimlar kelishning ob’ektiv va sub’ektiv sabablari. Nufuz (aftoritet) larga bo‘lgan munosabat. Ikki xil xaqiqat masalasi. Beruniy sotsiologik qarashlari. Odamning kelib chiqish tarixi. Eralar tarixi. Har bir erani

odam va havosi haqida. Inson jamoalarining kelib chiqish sabablari. Inson jamolari tarixida buyuk tabiiy hodisalar roli. Turli xalqlar, tabaqalar va tillarning kelib chiQishi haqida. Jamiyat taraqqiyotida geografik geografik ahamiyati haqida. Davlatning kelib chiQishi sabablari. Davlatni boshqarish shakllari. Jamiyat va davlat ravnaqini belgilovchi omillar. Karmatlar harakatiga munosabat. Beruniy axloqiy qarashlarining insonparvarlik mohiyati. Oila va nikox masalasi. Iqtisodiy masalalar. Jamiyat iqtisodiy hayotida pul va savdoning ahamiyati. Turli diniy rivoyatlarga, payg‘ambarlik haqidagi rivoyatlarga bo‘lgan munosabat. Din erkinligi va insonparvarlik g‘oyalari.

Abu Ali ibn Sino (980 — 1037) hayoti va ilmiy merosi. Ibn Sino tabiiy — ilmiy qarashlarining dunyoqarash ahamiyati. Ibn Sino ontologik ta’limotida neoplatonik unsurlari. Ishrokiya (iloxiy nurlanish) falsafasi. Moddiy olam tuzilishi va rivoji xakidagi ta’limot va unda dialektika unsurlari. Kosmologik ta’limot. Borlikdagi sababiy bog‘lanishlar haqida. Ibn Sino gnesologik qarashlari. Sezgi va tafakkur va ularning o‘zaro munosabati. Tajriba haqida. Mantiq va uning bilimdagи o‘rni. Fanlar tasnifi. Ibn Sino jamiyat va davlat xaqida. Insoniyatning jamiyatda tutgan o‘rni. Ahloqiy qarashlar va ularning insonparvarlik mohiyati. Ibn Sinoning pedagogik qarashlari. Mamlakatni boshqarishda iqtisodiy siyosat va omillarning o‘rni haqida. Dinga bo‘lgan munosabti. Ibn Sino xurfikrliligi. Abu Abdullox Xorazmiy (vaf. 997) va uning Mafotax ul — ulum» asari fanlar tasnifi va din metodologik ahamiyati. Xorazmiy falsafiy qarashlarida peripatetik falsafaning yakuniy tarzda namoyon bo‘lishi.

### **Yusuf Xos Xojib va Maxmud Qoshg‘oriy va Ahmad Yugnakiylarning inson va borliq xaqidagi qarashlari.**

Yusuf Xos Xojibning dunyoqarashi. Uning «Qutadg‘u bilig» asarida insonning ijtimoiy mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy vazifasi kabi masalalar. Davlatchilik va davlatining boshqarishi masalalari. Ahloqiy qarashlar.

Mahmud Qoshg‘ariy dunyoqarashi. Uning «Devonu lug‘atat — turk» asarida xalqlar tomonidan yaratilgan. Axloqiylik mezonlarining aks etishi.

«Devonu lug‘at at — turk» Markaziy Osiyo xalqlarining urf- odatlari, ijtimoiy — iqtisodiy hayotining xususiyatlari xaqidagi muhim manba.

### **Abul nosim az -Zamaxshariyning inson va tabiat to‘g‘risidagi qarashlari**

Muhammad az — Zamaxshariy O‘rta asr jahon fanining rivojiga ulkan hissa qo‘sghan olim. Uning hayoti, ijodi va merosi haqida. Muhammad Zamahshariyning «Al — Kashhof» asarining mazmuni va mohiyati haqida.

Uning arab tili grammatikasining rivojiga qo‘sghan hissasi «Al Musassal fi san’at al arab» asarida yoritilishi. Uning mu’tazilaylar ta’limotiga munosabati.

Inson, irodasining erkinligi haqida. Uning tajribaviy va ilmiy bilimlar xaqidagi ta’limotining bugungi kundagi ahamiyati.

### **IX-XII asrlar Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq ijtimoiy fikrida diniy va ilmiy bilimlar rivoji**

Markaziy Osiyoda xadis ilmining rivoji. Imom Buxoriy va uning «Saxixi. Imom Buxoriy va uning «Saxixi Buxoriy asari. «Saxix» da axloqiy masalalr Talqini. Masalalar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar talqini At — Termiziyning ijtimoiy — axloqiy qarashlari. Sharitga ijimo’, ray’ qiyos kabi rasionalistik aqidalarning kiritilishi. Ularning islom mafkurasi va shariata uchun ijtimoiy ahamiyat, Termiziy asarlarning kelgusidagi ilg‘or ilmiy- ahloQiy qarashlar rivojiga ta’siri.

Imom Maturidiy va uning «Tavhid» asri. Maturidiy islom iloxiyotchiligining nazariyotchisi. Maturidiy tomonidan islom aqidalarimiz mohiyatini real hayotga tadbiq qilib talqin qilinishi. Maturidiy qarashlarining islom ilohiyotchilik tarixidagi o‘rni.

### **Sufizm va dunyoviy bilimlar**

So‘fizmning islom dini qobig‘ida diniy — falsafiy ta’limot sifatida vujudga kelishi. So‘fizimning mazmuni, mohiyati, taraqqiyot bosqichlari. So‘fizmning ijtimoimy va g‘oyaviy ildizlari So‘fizm amaliyoti va nazariyoti. So‘fizimning oqimlari. Tasavvur bosqichlari- shariat, tariqat. Ma’rifat va xaqiqat. Sufizm tariqatining bosqich (makom, rashxa) lari va ularning mohiyati. Tasavvurning falsafiy asosi va unda panteizm va neoplatonizm unsurlari. «Vaxdati vujud» va «Vaxdati shuxud» ta’limoti. Tasavvuf falsafasida xudo va olam munosabatlari. «Olami akbar» va «Olami acap» haqidagi ta’limot.

Tasavvufning irfoniy ta’limoti. Kashf va inom. Murokaba, mushoxada va Muxosaba. So‘fizm adabiyotida ramz (simvolika) larning ishlab chiqilishi.

Tasavvuf ta’limotning badiiy adabiyotda xurfikrlik, insonparvarlik, xalqparvarlik,adolatparvarlik, hayotni sevish g‘oyalarini targ‘ibqilinishdagi ahamiyati. So‘fizimning komil inson haqidagi ta’limoti va uning hozirgi zamon ma’naviyatimiz uchun ahamiyati.

Abu Xomid G‘azzoliy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviylarning merosi va tasavvufiy ta’limotlari. Xoja Ahmad . Yassaviyning O‘rta Osiyo yassaviylik tariqatining asoschisi targ‘ibotlari,. Ahmad Yassaviyning turkiyzabon xalqlarning ijtimoiy — siyosiy, ma’naviy — madaniy hayotida katta rol o‘ynaganligi.

## **Imom G‘azoliyning falsafiy-ijtimoiy-ahloqiy qarashlari.**

Abu Xamid ibn Muxammad al Tusiyl al — Shofii al — G‘azoliyning hayoti va ijodi. Uning Nishopur va Bag‘dodda ilm olishi Bag‘doddagi Nizomiyya universitetiga professor bo‘lib tayilanishi. Keyinchalik ilmiy, mudarrisilik lavozimini tashlab, tarki dunyochilikka berilib, ketishi va mieninlik yo‘liga o‘tib olishi haqida G‘azzoliyning dinga falsafa va sufiy ta’limotga berishi ijodining asosiy qismini tashkil etadi. G‘azzoliyning falsafiy qarashlarining shakllanishida aniq fanlarning, birinchi navbatda matematikani roli haqida. G‘azzoliy tomonidan Arastuning mantiqiy uslubini va neoplatoniklar ta’limoti rivojlantirilishi.

G‘azzoliy tomonidan Forobiy, Ibn Sino va boshqa O‘rta asr Sharq faylasuflarning ta’limotlariga qarshi chiqishi. U xaqiqiy sufiy ta’limotini mutloq xaqiqatga erishning birdan bir yo‘qli deb bildi. Uning «Tuxfatul falsafa» Ixiya umumddin» kabi asarlarning falsafa tarixidan o‘rni va roli.

## **Mustaqil ta’lim**

Seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish. Mavzular bo‘yicha ilmiy doklad tayyorlash.

IX-XII asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari gnoseologik qarashlarida emperizm va tajriba masalalari. IX-XII asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari ontologik qarashlarida panteizm unsurlari. G‘azzoliy tasavvufiy ta’limotining mohiyati. Burxoniddin Marg‘inoniy «Hidoya” asarida ma’naviy- ahloqiy masalalar.

## **Seminar mashug‘lolatlari**

1. Abbosiylar xalifaligi davrida ijtimoiy — iqtisodiy va tarixiy sharoit.
2. Baytul Xikmat («Donlar uy — Ma’mun akademiyasining ilm — fan rivojidagi roli.
3. Al — Kindiyning naturfalsafiy qarashlari.
4. Abul Alo al Maarriyning dunyoqarashi.
5. Abu Bakr Roziyoning tabiy — ilmiy va falsafiy qarashlari.
6. Markaziy Osiyoda markazlashgan mustaqil fedal davlatlarning vujudga kelishi.
7. Muhammad ibn Muso Xorazmiyning tabiy — ilmiy qarashlari
8. Ahmad Farg‘oniyning tabiy — ilmiy qarashlari.
9. Al — Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniy larning tabiy — ilmiy ta’limotlarning bugungi kun faning rivojidagi o‘rni.
10. Farobiys falsafasining g‘oyaviy ildizlari.
11. Forobiyning ontologik va gnoseologik ta’limotlari.
12. Forobiyning mantiliy ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlari.

13. Forobiyning ijtimoiy — siyosiy qarashlari.
14. Abu Rayxon Beruniyning tabiy — ilmiy merosi.
15. Beruniy tajribaviy metodi xaqida.
16. Beruniyning naturfalsafiy ta’limoti
17. Davlatning kelib chiqishi va uni boshqarish shakllari.
18. Ibn Sinoning tabiy ilmiy qarashlarining ahamiyati.
19. Ibn Sinoning ontologik va gnoseologik ta’limotning o‘ziga xos xususiyatlari.
20. Ibn Sino jamiyat va davlat xaqida.
- 21.. Yusuf Xos Xojib dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari.
22. «Qutadg‘u bilik» (Baxtga eltuvchi bilim) asarida etik — didaktik masalalarning qo‘yilishi.
23. Yusuf Xos Xojibning ijtimoiy siyosiy qarashlari.
24. Axmad Yugnakiyning «Xibbatul Xaqoiq» asarida etik — didaktik masalalarning qo‘yilishi.
25. Axmad Yugnakiy ijodida vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarning tarannum etilishi.
26. Maxmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atat — turk» asarida axloqiylik mezonlarining aks etishi.
27. Abul Qosim az Zamaxshariy ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
28. Zamaxshariy tilshunos olim.
29. Zamaxshariyning dingga munosabati
30. Zamaxshariyning diniy qarashlari.
31. Markaziy Osiyoda xadis ilmining rivoji.
32. Imam Buxoriyning «Saxxi Buxoriy» asarida ahloqiy masalalar talqini.
33. At-Termiziyyning ijtimoiy — axloqiy qarashlari.
34. Imam Moturidiy va uning «Tavhid» asarida islom aqidalari haqida.
35. Moturidiyning diniy — falsafiy qarashlarining islom iloxiyotchilik tarixidagi urni.
36. So‘fizm diniy — falsafiy ta’limot sifatida vujudga kelishi.
37. So‘fizmning mohiyati, taraqqiyot bosqichlari.
38. So‘fizmning nazariyoti va amaliyoti.
39. So‘fizm tariqatlari va bosqichlari.
40. Tasavvuf falsafasida xudo va olam munosabati.
41. Tasavvufning irfoniy ta’limoti.
42. So‘fizmda komil inson masalasi
43. Abu Xomid Gazzolliy xayoti, ijodi va merosi.
44. G‘azzolliyning tasavvufiy ta’limoti.
45. Abduholik G‘ijduvoniy Axmad Yassaviylarning xayoti, ijodi av meroslari.
46. G‘ijduvoniy va Yassaviylarning tasavvufiy ta’limotlari.

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha kafedra professor – o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzular bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuninglek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### **Darslik va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard-maqsadimiz t 8. T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l-demokritik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan xamkorlik yo‘li t.n.-T.: O‘zbekiston, 2003.
3. O‘zbekistonda ijtimoiy — falsafiy fikrlar tarixidan T. 1995.
4. Ma’naviyat yulduzları . 1995.
5. Jumaboyev Sharq falsafasi T. 2006.
6. Jumaboyev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan T. «O‘qituvchi» 1997.
7. Ocherki po istorii obshchestvenno — filosofskiy misli v Uzbekistane T. FAN 1997.

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Sharipov A.D. Velikiy mislitel Beruni T. 1972.
2. Stepanyans M.T. Filosofskie aspekti sufizma M., 1987.
3. Ibroxim Xakdul. Tasavvuf va shariat T. 19991,
4. Abu Iso Termiziy Saxixi Termiziy T. 1993.
5. Axmad Yassaviy. Xikmatlar. T, 1991.
6. Orif Usmonov Baxouddin nakshbandiya va uning ta’limoti T. 1994.
7. Xayrullaev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari T. 1963.
8. Yusuf Xos Xojib Kutudg‘u blik T. 1972.
9. Imom Buxoriy Xadis 1 — IV 1991 — 1996.
10. Imom Gazzoliy Kimyoi Saodat T. Shark 1995.
11. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 1993.
12. Usmonov M. O‘rta asr Sharq buyuk mutafakkiri Ar — Rozoy T. Fan. 1968.

- 13.O‘rta Osiyo xalqlari xurfikrligi tarixidan T. FAN. 1990.
- 14.Iskandarov B. O‘rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy — siyosiy
- 15.Ajdodlarimiz merosi — mafkuramiz gavxari T.
- 16.Buyuk iste’dod soxiblari T. 2002.
- 17.Xayrullaev M.M. Uyg‘onish davri va sharq mutafakkiri T. 1971.
- 18.Xayrullaev M.M. Kulturnoe nasledie i istoriya filosofskoy misli T. 1974.

## SO‘Z BOShI

XIX asrning uchdan ikkinchi qismigacha Sharq va G‘arb falsafasi ***umuman***, mustaqil ravishda rivojlandi. Bu yerda quyidagilarni qayd etib o‘tish lozim. X-XI asrlardagi arab tilidagi falsafaning shakllanishi bevosita qadimgi dunyo falsafasi, avvalo Arastu va Aflatun qarashlari ta’sirida yuz berdi. Tasodifiy emaski, “Sharq peripatetizmi” istilohi mavjud. O‘z navbatida, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Tufayl va Ibn Rushd kabi arab tilida ijod qilgan faylasuflarning asarlari o‘rta asrlardagi Yevropa falsafiy tafakkuriga ta’sir o‘tqazdi. Keyinchalik musulmon Sharqining falsafasi borgan sari ko‘proq islom yo‘nalishi taraqqiyotida o‘zining yorqin ifodasini topa boshladi.

O‘zining tushunchaviy dastgohi, muammolarni qo‘yilish tarzi, masalalar va ularni yechish usullarini topishdagi fikriy vositalar, ya’ni u yoki bu tarzagi falsafiy tafakkurning bir butun jihatni va xususiyati nuqtai nazaridan Sharq va G‘arbning falsafiy tizimlari bir-birlaridan shunday jiddiy tafovutlarga ega ediki, bu narsa ko‘pgina mutafakkirlarga Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurining ***o‘ziga xosligi*** haqida gapirishga turtki berdi. XX asrning birinchi yarmida bu falsafiy tafakkurning asosiy alohidalik tarzi saqlanishda davom etdi. Bundan tafakkur tarzining ichidagi turli falsafiy oqimlar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Misol sifatida Yevropa falsafasini olamiz. An’anaviy ***mumtoz*** falsafa davomchilari ham (yangi kantchilik, yangi hegelyanchilik, yangi tomizm), yangi ***aksilmumtoz*** va ***mumtoz bo‘lmagan*** yo‘nalishlarning asoschilari ham (hayot falsafasi, pozitivizm, ekzistensializm, marksizm) o‘zlaridan boshqa barcha yo‘nalishlarga qarshi turganliklarini e’lon qilish zaruriyati bor, deb hisoblar edilar. Agar XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmi falsafasidagi oqimlar holatini qisqacha ifodalasak, uni quyidagicha ta’riflash mumkin: ***barchaning barchaga qaratilgan urushi***.

XX asrning ikkinchi yarmidagi falsafiy tizimlarning tarqoqligi va bir-biriga qarama-qarshiligi ikki asr chegarasidagi jamiyatning umumiyligi tanazzuli va o‘tish davrining qarama-qarshiligini ifodalar ediki, bu davrda insoniyat ilgarigi hayot tarzi shakllarini keskin tanqid qilib, ijtimoiy hayotning yangi shakllarini qidirishga boshlagan edi.

XX asrning ikkinchi yarmida vaziyat tubdan o‘zgaradi. Birinchidan, dunyoviy jarayonlarning o‘ta umumiylashuvi yuz beradi. Bu hodisani K.Yaspers qayd etib, 40-yillarda yozgan edi: “Barcha muhim muammolar butun dunyo muammolariga, vaziyat – butun bashariyat vaziyatiga aylandi”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> К.Ясперс. Смысл и назначение истории (Тарихнинг маъно-моҳияти ва рисолати). –М., 1994. –Б.141.

Insoniyat bir-biriga bog‘liqligi, birlik va butunligini anglash tomon bormoqda. Zamonning qat’iy talabi madaniyatlarning bir-biri bilan muloqotidir va bu jarayonning eng muhim qismi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi falsafiy suhbat (dialog)dir.

Ikkinchidan, bugun biz ko‘p qutbli dunyo shakllanishining shohidi bo‘lib, dunyo taraqqiyotining yangi markazlari maqomini olishga da’vogarlik qilayotgan mintaqalarning tashkil topishini kuzatib turibmiz. Ilgari texnologik va iqtisodiy jihatdan qoloq bo‘lgan Sharq endilikda o‘zining iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlari jihatidan G‘arb bilan solishtirilmoqda. Agar Janubiy-Sharqiylar Sharqiylar Osiyoning Yaponiya, Janubiy Quriya, Singapur, “Katta Xitoy” (Xitoy, Gonkong, Tayvan) kabi ma’naviy madaniyatda umumiyligi belgilarga ega bo‘lgan mamlakatlarni olsak, unda biz dunyo taraqqiyotining yangi mintaqaviy markazi haqida so‘z yurita olamiz. Sayyoraning markaziy osiyocha mintaqaviy markazining shakllanishi yuz bermoqda.

Shubhasiz, yangi voqeylek o‘z aksini falsafada ham topmoqda. Falsafiy maktablarning bir-biriga qarama-qarshiligi asta-sekin o‘zaro hamsuhbatlikka va birlashtiruvchi nuqtalarni izlash tomon bormoqda. Falsafiy yo‘nalishlarni dag‘allik bilan qalamga olish barham topmoqda. Turli falsafiy dasturlar sinteziga asoslanib tashkil topgan yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Ekzistensializm va yangi hegelyanchilik, yangi tomizm, yangi kantchilik, fenomenologiya, germenevtika va lingvistik tahlil, ekologik insonparvarlik va strukturalizm, bixevoirizm va intuitivizm, yangi pragmatizm va boshqa oqimlar o‘rtasida yangi duragaylar paydo bo‘lmoqda<sup>1</sup>.

Boshqa yo‘nalishlar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Yu.Xabermasning o‘zi oxirgi o‘n yillikdagi falsafiy vaziyatni shunday ta’riflaydi: “Umuman oxirgi o‘n yillikda shunday hissiyot tug‘ildiki, bizning yuz yilligimiz uchun xos bo‘lgan falsafiy harakatlar o‘zlari odatlangan belgilarini yo‘qotmoqdalar. Biz, go‘yoki o‘tish davrida yashayotgandekmiz”<sup>2</sup>.

G‘arb va Sharq falsafiy madaniyatlarining o‘zaro bir-birlariga kirib borish jarayoni ko‘proq faollashmoqda. Sharq mamlakatlarida yevropacha-amerikancha falsafiy an'analar bilan tanishish borgan sari chuqurlashib bormoqda. Boshqa tomonidan, Sharq falsafiy tizimlarining an'anaviy g‘oyalari G‘arbda o‘zining yoyilishini davom ettirmoqda. A.Shopengauer, F.Nisshe, U.Djems, R.Emerson, Dj.Roys, M.Xaydegger, K.Yaspers, K.Yung, E.Fromm va boshqalar o‘zlarida u yoki bu darajada Sharqning falsafiy va diniy ta’limotlari tomonidan ta’sirga duchor bo‘lganliklarini sezdilar.

<sup>1</sup> Карап: С.Ангелов, Д.Павлов. Философия, наука, общество. (Фалсафа, илм-фан, жамият). –София, 1975. (Булғорчадан таржима). –Б.69.

<sup>2</sup> Вопросы философии (Фалсафа масалалари) журнали. –М., 1989. №9. –Б.80.

Masalan, XX asr Yevropa falsafasining eng muhim yo‘nalishlari boshida turgan A.Shopengauer o‘zining asosiy asari bo‘lgan “Dunyo iroda va tasavvur sifatida” kitobining muqaddimasida kitobxonni ogohlantirib yozadiki, qadimgi hind donishmandligi bilan tanishish, uni falsafasini tushunishning shartlaridan biridir. Mana shu asarning o‘zida u yozadi, “Hind donishmandligi yana qayta Yevropaga intilib, bizning bilimlarimiz va tafakkurimizda tubdan to‘ntarish yasaydi”<sup>1</sup>. M.Xaydeggerning do‘stlaridan birining eslashicha, mashhur faylasuf, yapon mutafakkiri D.T.Sudzukining “Dzen-buddaviylik” kitobini o‘qib chiqib qayd qilgan ekan: “Agar men bu odamni to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, bu shuning o‘ziki, men o‘zimning barcha asarlarimda o‘shani aytishga harakat qilganman”<sup>2</sup>. Va shunga o‘xhash gaplarning ro‘yxatini davom ettirish mumkin.

Sharqning dunyoqarash yo‘nalishlarining hozirgi zamon G‘arb fikriga ta’siri, avvalo, insonning ichki dunyosini falsafiy tushunish, mikrokoinot va makrokoinot uyg‘unligi, ijtimoiy qurilish, axloqiy va estetik g‘oyalarga taalluqliligidadir. Gap shu yerdaki, agar ma’lum shartlar bilan aytish mumkin bo‘lsaki, G‘arb *tashqi dunyonи* (tabiatni) nazariy jihatdan o‘zlashtirishda muhim ko‘rsatkichlarga va natijalarga erishgan bo‘lsa, Sharq ham *ichki dunyonи* (insonni) bilish yo‘lida qat’iy ta’sir qoldiruvchi yutuqlarga erishdi. Shu munosabat bilan akademik N.N.Konrad yozgan edi: “Har bir avlod uchun shuni yodda tutish zarurki, Sharqning inson va jamiyat haqidagi ilmning barcha sohalaridagi nazariy fikrini hisobga olmoq lozim, negaki, ayniqsa ana shu sohalar g‘oyat mufassal va keng miqyosda Sharqda ishlab chiqilgan”<sup>3</sup>.

Falsafaning mohiyati – bu “olam-odam” tizimidagi umumiyl muammolar ustida fikr-mulohaza yuritishdan iboratdir.

Falsafa ichki jihatdan ixtisoslashmagan, kundalik hayotda mavjud bo‘lgan bilimlar bilan bog‘liqdir. Bunday aloqa eng avvalo falsafaning tilida namoyon bo‘ladi. Falsafaning tili shaxsning hayotiy tajribasini qayd etadigan so‘zlarga boy bo‘ladi. Bu so‘zlarning vazifasi – odamlarning har kungi amaliy faoliyatini, ularning o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqelik bilan bevosita aloqaga kirishishlarini ta’minalash, shu jumladan, umumijtimoiy muhit bilan bevosita aloqaga kirishishini ta’minalashdan iborat. Falsafa tilini har kuni ishlatadigan tilimiz bilan solishtirib tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, umuman olganda falsafaning tili maxsus fanlar tiliga nisbatan jonliroq, tabiiy tilga yaqinroqdir. Falsafiy tushunchalar madaniyatning rivojlanib borishi asosida shakllanadi hamda kundalik til tarkibida mujassamlashadi. Falsafa so‘zlarni izohlash jarayonida o‘z tushunchalarini tizimlashtiradi, ularning ma’nosini yanada

<sup>1</sup> А.Шопенгауэр. Собрание сочинений (Асарлар тўплами). –М., 1992. Т.1. –Б.334.

<sup>2</sup> Иктибос: “История современной зарубежной философии” (“Хозирги замон хорижий Шарқ фалсафасининг тарихи”). –СПб., 1997. –Б.404.

<sup>3</sup> Н.И.Конрад. Запад и Восток (Фарб ва Шарқ). –М., 1972. –Б.27.

chuqurlashtiradi, lekin ularning umumiy ma’nosini ham, iste’moldagi ma’nosini ham o‘zgartirmaydi.

Falsafiy bilimlarning mazmuni o‘z ichiga sog‘lom fikrni jamlab, hodisalarining eng muhim sabablarini bilishga va ulardan kundalik amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan bo‘ladi.

Aynan mana shu kundalik bilimlarda, ularning teran ma’nosida insoniyat hayotidagi bebaho qadriyat – “donolik” deb nom olgan fazilati qiyomiga yetib, chuqur ma’no kasb etib boraveradi. Tabiat to‘g‘risidagi bilimlarda bunday qadriyat ishlatilmaydi. Shuning uchun ham biz ba’zan kishilarni “o‘z fanini yaxshi biladigan mutaxassis” deymiz, lekin uni hech qachon “dono odam” demaymiz. Mabodo u yoki bu olim to‘g‘risida mazkur tushunchani qo‘llaydigan bo‘lsak, bu o‘sha olimning o‘z fanini nechog‘lik bilishinigina ifodalamaydi, balki o‘sha olimning olamga, hayotga nisbatan umumiy munosabatiga taalluqli bo‘ladi.

### **ShARQ FALSAFASIGA MUQADDIMA**

Bilish va o‘z-o‘zini bilish-bular shunday aqliy amaliyotki, ular koinot bilan bog‘liq bo‘lgan uyg‘unlikni va unga muvofiq keladigan jamiyatni shakllanishini idrok etish bo‘lib, bular ham o‘z navbatida inson xaqidagi g‘amxo‘rlilikni ko‘zda tutgan holda tashkil topganlar. Hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasidan farqli o‘laroq, qadimgi zamon ta’lim tizimi axborotlarni berish va aqliy qobiliyatni mashq qildirishdangina iborat emas edi. U hayot uchun zarur bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarni tayyorlashni ko‘zda tutar edi. Shunday qilib, Yunon falsafasining sof haqiqatni topishga bo‘lgan yo‘nalishini inkor etmagan holda, shuni qayd etmasdan bo‘lmaydiki, ushbu haqiqat avvalo, qurilmagan, balki ochilgan, unga yuklatilmagan, balki borliqdan keltirib chiqarilgan, ikkinchidan esa, bevosita hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib, uni tushungan sub‘ekt qalbini yoritgan, unga donishmandlik ato etgan, sabru toqatga chidashni o‘rgatgan, jasorat bag‘ishlagan va uning xatti-harakatini belgilab bergan.

Nazariy ko‘rsatma-qadimgi dunyo madaniyatining eng muhim yutuqlardan biri bo‘lib, Yaqin Sharq mamlakatlari orqali u Yevropa madaniyati tomonidan o‘zlashtirilgan. Ushbu ko‘rsatma Fales ijodidayoq o‘zini ko‘p darajada namoyon qildiki, u falsafanigina emas, balki riyoziyotni (matematika) ham nazariylashtirishni taklif qildi. Ba’zi bir handasaviy (geometrik) aksiomalar ifodasi unga tegishlidir: “tomonlari teng bo‘lgan uchburchakning asosiy burchaklari bir-biriga tengdir”, “doira o‘z diametrida ikki teng bo‘lakka bo‘linadi” va shunga o‘xhash (hammasi bo‘lib beshta aksioma). Shunday tuyilishi mumkinki, ularda faqat tajriba ifodalanib, umumlashtirilyapti. Ammo bu shunday emas: aksiomalar g‘oyaviy ob’ektlarga taalluqli bo‘lib, umumiy va zaruriy jihatlarga ega bo‘lganligidan ularni

dalil va mulohazalar asosi sifatida foydalanish uchun qabul qilish mumkin. Fanlarni bunday tarzda tizimga solish Bobil riyozidonlariga ma'lum emas edi. Ular ko'plab hisob-kitob formulalarini ishlab chiqdilar, ammo ularni isbot qilishga urinmadilar.

Ko'hna falsafiy matnlarni tushunish, ularning madaniy zamini bo'lgan til, milliy o'ziga xoslik va hayot shakllari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarga ko'ra katta qiyinchiliklar tug'diradi. Har qanday tarixiy davr faqat erishilgan bilimlar darajasi bilangina ifodalanmay, balki fikr taraqqiyoti yo'nalishini belgilovchi qadriyatlar yo'nalishi bilan ham o'z ifodasini topadi. Yozuv stoli ustida amalga oshirilgan metafizikanı dalillar tizimi sifatida tushunishga qarshi turgan M. Xaydeger uni dunyodagi borliq tajribasi bilan bog'laydi<sup>1</sup>.

Falsafiy tushunchalarning kelib chiqish ma'nosi ruhiy tarkiblarda ham, "ongsiz ravishdagi arxetiplarda" ham ildiz otgan. Masalan, qanday tajribaviy omillar yoki nazariy dalillar Falesga barcha borliqning birinchi ibtidosi sifatida suvni, Geraklitga esa – olovni olishga turtki bo'lganligini bilish qiyin ish. Vaholanki, olamning ushbu tabiiy unsurlari barcha dunyo xalqlarining afsonalarida mavjud. Bu shundan guvohlik beradiki, ular inson ruhining kelib chiqish timsolining tasvirlari bo'lib, o'z navbatida ular falsafiy tushunchalar mazmunida ham saqlanadilar.

Qadim dunyo va o'rta asrlar falsafasida aql boshqaruvi markazi sifatida maydonga chiqib, haqiqatni aniqlash masalalarida bosh hakam edi. Aql, ruh va tana tabaqalangan ravishda tushunilar edi: tana harakatining sababi ruh, deb tushunilsa, bu harakatni yo'naltiruvchi aql hisoblanar edi. Biroq, shunday tabaqalashgan namunani aniq bayon qilgan Arastuda ham aql inson va jamoadan yuqori turuvchi kuch sifatida maydonga chiqib, borliqning o'z hokimiyatining namoyondasi vazifasini bajaradiki, uning tartibiga muvofiq hayot va ma'rifatning har qanday shakllari tashkil topadilar. Aflatunda esa, borliq mohiyatini aqliy tushunish tarzi bilan bir qatorda, nazariyadan tashqarida turuvchi kuch borligi taxmin qilinadiki, u insonni rohat-farog'atga, eng yaxshi erosga boshlab boradi. Shuning uchun haqiqat, e兹gulik va go'zallik haqidagi masalalarni yagona butunlikka bog'lashga urinish yunon mutafakkirlariga xos narsadir. Koinotga esa hamohang tovushlar jaranglayotgan nafis mutanosiblikdagi inshoot qiyofasi beriladi. O'z qismlari bir-biriga muvofiq va odilona joylashganligi tufayli yaxshi qurilmaga ega bo'lgan Koinot, o'zining yetuk tartibda ekanligidan o'z-o'zini saqlaydi: unda bir joydan ikkinchisiga o'tish yoki o'zgarish uchun sabab yo'q, negaki unda hamma narsa o'z joyida. Faqat yetuk bo'limgan narsagina harakat qiladi va azob chekadi. Shuning uchun inson Koinotni yaxshi ko'radi, unga mansublikka intiladi, u yetuklikka

<sup>1</sup> Қаранг: Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). (Метафизиканинг асосий тушунчалари (Кириш))//Вопросы философии. –М., 1989. –№9.

erishishga umid qiladi.

Arastu o‘zicha osmon gumbazi, Yer hamda barcha o‘simliklar va jonzotlarni sig‘dirgan borliq doirasi sifatida tabiatni (fyuzis) mohiyatini ochib beradi. Aynan ana shu tabiiy doira, sun’iyga qarshi o‘laroq (texne), bilim mavzusi (episteme) sifatida maydonga chiqib, paydo bo‘lish va zavol topish, borliqning bir butunligi, ayrim olingan ashylarning ichki mohiyati, birinchi harakatlanuvchi kuch, ruh va shunga o‘xhash masalalar haqidagi qarashlarni o‘rtaga qo‘yadi. Voqeylek xayoliy g‘oyalar dunyosi yoki mutlaq shifr sifatida emas, balki mustahkam, o‘z-o‘zini saqlanishi uchun tashqi kuchlarga ehtiyoji bo‘lmagan, o‘rganilishi lozim bo‘lgan ob’ektiv tartib sifatida qaraladi. Aql ruhga yoki g‘oyalar saltanatiga qarab emas, balki aynan ungagina qaratilgan. Uning birinchi amali – ayrim ashylarni qabul qilish bo‘lib, undan keyingina o‘zining tafakkur, xotira, ajablanish, tushuntirish va shunga o‘xhash mexanizmlarini ishga soladi.

Aflatunchilar nazarida ruh bevosita o‘z-o‘zini tushungan vaqtida, ruhning Arastucha talqini qoidasi tananing hissiy tajribasini, mantiqiy qonunlar va kategoriyalarni ham hisobga oladi. Ruh haqidagi barcha mulohazalar sabab-oqibat va ayni zamonda maqsadli qatorlarda harakat qiladilar. Aql masalasida Arastu uning faol va faoliyatsiz qismlarini bir-biridan farq qiladiki, bu ustoz va shogird munosabatini eslatadi. Ana shu jihatdan Stagiritning risolalari Aflatunning dialoglaridan farq qiladi. Aflatunda o‘z-o‘zini bilish ham, shuningdek o‘rganish ham, suhbat qurish asosiga qo‘yilgan. Arastu asarlarida bahs yuritish unsurlari jonli bahs sifatida emas, balki ilmiy talqin va ob’ektiv naqlu qavl (sitata) va boshqalar aytgan fikrlar va nuqtai nazarlarni bir-biriga solishtirish sifatida mavjud. Aftidan, asarlarining ana shunday shakli o‘rtta asr universitetlarida va Sharq mamlakatlarida g‘oyat darajada mashhur bo‘lib ketishiga sabab bo‘ldi.

Tabiat haqidagi ta’limotda mo‘taziliylarning ko‘philigi atomistik nazariyadan kelib chiqib, shuni qayd etdilarki, har qanday jism izchil bo‘linish jarayonida bo‘y, rang, hid va boshqa sifatlarga ega bo‘lgan unsur parchalarga bo‘linadilar. Har bir shunday zarra bo‘yga ega bo‘lmagan muayyan miqdorda atom parchalaridan tashkil topgan bo‘lib, harakat qilish va sokin holatda bo‘lishdan boshqa har qanday xususiyatlardan holidir. Bunday nazariyadan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin edi: borliqning shakllari abadiy bo‘lgan moddaning o‘zida imkoniyat darajasida mavjuddir, ammo, majhul qarashga ko‘ra, u qandaydir shakllanmagan va shuning uchun u yo‘qlik bilan ayniyatdadir; xoliqning yagona vazifasi barcha zaruriy sifatlarga ega bo‘lgan moddani yana bir sifat, ya’ni mavjudlik bilan siylashdir; moddiy dunyoda ko‘zga tashlanadigan barcha hodisalar sababiy shartlangan xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘z asoslarini tabiatdagi ashylarda topadilar. Mo‘taziliylarning barcha hodisalarni aqliy yo‘l bilan bilish mumkinligi haqidagi aqidalari ana shundan

kelib chiqadi. Ular bilishni vahiy orqali idrok qilishga salbiy munosabatda bo‘ldilar. Ilk islom aqidalariga ishonishni ularning ko‘pchiligi faqat shuning uchun qabul qilish mumkin, deb bildilarki, ular axloqiy doirada ko‘pchilikka foyda yetkazishi mumkin.

Musulmonlarni qadimgi yunon mutafakkirlari asarlari bilan tanishtirish Suriya xristianlari orqali amalga oshirildi. Og‘ir mehnat bo‘lgan ikki tomonlama tarjima jarayoni, ya’ni yunon tilidan Suriya tiliga, undan arab tiliga qilingan ishlar avval boshda ko‘proq tabobatga, tabiiy-ilmiy asarlarga qaratilgan edi. Ammo tez orada kitobxon ziyorolar va tarjimonlarning qiziqishi falsafiy adabiyotlarni ham qamrab oldi. Bu qonuniy jarayon edi. Chunki, Sharq xalifaligi deb atalgan Bag‘dod va unga tobe bo‘lgan musulmonlashish jarayoni boshlangan o‘lkalarda savdo-sotiqlar va hunarmandchilik gurkirab o‘sib, ular asosida matematika, mexanika, optika, kimyo, astronomiya, jug‘rofiya, tabobat va boshqa nazariy va amaliy fanlarga ehtiyoj katta edi.

Ma’rifatli doiralar diqqat markazida Arastu falsafasi turar edi. Biroq, uni musulmon dunyosida o‘zlashtirish shunday xususiyatga ega ediki, uning asarlari bilan tanishish keyingi davr arastuchilari va yangi aflatuncha sharhchilar vositasida, masalan, Aleksandr Afrodiziyl, Femistiy, Porfiriy va boshqalar ijodining samarasi orqali amalga oshirilgan edi. Bir qancha uydirma asarlar ham keng tarqalgan bo‘lib, ulardan eng muhimi “Arastu ilohiyoti” deb atalgan asar edi. Ushbu asar aslida Plotinning “Enneadlar” asarining bir necha boblaridan iborat edi. Ana shunday “yangi aflatunchilikka aylantirilgan” arastuchilik musulmon sharqi arastuchilari tomonidan ishlab chiqilgan ta’limotga asos bo‘ldi.

Musulmon Sharqi arastuchiligining asoschisi “arablar faylasufi” deb nom olgan Abu Ishoq al-Kindiy (800-870) edi. U arablardan birinchi bo‘lib, Arastu falsafasining asosiy qoidalarini ilmiy amaliyatga kiritdi. Al-Kindiy o‘z risolalarida tabiat hodisalarini sababiy bog‘lanishda ekanliklarini ko‘rsatishga harakat qildi. Olamni zamonda yaratilganligini inkor etmasa ham, xudoni u “uzoqdagi sabab” sifatida ko‘rsatib, garchi u dunyoni yaratgan bo‘lsa-da, uning kelgusida o‘z qonunlariga muvofiq ravishda rivojlanishiga imkon beradi. Sharq arastuchiligi tarixida uning tomonidan oldinga surilgan aqlning to‘rt xili haqidagi ta’limot katta o‘rin tutadi; “faol aql”, ya’ni tashqi borliqqa ega bo‘lgan umumiy narsalar majmuasi; “imkoniyatdagi aql”, ya’ni ruhning tashqi umumiy narsalarni qabul qilishga qodirligi, ya’ni inson tomonidan yozish san’atini o‘rganishga o‘xshash; “kasb etilgan aql”, ya’ni yozish san’atiga o‘xshagan, ruhda faol ravishda mavjud bo‘lgan, ammo hali kotib tomonidan foydalanmagan qobiliyat; “o‘zini namoyon qiladigan aql”, ya’ni o‘sha kasb etilgan aql, ammo o‘zini yozish san’ati kabi tashqarida namoyon qilgan va kotib tomonidan yozish jarayonida

idrok etilgan aql.

Sharq arastuchiligining bundan keyingi taraqqiyoti Abu Nasr Forobiy (870-950) va Ibn Sino (980-1037)lar nomi bilan bog‘liq. Al-Kindiyga qarshi o‘laroq, bu ikki faylasuf xudo olamni yaratib qo‘yib, uning ishlariga aralashmaydi, degan aqidani rad etib, dunyonи xudo kabi abadiy ekanligini isbot qilib, “dunyonи yaratilganligi” istilohidan bosh tortmagan holda unga shunday ma’no baxsh etdilarki, xudo “vojibul vujud sifatida o‘z mohiyatidan kelib chiqib”, moddiy dunyo mavjudligini faqat himoya qiladi xolos. Moddiy dunyo esa “o‘zi tufayli mumkinul vujud” sifatida maydonga chiqadi. Ularning fikricha, xudo mutlaq birlik bo‘lganligidan qandaydir ko‘plikning sababi bo‘la olmaydi: yagonalikdan bevosita faqat yagonalik kelib chiqadi. Xudodan birlik mahsuli sifatida kelib chiqadigan o‘z-o‘zini bilish natijasi bo‘lgan “birinchi aql” maydonga chiqadi. “Birinchi aql” vojibul vujud bo‘lganligidan xudoni idrok etadi va undan “ikkinchi aql” kelib chiqadi, negaki, u ayni zamonda o‘z-o‘zini bilganligi uchun mumkinul vujud hamdir. Shuning uchun undan o‘z moddiyligi bilan va unga muvofiq keladigan shakl bo‘lgan ruh sifatida oliy samoviy doira kelib chiqadi. “Ikkinchi aql” o‘z navbatida kelgusida keladigan doiraning ruh va jismini, hamda undan ham pastki doirada joylashib o‘zini boshqarib turuvchi doira bo‘lgan “uchinchi aql”ni keltirib chiqaradi va hokazo. Shunday kelib chiqishlar tizimi bo‘lgan emanatsiya “faol aql” bilan tugallanadiki, u oy ostidagi dunyoda mavjud bo‘lgan insoniy ruh va to‘rt unsur borlig‘ining sababi – “paydo bo‘lish va zavol topish dunyosi” sifatida maydonga chiqadi.

Xudo Forobiy va Ibn Sino ta’limotida, al-Kindiy ta’limotida bo‘lgani kabi “uzoqdagi sabab” vazifasini bajaradi. Xudoning dunyoga bo‘lgan munosabatini bunday talqin qilish tabiatga mansub bo‘lgan g‘oyalarni rivojlantirishga keng imkon yaratadi.

## **1-mavzu. SHARQ FALSAFASINI O'RGANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**

**Reja :**

1. Falsafaning musulmon jamiyatida tutgan o'rni va asosiy vazifalari
2. Sharq falsafasining asosiy muammolari va ma'naviyatda tutgan o'rni

### **1. Falsafaning musulmon jamiyatida tutgan o'rni va asosiy vazifalari**

Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur taraqqiyoti to'g'ri chiziq bo'ylab rivoj topmagan. Garchi ba'zi taraqqiyot bosqichlarida va ayrim sohalarda o'zaro ta'sirni istisno qilmagan holda Sharqqa taalluqli uch mintaqa, ya'ni Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy – mustaqil madaniy butunlikni tashkil etgan.

Yaqin Sharq tom ma'noda qadimgi davrda falsafiy an'anaga asos sola olmagan. Ammo u dunyoning boshqa mintaqalaridan farqli o'laroq, dehqonchilik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan doimiy ravishda ilgarilab ketgan. Bu narsa bilim va tajriba to'planishiga omil bo'lган. Hosil qilingan amaliy ma'lumotlar nazariy tafakkur rivoji uchun turtki bo'lган. Ular umuman diniy tasavvurlar, mafkura va madaniyatga o'z ta'sirlarini o'tqazganlar.

Ushbu boy meros asoslarini Kichik Osiyo qirg'oqlarida yashovchi yunonlar va ular orqali butun ellistik dunyo o'zlashtirib olgan. Insoniyatning barcha bilim sohalariga Yunoniston qo'shgan buyuk hissani, shu jumladan, falsafa sohasidagi tafakkur taraqqiyotini yuqoridagi asoslarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yaqin Sharqning qadimgi madaniyati Hindiston bilan aloqada bo'lган. Ammo bu yerdagi fikr taraqqiyoti avval boshdanoq ozmi-ko'pmi mustaqil ravishda rivojlangan. Hindistonda iqtisodiy, siyosiy va irqiy o'zgarishlarga qaramasdan falsafiy an'ana to'laligicha hech qachon uzilmagan. Bu an'ana hind jamiyatida doimiy barhayot madaniy merosning barqaror unsuri sifatida mavjud bo'lган.

Xitoyning qadimgi va o'rta asrlar falsafasini ham Xitoy jamiyatining ma'naviy hayotidan ajratib bo'lmaydi. U ham mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Ammo faqat buddaviylik unga sezilarli ta'sir etgan bo'lsa ham, biroq bir necha asrlar davomida u mahalliy an'ana va ma'naviy hayotga moslashtirilgan.

Eramizdan oldingi to'rtinchli va uchinchi ming yilliklar orasida Baynal-nahrayn va Misr zaminida yozuvning mavjudligi haqida birinchi dalillar qo'lga kiritildi. Ammo Yaqin Sharq o'lkalaridagi yozma yodgorliklar aniq tushunchalar dastgohiga ega bo'lган to'la falsafiy tizimlar emasligi ayon bo'ldi. Unda borliq va dunyoning mavjudligi (borliq haqidagi ta'limot) haqidagi muammo, hamda insonni uni o'rabi turgan dunyoni bilish imkoniyatlari (bilish nazariyasi)

haqidagi masalada aniqlik yo‘q. Bunday taraqqiyot bosqichiga Yevropa falsafiy fikri an’analari ibtidosida turgan qadimgi yunon falsafasi mutafakkirlarigina chiqqanlar. Ammo qadimgi yunon falsafasi rivojini va unga bog‘liq bo‘lgan butun fikriy taraqqiyotni Yaqin Sharqdagi qadimgi madaniyatlarning merosisiz to‘la tushuntirib bo‘lmaydi. Biroq Yaqin Sharqdagi madaniyatlar ta’sirini izchil tadqiq etish ishiga nisbatan kech kirishilganligi uchun keyingi yuz yil ichida qo‘lga kiritilgan natijalar bilangina chegaralanishga to‘g‘ri keladi.

## **2. Sharq falsafasining asosiy muammolari va ma’naviyatda tutgan o‘rni**

Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurban va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un ravishda rivojlanib borishni doimo davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markaziga qo‘yib kelmoqdamiz”<sup>1</sup>.

Forobiy o‘zining “Al-huruf” (Harflar) asarida shunday deydi: “Agar din barcha umumiy jihatlari bilan takomillashadigan falsafaga itoat etsa, unda u haq va to‘g‘ridir. Ammo agar din to‘g‘ri tahliliy falsafa hali shakllanmay, balki halq tafakkuri, g‘oyasi bo‘lgan ritorika (balog‘at san’ati, so‘zamollik), dialektika (bahs) va sofistika (har qanday vosita bilan bo‘lsa ham raqibni so‘zda lol qoldirish) bilan band bo‘lgan davrda paydo bo‘lsa, bunday falsafaga bo‘ysungan din ham yolg‘on va xatolardan xoli bo‘lmaydi. Ko‘p hollarda u boshidan oxirigacha noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Falsafa dinga nisbatan ham birlamchi mavqega ega, chunki falsafa – mag‘z, din – po‘stloq, aniqrog‘i – falsafaning qurolidir”<sup>2</sup>.

Uning fikricha, din juda katta ahamiyatga ega. Zero, bir tomonidan uning mohiyati yana o‘scha oliy falsafadir, boshqa tomonidan esa shariat insoniyat jamiyati mavjudligi va ijtimoiy tartib barqarorligi uchun falsafa singari zarur. Forobiy uchun asosiy tayanch analitika (tahlil va tadqiq)ga qurilgan falsafadir. Uningcha, haq din bilan haqiqiy falsafa birdir. Faqat falsafa – xoslarga tegishli, dinning tili esa xoslarga ham, avomga ham tushunarlidir.

Forobiy fikricha, payg‘ambarlar va faylasuflar bilimlarining manbai bittadir. Faylasuf faol aql bilan qo‘shilib, haqiqatni biladi, Payg‘ambar esa – haqiqatning in’ikosi bo‘lmish vahiy orqali biladi. Din esa vahiy asosidagi haqiqatdir. Din va

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.68-69.

<sup>2</sup> Қаранг: ٦٧ // الفلاسفة الإسلامية و بناء الإنسان المعاصر، القاهرة، ١٩٩٧، ص.

falsafa – har ikkisi ham bilim va mushohadadir, farq shundaki, din soddalashtirilgan falsafadir. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatlaridir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariga tayanadi, din esa o'sha hukmlar va qoidalarning xitobiy shaklidir. Uning din va falsafaning yagona birligi haqidagi mulohazalariga qaramasdan, keyinchalik, Forobiy falsafani dindan afzalroq va ustunroq qo'yanligiga urg'u bera boshladilar.

Islom falsafasi o'z tarkibiga besh yo'nalishni qamrab oladi: tasavvuf, kalom, mashshoiyun (peripatetiklar yoki falosifa), ismoiliy va ishroqiylar. Bularga hozirgi zamon eron faylasufi Muhammad Xotamiy quyidagicha ta'rif beradi:

“Amalda musulmon jamiyatining rasional mavzularini hamda Kalomulloh (Vahiy) va aql, falsafa va din orasidagi munosabatlarni muhokama qilib, har biri islom tarixida va musulmonlarning taqdirida alohida iz qoldirgan to'rtta tamoyil (yo'nalish)ni ko'rish mumkin:

1. Islom falsafasi deb atalgan va din bilan falsafa orasidagi uyg'unlik munosabatlarini oliy darajada qo'yan oqim.

2. Dinni aqliy va mantiqiy muhokamalar, dalillar bilan solishtirganda fikrlaydigan odamda uni qabul qilish uchun hech bir imkoniyat qoldirmaydigan holatda olib ko'radigan oqim.

3. Aql va falsafaning qo'li qisqa, oyog'i cho'loq, u haq va haqiqatga olib bora olmaydi, degan irfon va tasavvuf oqimi. Sufiyalar haqiqatga yurak qanoti bilan yetishish mumkin, deydilar va “dalil keltirib isbotlovchilarning oyog'i yog'ochdandir”, ular haqqqa yetishishga ojiz, deb aytadilar.

4. Din va shariat haybati va hashamati oldida inson aqlining ojizligini ta'kidlovchi oqim”<sup>1</sup>.

Ushbu oqimlar boshqa xalqlar va madaniyatlar, jumladan yunon olimlari qarashlaridan bahramand bo'lgan holda vujudga kelgan edi. Abu Yaqub ibn Ishoq al-Kindiy Forobiidan yuz yil oldin falsafani jiddiy o'rganishga kirishgan edi, boshqa olimlar esa falsafiy asarlarni arab tiliga tarjima qilish bilan chegaralanardilar. Biroq Forobiy bilan al-Kindiy orasida katta farq bor. Bu shunda namoyon bo'ladiki, Forobiy yangi yo'l ochgan o'zining yangi maktabiga asos solgan faylasuf bo'lsa, al-Kindiy o'zlashtirilgan fikrlarni tadqiq etgan olimdir.

Ibn Sino (980-1037) o'zining “Donishnoma” asarida ta'kidlashicha, “harakat deb, odatda makonda sodir bo'ladigan narsaga aytildi; ammo bu tushunchaning ma'nosи hozir boshqacha, makon harakatdan ko'ra, umumiyroq ma'noni anglatadi: imkoniyatdagи narsa bo'lgan biror-bir narsaning istalgan holati va

<sup>1</sup> Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. –Т.: Минхож, 2003. –Б.58.

harakati shu imkoniyat sababidan harakat deyiladi”<sup>1</sup>.

Ibn Sino fikriga ko‘ra, barcha falsafiy ilmlar ikki qismga bo‘linadi: nazariy va amaliy. Bunda nazariy qismning maqsadi – haqiqatni bilish; amaliy qismning maqsadi – saodatga erishishdir. Falsafiy fanlar, Ibn Sino ta’kidicha, ikki turga bo‘linadi: birinchisi bizning shaxsiy xatti-harakatimiz bilan tanishtiradi va u “amaliy ilmlar” deb nomlanadi. Chunki bu bilimlarning foydasi, biz bu dunyoda najot topishga umid qilishimiz uchun, undagi ishlarimiz tartibli bo‘lishi uchun kerak bo‘ladi. Ikkinchisi esa bizni ruhiyatimiz shakllanishi va bu dunyoda baxtli bo‘lishimiz uchun narsalar olamining holatini bizga anglatadi. O‘z o‘rnida tushuntiriladigan bu ilm nazariy deb nomlanadi<sup>2</sup>.

Makon Ibn Sino nuqtai nazaridan jism ham, shakl ham emas. Bu unda jism o‘rin oladigan “hech nima”. U har qanday jismni qurshab oladi. “O‘rin”ning borligi “to‘ldirilgan” makonning mavjudligini asoslaydi. Uning fikricha, “dahr” moddaning, uning o‘zgarishiga bog‘liq abadiy va mutlaq vaqt bo‘lib, qanday bo‘lmisin, makon va harakat bilan tor aloqada mavjud<sup>3</sup>.

Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasi keyinchalik islom falsafasida tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy bilimlar konsepsiyasini ishlab chiqishda diniy va ilmiy bilimlarni uyg‘unlashtirishda muhim vosita bo‘lgan. O‘z navbatida bilishning bu ikki shakli bir-biriga halal bermasligi kerak, degan g‘oya ham ustuvor ahamiyat kasb etgan. Chunki ular bir maqsad – haqiqatni topishi va unga erishish yo‘lida harakat qiladilar, degan yondoshuv konsepsial asosga ega edi.

“Ikki haqiqat nazariyasi” mutakallimlar bilan mu’taziliylar, aql bilan e’tiqod o‘rtasida kelishuv vujudga kelganligidan darak beradi. Chunki keyingi davr musulmon xalqlari tarixidan o‘rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning negizi uning asosiga qurilganini ko‘rish mumkin. “Ikki haqiqat” tarafdarlarining qarashlaridagi bunday xulosalar aslida qadimgi yunon faylasufi Aflatun falsafasiga asoslanar edi. Agar Aflatun falsafasida narsalar dunyosidan oldin, unga nisbatan birlamchi, o‘zgarmas mohiyatga ega bo‘lgan “g‘oyalarnun dunyosi” mavjudligi e’tirof etilsa, unda bu o‘zgarmas mohiyatni anglab yetishning ham ikki yo‘li mavjuddir, deb ishonch bildiradi<sup>4</sup>.

Uning fikricha, bu dunyoning o‘zgarmas mohiyati alohida qobiliyatga ega, o‘ta sezgir odamlarning faoliyati orqali anglab olinadi. Buning ikkinchi yo‘li esa, kishilar tomonidan g‘oyalarnun dunyosi (mohiyat)ning hosilasi bo‘lmish, narsalar dunyosini tashkil etuvchi voqeа va hodisalarning o‘zaro aloqadorligi, sifat hamda xossalari o‘rganish asosida ham mohiyatni anglab olish mumkin.

<sup>1</sup> Ибн Сина. Книга знания “Данишнаме”. –Стилинабад, 1957. –С.168.

<sup>2</sup> Қаранг: Камилов А.Ш. Физические труды ар-Рази и Ибн Сины (Ар-Розий ва Ибн Синонинг физикага оид асарлари). –Душанбе, 1991. –С.104.

<sup>3</sup> Қаранг: Рожанская М.М. Механика в Хорасане и Мавераннахре в средние века (Ўрта асрларда Хурросон ва Мовароуннахрда механика). –М., 1986. автореферат.

<sup>4</sup> Қаранг: Йўлдошев С. Антик фалсафа. –Бишкек: Учкун, 1999. –Б.58-63.

Zamonaviy islomning falsafiy asoslarini o‘rganishda Sharq va G‘arb tajribasini birgalikda olib borish zarurligi haqida T.J.Uinter o‘zining “XXI asrda islom” nomli asarida quyidagilarni yozadi:

“Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi G‘azzoliy tufayli mashhur bo‘lib ketgan edi, o‘sha madrasada fiqh bilan bir qatorda yunon an’analari asosidagi falsafiy ilohiyotshunoslik ham o‘qitilar, shuningdek, o‘sha vaqtdagi rahnamolarni raqib mafkuralarining oyog‘ini osmondan qiladigan zarur qurol bilan ta’minlar edi. Bizga yangi minglikda mujaddid, mu’tadil, bag‘rikeng, ruhoniy ko‘zqarashga ega, dunyoviy tafakkurni tanqid qilibgina qolmasdan, uni tushunadigan va u bilan bahsga kirisha oladigan daho G‘azzoliy kerak. Xususan, bunday shaxs yangi zamonga o‘z hukmini o‘tkazayotgan ma’naviyat, san’at va atrof-muhit masalalarini puxta bilishi darkor. G‘arb kishisiga nima ta’sir etishi va uni nima harakatlantirayotganidan xabardor g‘arblik musulmon mutafakkirlari biladiki, mabodo islom diskursi ushbu masalalarga e’tibor qaratib, muvaffaqiyatga erishadigan, extremizmning yovuz ruhini quvadigan bo‘lsa, dinimiz nafaqat gullab-yashnashi, qolaversa, yangi asrning diniy kurashlarida markaziy o‘rinni qayta egallashi ham mumkin”<sup>1</sup>.

Rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga tadrijiy (evolyusion) va sakrashsimon (inqilobiy) o‘zgarish, eski sifatdan yangi sifatga o‘tish kiradi. Bu ikki turdagи o‘tish fan taraqqiyoti uchun ham xosdir.

Yevropaning musulmon viloyatlarida, ayniqsa, mavrlar Ispaniyasida, musulmon, yahudiy, xristianlar ta’lim berishgan. Uchchala e’tiqod vakillari o‘z diniy aqidalarini yunon falsafasi g‘oyalari bilan himoyalashga urinishgan, bu albatta xristian sxolastikasiga ta’sir etgan.

Siyosatdagi kabi falsafada ham arab-musulmon mutafakkirlari inqilob sodir etishgan emas, balki dastlabki g‘oyalar bilan cheklanishga va shakllantirish mumkin bo‘lganlarini shakllantirishga harakat qilishgan. Lekin ularning fan va falsafaga qo‘sghan hissasi jahon, ayniqsa, Yevropa falsafiy va ilmiy dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatdi<sup>2</sup>.

Abu Homid G‘azzoliy falsafiy dalillarga qarshi raddiya yozganidan keyin islom ilmi falsafa bilan birlashib, bundan keyingi har qanday kelishmovchiliklar bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan adashishlar va xatoliklardan iborat ekanligi yana bir bor ta’kidlandi. Natijada agar falsafa o‘zgaruvchan bo‘limganda, xato va adashishlar ham kelib chiqmas edi – degan xulosaga kelindi. Garchi, borliq, mavjudotlarning asosi va minerallar olami haqidagi gaplar xuddi qadimgi yunon falsafasidagidek bo‘lsa-da va islom faylasuflari haqiqiy falsafaga xos xususiyat

<sup>1</sup> Уинтер Т.Ж. XXI асрда ислом. –Т., Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Баш таҳририяти. 2005. –Б.25.

<sup>2</sup> Қаранг: История философии. Учебник для вузов.// Волкова А.Н., Горнев В.С., Данильченко Р.Н. и др. Под ред. Мопельман В. М. и Пенькова Е. М. –М.: ПРИОР, 1997. –С.120-124.

bo‘lgan ashyolarning mohiyati haqida bahs yuritgan bo‘lsalar ham, ammo bahslarning ma’no va mazmunida chuqur o‘zgarishlar yuz bergan edi.

### **Birinchi mavzu yuzasidan savollar:**

1. Falsafaning musulmon jamiyatida tutgan o‘rni qanday?
2. Sharq falsafasining qanday muammolari bor?
3. Sharq falsafasiga uning mutafakkirlari tomonidan berilgan qaysi ilmiy ta’rif Sizga ko‘proq yoqadi?

### **Birinchi mavzuga oid topshiriqlar:**

Quyidagi asarlarni albatta o‘qib chiqing:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. –T.: O‘zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O‘zbekiston, 1997.
4. Diogen Laertskiy. O jizni, ucheniyax i izrecheniyax znamenitix filosofov. – M., 1986.
5. Sebeos. Istoriya imperatora Irakliya. Per. s armyanskogo K.Patkanyana (Imperator Irakliy tarixi. Arman tilidan K.Patkanyan tarjimasi). –SPb., 1862.
6. Rashid al-Baraviy va Muhammad Hamza Uleysh. Ekonomicheskoe razvitiye Yegipta v novoe vremya. Sokr. per. s arabskogo (Yangi davrda Misr iqtisodining taraqqiyoti. Arabchadan qisqacha tarjima). –M., IL, 1954.
7. Abduhalimov B.A. “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). –T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.
8. Bartold V.V. Istoriya Turkestana// Bartold V. V. Sochineniya. T. II (s. 1.). – M.: Nauka, 1963.
9. Kedrov B.M. Klassifikatsiya nauk. (Fanlar tasnifi). V 3-tomax. –M.: Misl, 1961-1965.
10. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. Tarjimon N. Qodirzoda. –T.: Minhoj. 2003.
11. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
12. Falsafa. Qisqacha izohli lug‘at. Mualliflar jamoasi. –T.: Sharq, 2004.
- 13.. // الفلاسفة الإسلامية و بناء الإنسان المعاصر، القاهرة، ١٩٩٧ Mualliflar jamoasi. Islom falsafasi va hozirgi zamon kishisining asli. –Qohira, 1997.
14. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Muqaddima, tarjima va izohlar muallifi M. Qodirov. –T.: Yozuvchi, 2002.

15. // ماجد فخرى. تاريخ الفلسفة الإسلامية. – بيروت: دار المتحدة للنشر ١٩٧٤.
- Islom falsafasi tarixi. –Bayrut. 1974. (arab tilida)
16. Stepanyans M.T. Filosofskie aspekti sufizma. (Tasavvufning falsafiy jihatlari) –M.: Nauka, 1987.
17. Kamilov A.Sh. Fizicheskie trudi ar-Razi i Ibn Sini (Ar-Roziy va Ibn Sinoning fizikaga oid asarlari). –Dushanbe, 1991.
18. Uinter T.J. XXI asrda islom. –T., Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2005.
19. Istorya filosofii. Uchebnik dlya vuzov.// Volkova A.N., Gornev V.S., Danilchenko R.N. i dr. Pod red. Mopelman V. M. i Penkova Ye. M. –M.: PRIOR, 1997.

## **2-mavzu. O‘RTA ShARQ VA MARKAZIY OSIYoDA**

### **FALSAFIY ILMLARNING TARQALISHI**

#### **1. Ilk falsafiy tafakkurga Yunon, Iskandariya va O‘rta Sharq merosining ta’siri**

G‘arb tadqiqotchilarining islom falsafasi taraqqiyoti haqidagi izlanishlari islom falsafasini alohida yo‘nalish sifatida o‘rganishga imkon berdi. Islom falsafasining ruhi va qarashlari hatto XX asrda ham o‘rta asrlardagi tafakkur tarzida qolganligi taajjublanarli holdir.

Islom falsafasining Ovro‘po falsafasi va xristian ilohiyoti rivoji bilan bevosita yoki bilvosita aloqasi borligi G‘arb tadqiqotchilari tomonidan ta’kidlangan.

Ma’lumki, II asrning oxirida xristian Cherkovi shakllanib, xristian ilohiyoti oldida yangi vazifalar paydo bo‘ldi. Xristianlik bu vaqtida ma’jusiylik, yahudiylik va hokimiyat namoyondalaridan o‘zini himoya qilishga muhtoj bo‘lib qolmasdan, balki Isoning ta’limotini yoyish va uni targ‘ib qilish ishiga kirishdi.

II asrning oxirida Aleksandriyalik Kliment, Tertullian, Origen, Minusiy Feliks, Laktansiy va boshqa ilohiyotchilar maydonga chiqdilarki, ularning qarashlari asosida xristianlik cherkovi tafakkuri shakllana boshladи. Biz shulardan faqat birinchisining ijodiga qisman to‘xtab o‘tamiz.

Iskandariyalik Kliment (Aleksandriyskiy) (150-215) Shimoliy Afrikadagi Rim viloyati bo‘lgan Aleksandriyada tug‘ildi. Shunisi qiziqki, u birinchi bo‘lib o‘zining xristianlik falsafasini ishlab chiqishga azmu-qaror qilib, falsafani xristianlik bilan bog‘lamoqchi bo‘ldi. Kliment Iskandariyalik Filon (er. ol. 21-28 yillar – eramizning 41 yoki 49-yillari) izidan borib, falsafa ilohiyotning xizmatkori bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. U birinchi bo‘lib, falsafa bilan din, e’tiqod va aql muammosining bir-biriga o‘zaro muvofiqligini o‘rtaga qo‘ydi. Falsafa va dinni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi, deb hisobladi. Uning fikricha, xristianlik o‘zida qadimgi yunon falsafasi va Injilning Qadimgi Ahd qismini birlashtiradi. Uning aqidasicha, xudo o‘z inoyati bilan bashariyatni Iso Masih orqali najot tomon boshlab boradi. Ammo barcha xalqlarni U turlicha yo‘llar bilan boshlab boradi. Isroil xalqini Muso orqali ato qilgan Qonun vositasida, Yevropa xalqlarini esa falsafani taqdim etish inoyati vositasida boshlab boradi. Shuning uchun Kliment nazarida Suqrot yunonliklar uchun qanday maqomga ega bo‘lsa, Muso ham yahudiylar uchun shunday ahamiyatga egadir.

Qadimgi yunon falsafasining kamchiligi shundan iborat ediki, u dinga nisbatan bir muncha ishonchsizlik va mensimaslik bilan qarar edi. Kliment o‘z fikrini davom ettirib, shuni qayd etadiki, yunonistonliklar o‘zlarining barcha

qoidalarini yahudiylardan olganlar. Yahudiylik dinining kamchiligi esa shunda ediki, u falsafani nazar-pisand qilmas edi.

Xristianlik yuqorida aytilgan barcha bilim shakllaridan shuning uchun afzal ediki, u birinchi marta Qadimgi Ahd payg‘ambarlari tomonidan berilgan dinni va qadimgi yunonlilar tomonidan ishlab chiqilgan falsafani birlashtirar edi. Xavoriy Pavelning aytishicha, o‘zлari bilmagan holda yunonlilar o‘z falsafalari orqali Xudoni hurmat qila boshladilar.

Klement kimki, din bilimni ortiqcha qilib qo‘yadi, deb hisoblasa, ular bilan muvofiq emas, ammo u shunday alohida o‘ziga xos bilim borki, u o‘z ulug‘vorligi bilan e’tiqodni behuda narsa qilib qo‘yadi, deb ta’kidlovchi gnostiklar nuqtai nazarini ham rad etadi.

Klement o‘zining “Stromatalar” asarida yozishicha, “falsafa – shunday beba ho hazinaki, uni qo‘lga kiritishga biz barcha kuch-quvvatimizni sarflamog‘imiz lozim”<sup>1</sup>.

Klement fikricha, bizga aqlning berilishi tasodifiy emas, negaki, uning ob’ekti fikrdir, maqsadi esa – haqiqatni bilishdir; aql bizga behudaga berilgan emas, va shuning uchun biz falsafiy mushohada yuritib va fikrga sho‘ng‘ib, haqiqatni qidirishimiz lozim.

Klement aqidasiga ko‘ra, falsafa haqiqiy va yolg‘on bo‘lishi mumkin. Yolg‘on – bu sofistika, moddiyuncha falsafa va xokazo. Haqiqiy falsafa Xudo va inson haqida talim beradi, u insonning qanday qilib xudoga qaytishi haqida ham fikr yuritadi. Haqiqat yagona bo‘lib, unga borish yo‘llari ko‘pdir. Bu shunday ma’noga egaki, tizimlarning ko‘pligi tufayli juda ko‘plab xususiy haqiqatlarga yetishish imkoniyati mavjuddir.

Qadimgi yunonistonliklarga aql chirog‘i ato etilganligi tufayli, ular uning vositasida haqiqatni tushunishga erishdilar. Qadimgi yahudiylarga berilgan aql chirog‘i va Qonun, bir yagona o‘sha manbaga, ya’ni o‘sha yagona Logosga ega. Ko‘plab dalillarga ko‘ra, ushbu nazariyani Klement Iskandariyalik Filondan olgan. Shuning uchun falsafa ko‘pchilik jihatdan xristianlikdan oldin vujudga kelgandir va shu bois xristianlar uni Qadimgi Ahd kabi hurmatlab, e’zozlashlari lozim.

Klement fikricha, e’tiqod va aql, bir-biriga qarama-qarshi emas. Aqlga asoslangan fanlarda subordinatsiya (xizmatda kichik unvonlilarning katta unvonlilarga bo‘ysunishi qoidasi) mavjud. Quyi fanlar falsafaga olib boradi, falsafa esa – ilohiyotga olib boradi. Shuning uchun u majburiydir, negaki, u ilohiyotni qo‘liga dalil uchun qurol beradi, u xristianlikni yoyish va himoya qilish uchun bahs quroli hamdir.

### **Ikkinci mavzu yuzasidan savollar:**

<sup>1</sup> Лега В. П. История западной философии. (Фарб фалсафаси тарихи). –Т., 1998. –С.1.

1. O'rta Sharq va Markaziy Osiyo ilk falsafiy tafakkuriga Yunon, Iskandariya merosining ta'siri qanday bo'lgan?
2. G'arb tadqiqotchilarining islom falsafasi haqidagi izlanishlari qachon boshlangan?
3. Nima sababdan Bag'dodda falsafiy matnlarning arab tiliga tarjimasi boshlangan?
4. Islom falsafasiga Eron va Hind falsafasining ta'siri bormi?
5. Arab dunyosida qanday siyosiy va mazhabiy munozaralar ro'y bergan?
6. Yunon mantiqiy tafakkurining arab dunyosiga o'tishiga kimlar vositachilik qilgan?
7. Abbosiylar sulolasini davrida nega mantiqiy tadqiqotlar qo'llab-quvvatlandi?
8. Mantiq bo'yicha 900 milodiy yilgacha arab tilida qanday asarlar yaratilgan?

### **Ikkinchi mavzuga oid topshiriqlar:**

Quyidagi asarlarni o'qib chiqing:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. –T.: O'zbekiston, 1993.
3. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 1969.
4. Lega V. P. Istoriya zapadnoy filosofii. (G'arb falsafasi tarixi). –T., 1998.
5. Mojed Faxriy. Islom olamida falsafa davoni. Tehron universiteti nashriyoti. Hijriy 1372/1983. (fors tilida)
6. //ابن نديم، م: كتاب الفهرست. —القاهرة، بي تا، ١٩٥٨. —Ibn Nadim. "Kitobe Al-Fehrist" ("Ro'yxat kitobi"). –Qohira: Bito. 1958.
7. Nikolas Resher. K istorii arabskoy logiki. (Arab mantig'i tarixiga doir). –Pitsburg. Izd-vo Pitsburgskogo universiteta. 1963.
8. Xayrullaev M.M. Mirovozzrenie Farabi i yego znachenie v istorii filosofii. –T.: Fan, 1967.
9. Sharq tafakkuri xazinasidan. She'rlar, ibratli fikrlar. –T., 1986.

### **3-mavzu. ILOHIYOT FALSAFASI (KALOM), HADISSHUNOSLIK VA FIQHNING ShAKLLANIShI**

#### **1. Aql bilan dinni bir-biriga tadbiq etishga urinish va uning namoyondalari**

Islom eng so‘nngi jahoniy din sifatida oldingi dinlarning ko‘p ijobiy xislatlarini o‘zida ifodalagan. XX asr boshlariga qadar u Yaqin va O‘rta Sharq, jumladan, O‘zbekistonda dingina emas, balki hukmron dunyoqarash vazifasini o‘tab kelgan edi.

Islom VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoga kirib keldi. U VIII-IX asrlar davomida Xuroson va Movarounnahrda zardushtiylik, moniylik, buddaviylik kabi dinlar bilan kurashda yerli xalq o‘rtasida turli tazyiqlar vositasida singdirilib borildi. Islom dini dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan birga asta-sekin uning nazariy, falsafiy, huquqiy, adabiy kabi tomonlarini ishlab chiqishga e’tibor kuchaygan. IX-X asrlarga kelib, Qur’onga asoslangan maxsus islom ilmlari, ya’ni islomning turli tomonlama asosini mustahkamlash va uni talqin etishga qaratilgan maxsus diniy ilmlar shakllana boshlagan edi.

Islomiy ilmlarning shakllanishi va rivojida Musulmon Sharqidagi qadimgi madaniy an’analarga boy bo‘lgan Xuroson va Movarounnahrdan yetishib chiqqan olimlar, ko‘p hollarda zo‘r iste’dod va ijod namunalarini ko‘rsatib, musulmon olamida nom qozondilar. Masalan, IX-X asrlarda tez rivojlangan hadisshunoslikning mashhur bo‘lishida vatandoshlarimiz bo‘lgan Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziyy, Abu Iso at-Termiziyy, kalom ilmining rivojida Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Mu’in an-Nasafiy, fiqh – islom huquqshunosligida Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Jamoliddin Ahmad al-Kosoniy kabilarning ulushi katta bo‘lgan edi.

IX-X asrlarda yashab ijod etgan, qadimgi ilmiy an’analar, jumladan, yunon, hind ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan hamda islomning ma’naviy ta’sirini bevosita guvohi bo‘lgan katta qomusiy olimlar asarlarida o‘z davrida ilmlar tizimi, ta’rifi o‘z ifodasini topishi bilan birga, ularni “qadimgi yoki an’anaviy ilmlar” hamda yangi – “arab ilmlari” deb ikki yo‘nalishda bayon va tahlil etishga uringanlar. Bu dunyoviy ilmlar hamda islomiy ilmlar tizimidan iborat edi.

An’anaviy ilmlar qadimgi yunon ilmlari asosida vujudga kelgan falsafiy ilmlarning turli yo‘nalishlarini – matematika, fizika, geografiya, kimyo kabilalar, shuningdek, falsafa, mantiq, ahloq kabilarni tashkil etgan. O‘sha davr olimlari “Ixvon as-safo” to‘garagining a’zolari, Abu Nasr Forobi, Abdulloh Xorazmiy va boshqalar diniy, islomiy ilmlar, aniqrog‘i arab ilmlari sifatida islom falsafasi nazariyasi bo‘lmish kalom ilmi, hadisshunoslik, shariatga asoslangan fiqh – huquqshunoslik, Qur’onni tafsirlash kabi masalalarni, shuningdek, arab tili va

grammatikasi, arablar tarixi (islomdan so‘nggi) kabilarni sanab o‘tganlar.

Islom ilmlari ichida, avvalambor, ilohiyot falsafasi – kalom, so‘ng hadis-shunoslik, fiqh – huquqshunoslik, Qur’on tafsiri muhim o‘rin egallagan va sof diniy masalalardan tashqari turmushning barcha jihatlarini qamrab olgan.

Islom dini ta’limotida Muhammad (SAV) payg‘ambar hayoti, faoliyati hamda diniy, axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan hadislar musulmonlarning muqaddas kitobi Qur’oni karimdan keyin turuvchi manba hisoblanadi.

Qur’on oyatlarini yozib olish payg‘ambar hayotlik davrlarida boshlangan bo‘lsa, hadislarni to‘plash sahaba va tobeinlar davridan boshlangan. Hadis ilmining oltin davri VII asrlarga to‘g‘ri keladi. Hadis ilmi bilan shug‘ullanish eng faxrli, zarur ish hisoblangan. Musulmon Sharqining turli o‘lkalarida to‘rt yuzdan ortiq mualliflar bu ilm bilan shug‘ullanishgan.

VIII-XI asrlar hadis ilmining eng sermahsul davri bo‘lgan. Chunki, shu davrda sunnatning asosiy manbasi bo‘lmish “olti sahih to‘plami” vujudga kelgan. Shunisi e’tiborga sazovorki, ushbu hadislar to‘plamini yozgan muhaddislarning aksari Markaziy Osiyolik bo‘lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Muslim ibn al-Hajjoj (819-874), Abu Dovud as-Sijistoniy (817-880), Abu Iso at-Termiziy (824-892), Ahmad an-Nasoiy (830-915), Abu Abdulloh Muhammad ibn Mojja (824-886) kabi hadis ilmi peshvolaridir.

Ular ichida “hadis ilmida amir al-mo‘minin” degan laqabga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy alohida o‘rin tutadi. Uning “Al-jome’ as-sahih” to‘plami ishonchligi jihatidan Qur’ondan keyingi o‘rinda turadi, xolos.

IX-X asrlarga kelib qadimgi yunon ilmiy merosini islom Yaqin Sharqida o‘rganish va uning keng yoyilishi natijasida ularni turlicha talqin etishga intilish, masalan, mu’taziliylar ta’limoti va uning turli yo‘nalishlarining vujudga kelishi hamda ularni tanqid etish jarayonida paydo bo‘lgan fikrlarni tizimga solish zaruriyatga aylandi.

X-XI asrlarda kalom va yunon falsafasining natijalarini qorishtirishga intilish mavjud edi. IX-XII asrlarda islomning qonun-qoidalariga asoslangan tasavvuf yo‘nalishi shakllanib, Markaziy Osiyoda keng yoyildi. Bu yo‘nalish, diniy dunyoqarash asosida fan, madaniyat rivoji imkoniyatini kengaytirishi bilan ularning yutuqlaridan foydalanish yo‘llarini boyitgan. Tasavvuf ziyorilar orasida tarqalgan.

Mutakallimlar (kalom ilmi vakillari) va faylasuflar orasidagi farq, ularning mavjud masalalarni tahlil qilishda tutgan mavqelarida edi. Mutakallimlar uni yechishda islom qonun-qoidalari hisoblangan Qur’on va hadisga tayanadigan bo‘lsalar, faylasuflar qadimgi an’anaviy uslubga rioya qilib, barcha masalalar yechimida aqlgagina tayanib, mantiqiy fikr yuritadilar. Kalom ilmi dastlab

islomda mavjud bo‘lgan turli siyosiy-diniy firqalar (xavorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar, mu’taziliylar) ning o‘zaro munozaralari va boshqa din (mazdakiylik, nasroniylik) vakillari bilan bo‘lgan bahslashishlar jarayonida shakllandi. Bu tortishuvlarning natijasi Qur’on tafsiri va islom arboblarining u yoki bu sohada qilgan amallari talqiniga borib taqalar edi. Shular asosida kalom ilmining dastlabki mavzusi vujudga keldi: Allohning yagona vujudligi va uning sifatlari; qazo va qadar (inson taqdiri); o‘tgan payg‘ambarlarning, shu jumladan, Muhammad alayhissalomning Alloh elchisi ekanligini tan olish; qiyomat kuni va qayta tirilishga ishonish; musulmonlarning diniy hamda dunyoviy rahbarlarining (xalifa, imomlik) sifatlari kabi masalalar uning mazmunini tashkil etdi. Islom davrining dastlabki bosqichlarida jamiyatning diniy-huquqiy asoslarini turli din va xalqlarning milliy madaniyati tashkil qilar edi. O‘zga dinlarda bo‘lgani kabi islomning nazariy-huquqiy tomonlari keyingi asrlarda shakllana boshladi. Chunki bu din o‘rta asrlarda o‘z atrofiga arab bo‘lmagan – ajam xalqlarini ham birlashtirishga ulgurgan edi. Shu tufayli islomning diniy-huquqiy ta’limotini yaratishda bu dinni qabul qilgan turli millat va irq vakillarining manfaatlarini ham hisobga olish lozim edi. IX asr o‘rtalariga kelib islomda yirik oqimlarni sunniylar, mu’taziliylar, murjiylar, shialar va xavorijiylar tashkil qilar edi.

Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri hisoblangan mu’taziliya (arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar)ning kelib chiqishi nazariy jihatdan muhim voqeа bo‘ldi. Bu oqimning vakili Hasan al-Basriy (642-728) mu’taziliy oqimining paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Hasan al-Basriy ta’limoti rivojida uning izdoshlari Vosil ibn Ato (vaf. 748) va Amir ibn Ubayd (vaf. 761) kabilarning o‘rni katta. Ular islomga qadimgi dunyo falsafasi va mantig‘ining usul va tushunchalarini tatbiq qilib, islom asoslarini aqliy tarzda talqin etishga harakat qilishgan.

Mu’taziliya ta’limoti Abbosiylardan Xorun al-Rashid (786-809), Ma’mun (813-833), Al-Vosiq (842-847) xalifalik qilgan davrda rasmiy e’tiqod sifatida tanildi. Al-Mutavakkil hukmronlik qilgan davrda (847-861) esa islomga zid bo‘lgan oqim sifatida qattiq ta’qib ostiga olindi.

## **2. Abul Hasan al-Ash’ariy (874-933) va Abu Mansur al-Moturidiy (870-944)larning kalom maktablari**

Siyosiy va diniy bahslar avj olgan murakkab sharoitda Bag‘dodda Abul Hasan al-Ash’ariy kalomning yangi maktabi bo‘lgan ash’ariylik oqimining asoschisi sifatida chiqib, ilk islomiy aqidalar bilan kalomni murosasozlik yo‘li bilan saqlab qolmoqchi bo‘ldi. Ilgarigi ilohiyotchilardan farq qilib, Ash’ariy va uning izdoshlari ilk islomni mantiqiy va falsafiy dalillar yordamida saqlab

qolishga urindilar.

Ash'ariy aqliy usulni qo'llab, taqdirga ishonish va iroda erkinligi haqidagi ta'limotni ichki qarama-qarshiligin hal qilmoqchi bo'ldi. Uning tomonidan "kasb" (bajarish yoki o'zlashtirib olish) nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq qazo (qaror, hukm) xudoning azaliy va umumiyligi irodasi bo'lib, qadar (hokimiyat, iroda) esa, xudoning hukmini dunyo hodisalariga nisbatan qisman qo'llanilishi edi. Inson esa, ushbu xususiy qarorni faqat xuddi o'zinikidek, "kasb etishi" yoki "o'zlashtirishi" mumkin edi. Bu nazariyaga ko'ra, faoliyat xudo tomonidan yaratiladi, ammo iroda erkinligiga ega bo'lgan inson tomonidan bajariladi va qo'lga kiritiladi. Garchi ash'ariylik oqimi o'zini oshkora mu'taziliylardan ajratgan bo'lsa ham, ammo ular uchun umumiyligi bo'lgan iroda erkinligi va aqliy yo'nalishda borishda davom etgan.

Abul Hasan Ash'ariy mu'taziliylarning Basra maktabi boshlig'i Jubboiy bilan hamaqida va ulfat edi. Ammo 40 yoshida bu maktab bilan aloqasini uzgan edi.

Rivoyatlarga ko'ra, Ash'ariy tushida hazrati Rasulullohni ko'ribdi. Ul zot unga islomiy jamiyatning "mas'uliyati"ni olishni taklif qilibdilar. Shuning uchun Ash'ariy Basra masjidi minbaridan pastga tushib, mu'tazila bilan aloqasini uzganligini, hamda ularning "sharmandalari va axmoqona ishlari"ni fosh etishga azmu qaror qilinganliginii e'lon qilgan edi<sup>1</sup>.

Ash'ariyning o'z ustozи Jubboiy bilan xudoningadolati va bandaning haqi to'g'risida qilgan munozarasi uning mu'taziliylarga qarshi paydo bo'lgan tamoyilini ko'rsatadi<sup>2</sup>. Bu munozara tarixiy jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, Ash'ariyning mu'taziladan ajralishining bosh sababini aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ash'ariy o'z ustozи Jubboiydan so'ragan edi: bu dunyodan o'tib ketgan uch aka-ukaning u dunyodagi taqdiri nima bo'ladi? Agar ular dan biri imonli ketgan, ikkinchisi gunohga botgan va uchinchisi balog'at yoshiga yetmay yoshlida o'lib ketgan bo'lsa? Jubboiy bunga javoban: imonli ketgan solih birodarning joyi behishtda, gunohkorning joyi do'zaxda, uchinchisining joyi o'rta manzilda (manzilati baynal-manzilatayn) bo'ladi, degan. Ash'ariy yana so'ragan edi: agar uchinchisi birinchi xushbaxt akasiga qo'shishni so'rab qolsa nima bo'ladi? Jubboiy javob bergan edi: bunday imtiyoz undan darig' tutiladi, negaki, birinchi akasi o'zining solih amallari tufayli behishtga sazovor bo'lgan. Agar uchinchi uka bunga e'tiroz bildirib, agar umri vafo qilganda, u ham hayotini solih amallar va taqvo bilan o'tqazgan bo'lar edi desa, Xudovand bunga javoban aytishi lozim bo'lar ediki: shunday hayot kechira olmasligingni oldindan bilganim uchun seni abadiy do'zax azobidan

<sup>1</sup> Каранг: Можед Фахрий. Сайри фалсафа дар жаҳон ислом (Ислом дунёсида фалсафа давони), –Техрон, 1983. –Б.222. (форс тилида)

<sup>2</sup> Ибн Халликон. Вафиёт ул-аъён. (Аслзодалар вафодорлиги). –Қохира 1949, 3-жилд, 398-саҳифа (араб тилида)

qutiltirdim. Shu chog‘da butun umri gunohda o‘tgan birodari faryod bilan shikoyat qilsa: Ey, Parvardigor! Mening badbaxtligimni ham o‘zing oldindan bilar eding, agar shunday ekan, nega kichik ukamga qilgan rahm va shafqatingni menga ravo ko‘rmading?

Aytishlaricha, Jubboiy bunga xudovand tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan javobning bayonidan ojiz qolgan. Ash’ariy bu savol-javoblardan majburiy ravishda shunday natijaga kelganki, xudovandning qudrati va jahon ustidan mutlaq homiyligini, uning axloqiy va diniy ahkomlarini hech bir so‘rovsiz va shak-shubhasiz bajarish lozim. Uning aqidasicha, xudovand bashariyatning hayoti haqida har qanday yaxshi va yomon qarorlar qabul qilishda o‘z xohishicha, mustaqil ish ko‘radi. Banda unga hech bir so‘zsiz itoat etishi lozim.

Yangi Ash’ariya kalomini shakllantirish mas’uliyatini X va XI asrlarda uning tarafdorlari o‘z zimmalariga oldilar. Mu’taziliy e’tiqodiga zid bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning e’tibori ikki asosiy masalaga qaratildi: 1) diniy haqiqatga nisbatan aqliy ma’rifatning mohiyati va hududi (aql va naql nisbati); va 2) xudovandning mutlaq qudrati va homiyligi tushunchasining falsafiy doirada bayon etish zaruriyati. Ash’ariya maktabining asoschisi bu masalalardan hech birini batafsil bahs qilib tushuntirmagan edi.

Ash’ariya maktabi tarixida uning birinchi yirik shaxsi Abu Bakr Boqilloniy (vaf. 1013) edi. Undan keyin kelgan tadqiqotchilar bu mutakallimni kalom ilmining yo‘l-yo‘riqlarini tuzatuvchi hisoblaganlar<sup>1</sup>.

Abu Bakr Boqilloniy o‘zining “At-tamhid” (“Tenglashtirish”) kitobida Ash’ariy ta’limotini birinchi marta muntazam ravishda falsafiy doiradagi bayonini berdi. Ushbu kitob ilm mohiyati haqidagi bahsdan boshlanadi. Asarning uslubi uning Bag‘dodiyning “Usul ad-din” va Juvayniyning “Al-irshod”idan ilhomlanganligini ko‘rsatadi. Uning ilmga bergen ta’rifi quyidagicha: “Ilm voqelikdagi shaydir”<sup>2</sup>.

Zikr etilgan shay (narsa) mavjudlikni ham, yo‘qlikni ham o‘z ichiga oladi. Uni ash’ariylar emas, balki mu’taziliylar shay deb bilishadi. Bunday ilm ikki tushunchaga taqsimlanadi: xudovandning azaliy ilmi va zamonaviy ilm yoki maxluqotlar yaratilishi haqidagi ilmdirki, ular bilish qudratiga egadirlar, ya’ni insonlar, farishtalar, jin va boshqalar. Oxirgi ikkinchi ilm ham o‘z navbatida ikki zaruriy (yoki guvohlik) qismga, ya’ni daliliy yo nazariyga bo‘linadi. Zaruriy ilm shundayki, unda shakka o‘rin yo‘q. Zaruriy ilmning o‘z ismidan ma’lum bo‘lganidek, undan qochib bo‘lmaydi<sup>3</sup>.

Daliliy yoki nazariy ilm shundayki, u uzoq o‘ylash va mushohada qilish

<sup>1</sup> ابن خلدون ع. المقدمة، القاهرة، ١٩٥١.  
<sup>2</sup> بقلانى ا. التمهيد، بيروت، ١٩٥٧.

<sup>3</sup> Бокиллоний А. Ат-тамхид. 8-саҳифа.

natijasidir, yoki boshqacha ta’bir bilan aytganda, u zaruriy ilm yoki tajriba natijasida hosil qilingan ma’rifatga asoslanadi.

Birinchi bo‘lib aqliy va naqliy ilm o‘rtasidagi farqni ko‘rsatganlar mu’taziliylar edilar. Ular aql havzasini shunday joylargacha yoyishga harakat qildilarki, ular qadimdan vahiy yoki imon doirasidagina edilar. Ash’ariy e’tiqodchilari, jumladan, Boqilloniy aqliy ilmni mo‘’tabar, deb bildilar. Ammo tabiiy ravishda imon sohasiga qo‘l cho‘zgan mu’taziliylarga qarshilik ko‘rsatdilar. Ash’ariya mutakallimlari ikki asosiy masalada “tabiiy ilohiyot” va ahloqda, ya’ni xudovandni vahiydan mustaqil ravishda aql yo‘li bilan bilib bo‘ladimi yoki yo‘qmi?, hamda vahiyning ishorasisiz yaxshi va yomon to‘g‘risida ma’rifat hosil qilish mumkinmi yoki yo‘qmi?-degan savol masalasida mu’taziliylar qarshisida mustahkam qarashlarga ega edilar. Ularning qayd etishlaricha, jahonning “yaratilgan”ligi haqida uzoq fikr qilinsa, mantiqiy ravishda “yaratuvchi” haqidagi fikr kelib chiqadiki, undan xudovandning mavjudligi va yagonaligini anglash mumkin bo‘ladi.

Ash’ariya tarafдорлари bunday zaruriy aloqani isbotlash uchun dedilarki, jahon – ya’ni Allohning u tomondagi narsalari eng kichik bo‘linmas zarralar (atomlar) va aroz (qobig‘lar)dan tashkil topgandirlar<sup>1</sup>. Aroz o‘sha ikki uzluksizlikda poydon qolmaydi, balki doimo xudovand tomonidan yaratiladi. Xudovand o‘z irodasiga ko‘ra, ularni yaratadi va yo‘q qiladi<sup>2</sup>.

Shu tartibda, aroz yaratilgan kichik zarralarning qobig‘i sifatida doimiy ravishda xudovand tomonidan yaratilib turadi va faqat aroz yordamidagina xudo yaratgan davomiylik va boqiylik qoladi<sup>3</sup>.

Ushbu muqaddimadan shunday xulosa chiqadiki, yaratilgan dunyo zaruriy ravishda o‘z yaratuvchisiga ega bo‘lmog‘i lozim<sup>4</sup>.

Boqilloniyning rivoyati bunday isbotdan bahsli bo‘lib, ash’ariylikning butun isbotidan biroz farq qiladi. U bunday isbotning bahsli asosini o‘zgartirmagan holda bu dalilni “had avsat”li (o‘rtacha chegaralangan), ulardan farq qiluvchi boshqa ikki dalil bilan kuchaytiradi. U bahs boshida shunday deydi: ba’zi ashyolarning zamonda oldinligi, ularga oldinlik bag‘ishlagan omillar sababidandirki, uning tashabbuskori, xudovandning o‘zidir. So‘ngra u imkon masalasini olg‘a suradi va ta’kidlaydiki, ashyolar o‘z tabiatiga ko‘ra, xilma-xil shakllar va sifatlar qabul qiladilar. Ular amalda unday yoki bunday shakllarni qabul qilishi yagona tayin qiluvchining amri va mavjudligi bilan belgilanadiki,

<sup>1</sup> بَعْدَدِي ع. ق. اصول الدين. استانبول، ١٩٢٨. 33- сахифа (араб тилида)

<sup>2</sup> Карапт: Бағдодий. Ат-тамхид. 18-сахифа.

<sup>3</sup> Карапт: Бағдодий. Усул ад-дин. 56-сахифа.

<sup>4</sup> Карапт: Fakhry, “The Classical Islamic Arguments for the Existence of God”, Muslim World, XLVII <1957>, 139 т. (Фахрий. “Худонинг мавжудлиги хақида мумтоз исломий далиллар”. “Ислом дунёси” журнали. – Б.139. )

bu tayin qiluvchining o‘zi ham xudovanddir<sup>1</sup>.

Oxirgi dalil yoki imkon dalilini keyingi tadqiqotchilar, jumladan, Juvayniy (vaf. 1086) o‘zining “Ar-risolatun nazomiyata” asarida qayta ishlab to‘ldirdi. Bu dalildan keyinchalik Ibn Sino o‘zining “Shifo” asarining ilohiyot qismida yetarli darajada foydalangan. Shuni qayd etish lozimki, Ash’ariya maktabi mutakallimlarining ko‘pchiligi olamning yaratilganligi daliliga tabiiy va oshkora tamoyil ko‘rsatdilar, negaki, ularning aqidasicha, jahonning xudovandu qodir va mutlaq tomonidan zamonda yaratilganligi bu fikr bilan hamohang edi.

Ash’ariy maktabining muassisi muallifligida yozilgan birinchi kitob “Maqolat al-islomiyun”da qayd etilishicha, zarraning doimiyligi masalasi IX asr o‘rtalarida kalomiy doiralarda qo‘yildi. Vosil ibn Ato (vaf. 748) zamondoshi va Basra shahri mu’taziliylaridan biri bo‘lgan Zaror ibn Umar javhar va orazni ikki xilligini qabul qilmagan va unga qarshi turgan birinchi mutakallim edi. Ash’ariyning yozishicha, Zaror fikricha “jism orazlar (aksidensiyalar) majmuasi bo‘lib, tarkib topganidan keyin orazning homil (olib yuruvchisi) va mahmaliga (yuk ortilganiga) aylanadi”<sup>2</sup>. IX asrda zarraning doimiyligi nazariyasi (yagona zarra) to‘la shakllanib, Ash’ariyning o‘zini qayd etishicha, Abu Huzayl (vaf. 849), Ishoqiy (vaf. 854), Jubboiy (vaf. 915) va ularning zamondoshlari Muammar, Xishom Fuvatiy va Ubbod ibn Sulaymonlar tomonidan zarra doimiyligi nazariyasi qabul qilingan edi<sup>3</sup>. Jubboiy javhar yo atomni orazni olib yuruvchi yo uning yuki, deb ta’riflaydi va tushuntirib shunday yozadi: “Haqiqatda shunday, uni paydo bo‘lmasidek oldin javhar sifatida tasavvur qilish mumkin”<sup>4</sup>.

Hayot va ehtimol uning shogirdi Ka’biy ham shunday fikrda edi<sup>5</sup>. Uning maqsadi Aflatun nazarda tutgan g‘ayri jismoniy narsa edi.

Javhar va oraz haqida falsafiy fikr yuritish VIII asrda mu’taziliylardan boshlangan bo‘lsa ham, ulardan keyin Ash’ariy mutakallimlari tomonidan davom ettirildi.

Ash’ariya aqidasidagilar orazning mavjudligini inkor qiluvchilarga qarshi shunday dalil keltirdilarki, bir jismning harakati uni sokinligidan keyin yo o‘sha jismning o‘zidan yoki uning qismi bo‘lgan qandaydir narsalardan kelib chiqadi. Bu ikki imkoniyatdan birinchisi haqiqiy emas, negaki, o‘sha jism bir qancha muddat davomida uzlusiz vaziyatda harakat va sokinlikda farq qilmasdan, sobit holda qoladi. Natijada uning harakati jismning o‘zidan boshqa narsaga taalluqli

<sup>1</sup> Қаранг: Боқиллоний. Ат-тамхид. 23 ва кейинги сахифалар.

<sup>2</sup> اشیعی، ابو الحسن. مقالات الاسلامین. استانبول، ۱۹۳۹-۴۰ء۔ ماقولوت ал-islamiiyin. (Ислом тарафдорларининг маколалари). –Истамбул. 1939-40. 281, 305-сахифа; Бағдодий. Усул ад-дин. 48-сахифа.

<sup>3</sup> Қаранг: Ашъарий. Мақолот ал-islamiiyin. 301-сахифа.

<sup>4</sup> Ўша асар. 161, 307-сахифалар.

<sup>5</sup> Қаранг: Шахристоний. Ал-милал ван-ниҳал. 53-сахифа.

bo‘lishi kerakki, uni biz oraz (aksidensiya), deb nomlaymiz<sup>1</sup>.

Mu’taziliylardan bo‘lgan balxlik Ka’biy va uning tarafdlari fikricha, javharni rangdan boshqa, barcha “birlamchi orazlar”dan holi qilish mumkin. Abu Ali Jubboiyning o‘g‘li Abu Hoshim aqidasicha, har bir vujudga kирган zarra, borliq (=kun) orazidan tashqari barcha orazlarda mahrum bo‘lishi mumkin. Solihiy degan boshqa bir mu’taziliy bundan ham yuqoriroq odimlab dediki: “zarra hech bir orazlarsiz ham mavjud bo‘la oladi”<sup>2</sup>.

Kalomda tahlil qilingan zarrotning (atomlarning) eng muhim xususiyati ularning tabiatdan zavolga moyilligi ediki, Ash’ariy bunday sifatni hech istisnosiz barcha zarralarga xos deb hisobladi. Boqilloniygina emas, balki Ash’ariya maktabining asoschisining o‘zi ham tabiatan orazni yo‘q bo‘lishi mumkinligiga va “o‘tkinchi narsalar” toifasini qismi ekanligiga ishonar edi. Bu haqda Qur’oni majidda ishora (Infaol, 67; Axqof, 24) borligini ta’kidlagan edi<sup>3</sup>.

Orazning zavolga yetishi haqida Bag‘dodiy shunday deydi: “Orazning davomiyligi nazariyasi uning zavoli ustiga qurilgandir. Chunki agar oraz haqiqatda davomli deb aytilsa, ...uning davomiyligi o‘zining nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladigan unga qarama-qarshi bir orazning paydo bo‘lish vaqtigacha cho‘zilishi lozim. Ammo nima uchun shunday qarama-qarshi oraz paydo bo‘lishiga yetarli dalilga ega emasmiz va nima sababdan u o‘zining vujudga kelishi bilan birinchi orazga tushishini ham isbotlay olmaymiz”<sup>4</sup>.

Shunday qilib, javharlarning boqiyligi oraz mavjudligiga ko‘ra mumkindir. Biror oraz haqiqatda boqiy qolish qudratiga ega bo‘lmaganligidan javharning davomiyligi va boqiyligini shubhasiz yo nihoyasiz ravishda boshqa orazlar boqiyligigacha davom etadi, deb bilish kerak yoki boqiylik bag‘ishlaydigan boshqa bir asl aralashuvidan keltirib chiqarish lozim. Boqilloniy nobud bo‘lishlik (=fano)ni ikki orazni, ya’ni rang va borliqni zavoli, deb tavsiflaydi. Badan yo jism bu ikki orazdan boshqa narsa bo‘la olmaganidan, shunday zavol topadigan narsa, badanning fano topishini shart qilib qo‘yadi<sup>5</sup>. Shuning uchun bunday fano topish badanga fasod orazni kirib kelishi bilan bog‘liq emas. Bunday qarash o‘z nochorligiga qaramay, loaqlal bir tarafdorga ega edi. Qanonsiy fikricha, qachonki, xudovand biror badanni nobud qilishni xohlasa, unda fasod orazni yaratadiki, oqibatda u o‘sha badanni yo‘q bo‘lishiga olib keladi<sup>6</sup>.

Imom al-xaramayn laqabiga ega bo‘lgan Juvayniy ba’zi kalomiy tushunchalarni va Ash’ariya maktabi bilish nazariyasini “Kitob ash-shomil” yoki

<sup>1</sup> Каранг: Бағдодий, Усул ад-дин. 37-саҳифа. ۱۹۳۸ // جوبنی، ابو المعلی. کتاب الارشاد، باریس، ۱۹۳۸. Жувайний. Китоб ал-иршод. 10-11-саҳифа.

<sup>2</sup> Бағдодий. Усул ад-дин, 46-саҳифа. Ашъарий. Мақолот ал-исламийин, 310, 570-саҳифа.

<sup>3</sup> Каранг: Бокиллоний. Ат-тамхид, 18-саҳифа. Ашъарий. Мақолот ал-исламийин. –Б.370.

<sup>4</sup> Бағдодий. Усул ад-дин. 51-саҳифа.

<sup>5</sup> Каранг: Бағдодий. Усул ад-дин, 45-саҳифа.

<sup>6</sup> Ўша асар. –Б.45, 67.

o‘zi tomonidan qayta ishlanib “Al-irshod” nomi bilan mashhur bo‘lgan kitobda mukammallashtiradi<sup>1</sup>.

Qomusiy ma’lumotga ega bo‘lgan tadqiqotchi Shahristoniy eng to‘g‘ri va noto‘g‘ri aqidalar haqida arab tilida “Al-milal van-nihal” nomli eng mashhur kitob yozdi. Bu kitobning ikkinchi qismi yunon falsafasidan qayta ishlangan islomiy ruhdagi dunyoqarashni yaratish nuqtai nazaridan qimmatli manbadir. Bundan tashqari Shahristoniy ilohiyot sohasida “Nihoyat ul-iqdom” nomli to‘plam yozganki, agarchi kalom ilmi bobidagi bizning ana’naviy qarashlarimizga unchalik jiddiy yangilik kiritmasa ham, mantiqiy va uslubiy jihatdan undan oldin yozilgan risolalardan afzalroqdir<sup>2</sup>.

Kalomning assosiy maktablari bilan bir qatorda Samarqand va Buxoroda Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) asos solgan Moturidiya maktabi ham mayjud edi. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiyning hayoti haqidagi dastlabki muhim ma’lumotni Abu al-Mu’in an-Nasafiy (508/1114) bergen. U o‘zining “Tabsirat al-adilla” asarida Samarqand kalom maktabini tavsiflab, Moturidiyning bu sohadagi ilmiy maqomi va xizmatlarini ko‘rsatib o‘tgan. Nasafiyning zamondoshi Abu al-Yusur al-Pazdaviy (vaf. 493/1100) ham o‘zining “Usul ad-din” asarida Moturidiy haqida ma’lumotlar keltirgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Moturidiy fiqh va kalomdan mashhur olim bo‘lib yetishgan Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy va Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniylardan ta’lim olgan. Moturidiyning bizgacha faqat “Kitob at-tavhid” va “Ta’vilot ahli as-sunna” nomli asarigina yetib kelgan. “Kitab at-tavhid” 1970 yilda Bayrutda nashr etilgan. “Ta’vilot ahl as-sunna” asarining birinchi jildi 1971 yilda Qohirada Sayyid va Ibrohim Avadaynlar tomonidan nashr etilgan<sup>3</sup>. “Ta’vilot ahl as-sunna” asarining yana bir nomi “Ta’vilot al-Qur’on” bo‘lib, kitobning ikkinchi jildi sifatida hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 5126 raqami ostida saqlanmoqda<sup>4</sup>.

Moturidiy asarlarining mazmuni naqadar Qur’on, hadis va aql-idrok, mantiq va haqiqatga yaqin ekanligi bilan bilinib turadi. U “Kitob at-tavhid” asarida o‘zga toifadagi firqalarga qarshi shunday so‘zlarni aytgan: “Ular tafakkur va tadqiq bilan qarasalar edi, Alloh taolo ham bandalarini tafakkur va tadqiqot, ibrat va tajriba bilan ish qilishga buyurganini tushunar edilar. Ibrat va tafakkur

<sup>1</sup> Каранг: // جوینی، ابو المعالی. کتاب الارشاد، باریس، ۱۹۳۸.

<sup>2</sup> Каранг: // شهرستانی، محمد، نهایة الاقدام. لندن، ۱۹۳۹.

<sup>3</sup> Каранг: Маннавият юлдузлари. –Т., А. Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. –Б. 78.

<sup>4</sup> Каранг: Ульрих Рудольф. Ал-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. (Ал-Мотуридий ва Самарканд сунний илохиёти). –Алматы: Фонд XXI век, 1999.

esa ilm manbalaridan biridir”<sup>1</sup>.

Moturudiy ta’limoti mu’taziliylar kabi faqat aqlga suyanish emas, balki aql bilan naqlni qo’shib foydalanishni zarur, deb bilgan. Moturidiy islam ilohiyotida qazo va qadar, ya’ni inson taqdiri borasida ham o’zining mulohazalarini bayon etgan.

U insonda tanlash erkinligi, ya’ni har kimning ixtiyorini o’zida ekanligini ta’kidlagan. Xudoning yagonaligini isbotlashda Moturidiy bilimning uch xil yo‘liga tayangan. U naqlda ko‘rsatilganlardan boshlab (som), aql ko‘rgazmasiga (dalolat al-aql) yetib kelgan va yaratilgan narsalar tufayli hosil bo‘ladigan histuyg‘u (dalolat al-istidlol bi-l-xalq) bilan o‘z dalillarini tamomlagan. Moturidiy va uning asarlari bilangina Movarounnahr kalom tarixiga birinchi marta qadam qo‘ygan.

Moturidiyning bilish nazariyasi o‘ziga xos va jozibali edi. U dunyoni bilishni ikki turga: qadim va hadis bilishga ajratgan. Qadim bilishda Alloohni tanish, hadis bilishda esa mavjudotlarni tushunish ko‘zda tutilgan. Kasbiy bilish ham tarixiy va istidloliy bilish sifatida ikkiga ajratilgan. Xabar yo‘li bilan hosil qilingan bilishga tarixiy, aqlga tayangan bilishga esa istidloliy nomi berilgan.

Moturidiy insonning bir narsani bila olishi faqat mavjud narsalarni o‘rganish va tekshirish vositasidagina amalga oshishini e’tirof etgan.

### **3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy (810-870) faoliyati va hadisshunoslik**

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy, uchinchi (milodiy to‘qqizinchii) asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilgan. Chunonchi, butun islam dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to‘plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy Osiyolik bo‘lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819-261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi (209/824-279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817-275/990), Imom Ahmad an-Nasoiy (215/830-303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib Ibn Mojja (209/824-273/886) kabi siymolardir. Shular ichidan “Hadis ilmida amir al-mu’miniyn” degan sharaflı nomga sazovor imom al-Buxoriy alohida e’tiborga molikdir<sup>2</sup>. U hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13-kuni (810 yil 20 iyul)da Buxoro

<sup>1</sup> Кодиров М. Исломий маърифат, маданият ва маънавий қадриятлар фалсафаси. “Ислом, тарих ва маънавият”. –Т., А. Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.

<sup>2</sup> Қаранг: Маънавият юлдузлари. –Б.54.

shahrida tavallud topgan Al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o’sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o’tkir zehnli va ma’rifatga havasi kuchli bo‘lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo‘r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, u o‘n yoshidan boshlab, o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarini, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi muhaddislarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustoz Shaxs Doxiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg‘in bahslarda qatnashgan. 825 yili o‘n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga boradi. Makka va Madina shaharlarini ziyyarat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o‘z bilimini oshiradi. So‘ngra Damashq, Qohira, Basra, Kufa va Bag‘dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta’lim oladi. Yirik olimlar davrasida ilmiy bahslaru munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. O‘zining yozishicha, Bag‘dodda istiqomat qilgan paytda ko‘pincha oyning nurida ijod qilib, qorong‘i kechalarda sham yorug‘ida kitob yozar ekan.

Nishopurlik al-Hakimning (vaf. 1015) yozishicha, al-Buxoriy ustozlarining soni to‘qsontalar atrofida bo‘lib, ular: Muhammad ibn Yusuf al-G‘aryobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiyidiy ibn Rohaviyh nomi bilan mashhur bo‘lgan Imom Ishoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madaniy va boshqalardir.

O‘z navbatida al-Buxoriy ham ko‘pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Ishoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziyy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziyy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.

Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziyy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o‘zaro munosabatlari ibratli bo‘lgan. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilganidan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy besh yil (863-868) Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. Al-Buxoriyning at-Termiziyy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyormizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o‘rtasida unutilmas, qizg‘in ilmiy bahslar, ko‘pdan-ko‘p ijodiy uchrashuvlar bo‘lib turar edi. At-Termiziyyning yozishicha, u o‘z asarlari uchun ko‘p ma’lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyyning bilimini yuqori baholab: “Men sendan ko‘rgan foyda, sen mendan ko‘rgan foydadan ortiqroq”, deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan<sup>1</sup>.

Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd

<sup>1</sup> Уватов У. Имом ал-Бухорий.// Маънавият юлдузлари. –Б.56.

qilingan. Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ko‘pchilik uni hurmat qilgan, ammo ba’zi hasadgo‘y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko‘rolmas edilar. Natijada hasadgo‘ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib, “Al-Jome’ as-sahih”, “At-tarix” kitoblarini o‘qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy “Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf qilganim uchun meni kechiradi”<sup>1</sup>, degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, bo‘htonkor shaxslarning gapiga kirib al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo‘l oladi va bir muncha muddat Xartang qishlog‘ida o‘z shogirdlari va qarindoshurug‘larinikida yashaganidan keyin og‘ir kasalga chalinib, hijriy 256 yil (melodiy 870 yil 1 sentyabr) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-ta’rix as-sag‘iy”, “At-ta’rix al-avsat”, “At-ta’rix al-kabir”, “Kitab al-milal”, “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarini ko‘rsatish mumkin. Uning eng muhim asari, shubhasiz, “Al-jome’ as-sahih”dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhurdir. Uning g‘oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar o‘z to‘plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o‘tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo‘lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.

Olim ibn Salohning ta’kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat.

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziyydir (824-892). U hijriy hisobida 209 (milodiy 824) yilda Termizda, o‘rta hol oilada tavallud topgan.

Markaziy Osiyolik mashhur olim va tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam’oni (313/1167) “An-Ansob” nomli asarida yozishicha, at-Termiziy Bug‘ (hozirgi Sherobod tumani) qishlog‘ida vafot etganligi uchun uning nomiga al-Bug‘iy taxallusi ham qo‘shilgan.

At-Termiziy hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallagan va bu boradagi o‘z

<sup>1</sup> Ўша ерда.

bilimlarini muttasil oshirish uchun ko‘pgina Sharq mamlakatlariga safar qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. U yo‘lda, safarda bo‘lganda ham yoki bir joyda muqim turganida ham o‘z ustozlaridan, uchratgan roviylardan eshitgan hadislarni darhol yozib olib, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borgan<sup>1</sup>.

O‘z ijodiy va ilmiy faoliyati davrida at-Termiziy bir qancha asarlar yaratdiki, ularning ko‘pchiligi bevosita hadislarga bag‘ishlangan. Ma’lumki, islom ulamolari o‘rtasida ilk davrdan boshlab hadislarning to‘g‘riliqi, ularni ishonchli manbalarga asoslanishiga katta e’tibor berilgan. Chunonchi, o‘sha davrning o‘zidan boshlaboq noaniq, chala-chulpa, hatto sohta hadislar ham el orasida tarqay boshlagan. Bunga javoban ular qayta-qayta tekshirilib, muhaddislarning betinim mehnati natijasida asl holiga qaytarilib, yozma ravishda qayd qilingan. Natijada islomshunos yirik ulamolar orasida ishonchli manbalar asosida to‘plangan va tartibga keltirilgan oltita hadislar to‘plami (As-sihoh as-sitta) mualliflari eng nufuzli va mo‘tabar muhaddislari, deb tan olingan. Mana shu e’tirof etilgan mashhur muhaddislardan biri – Imom at-Termiziyyidir.

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. “Al-jomi” (“Jamlovchi”), “Ash-shamoil an-nabaviya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlari”), “Al-ilal fi-l-hadis” (“Hadislardagi og‘ishishlar”), “Risola fil-xilof va-l-jadal” (“Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola”), “Kitob az-zuhd” (“Taqvo haqida kitob”), “Kitob ul-asmo va-l-kuna” (“Ismlar va laqablar haqida kitob”) kabi asarlar shular jumlasiga kiradi.

At-Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri “Al-jomi” bo‘lib, ilmiy adabiyot va manbalarda “Al-jomi’ al-kabir” (“Katta to‘plam”), “Al-jomi’ us-sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “Jomi” at-Termiziy” (“Termiziy to‘plami”), “Sunan at-Termiziy” (“Termiziy sunnatlari”), nomi bilan atalib, payg‘ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbalardan hisoblanadi.

#### **4. Fiqh – islom huquqshunosligining vujudga kelishi.**

**Abu Hanifa, Abu Yusuf, Ash-Shayboniy  
va Burhoniddin Marg‘inoniylarning faoliyati**

O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilanoq, bu mintaqada unga mansub turli mazhablar, aqidaviy oqimlar va fikriy yo‘nalishlar ham tarqala boshladi. Marv shahridan tortib, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo hududlarigacha mazkur oqimlar va mazhablarning raqobat markazlariga aylanib, ularning tarqalishi yoki maydondan chiqib ketishi va barcha sohalarda Hanafiy mazhabi qat’iy g‘alabaga erishishining guvohi bo‘ldi.

Sharq va G‘arbning bir guruh mashhur huquqshunos olimlari va faylasuflari

<sup>1</sup> Қаранг: Уватов У. Имом ал-Бухорий. //Маънавият юлдузлари. –Б.58-59.

tomonidan yozilib, ular jumlasidan Majid Hadduriy va amerikalik Herbert J.Libesni tomonidan tartibga solinib nashr etilgan “*Islomda huquq*” nomli muhim kitobda, fiqh – islom huquqiga yuksak baho berilib, islom qonuni islomning ruhi, markaziy yadrosi va mag‘zi deb atalgan<sup>1</sup>. Ularning fikricha, islom qonunshunosligi islom aqidaviy ta’limoti doirasida yuzaga kelgan bo‘lsa ham, boshqa millatlar va xalqlarga singib ketgan turli urf-odat materiallari asosida boyitilgan.

Boshlang‘ich davrida islom davlatida huquqiy vazifalar rivojlanmagan shaklda mavjud bo‘lib, islomning axloqiy vazifalari va mazhabiy tarkibi bir-biri bilan uyg‘unlashgan edi.

Shuni qayd etish lozimki, har bir jamiyatda, uning qanday sharoitda yashashidan qat’iy nazar, unga tegishli bo‘lgan ishlar, muammolar, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyatda tinchlikni ta’minlab, jinoyatlar oldini olish va boshqa ko‘plab turmush muammolarini yechish uchun bir miqdor qonun-qoidalarga zarurat bo‘lgan. Islom dinini birinchi bo‘lib qabul qilgan arablar jamiyati madaniy jihatdan yetarli darajada rivojlangan bo‘lmasa ham, shu kabi o‘ziga xos qoidalalar va an’analarga ega edi. Ularda *salam* (pulni oldindan to‘lab, pishib yetmagan mol, masalan, bug‘doyni keyinroq olish bitimi), *muzorabat* (foydaga sheriklik asosida ishlatish uchun pulni birovga berish), xilma-xil nikoh shakllari, hakamiyat, savdo va muomalotga tegishli bir qator udumlar, urf-odatlar mavjud bo‘lib, jamiyatda qonun tusini olgan edi.

Lekin mazkur udum va qoidalalar yetarli darajada o‘sib rivojlanmaganligi tufayli, butun jamiyat hayoti sohalarini qamrab olib, birlashgan jamiyat va umumiylu huquqiy tizim qurish uchun yetarli emasdi. Arablar qabilaviy sharoitda yashaganliklari uchun ularda markazlashgan hokimiyat yo‘q edi. Bu esa yagona sud tizimini tashkil etish uchun imkon bermas edi.

Makka shahri islomdan oldin ham eng muhim tijorat markazi bo‘lgan edi. Savdo va tijorat sohasidagi qonunlarni savdogarlar o‘zaro ijro etardilar. Oilaviy munosabatlari (qarindoshlik va meros)ga oid qonunlar, shuningdek, jazo qonuni, ham ko‘chmanchilar va ham shaharlarda yashovchi aholi orasida eski qabilaviy tuzum ta’siri ostida edi. Unga binoan biron bir qabilaga mansub bo‘limgan kishi qabilaviy qonun himoyasidan chetda qolar edi.

Arablar orasida nizo va kelishmovchiliklar paydo bo‘lganida, tomonlar muzokara yo‘li bilan kelisha olmasalar, hakamlarga murojaat qilinar edi. Hakamlar biron bir xos firqaga mansub bo‘lmay, keng ma’lumotli, zukko va yaxshi nom chiqargan kishilar hamda ilohiy kuchga ega hisoblangan kohinlar

<sup>1</sup> Қаранг: “Исломда хукуқ”. Тўпловчилар Мажид Ҳаддурий ва Ҳерберт Ж.Либесни. Муаллифлар гурӯҳи, Шарқ ва Фарбнинг 12 та машҳур хукукшунос, исломшунос ва шарқшунос олимлари. Шу жумладан, Мухаммад Абу Захра, Субхий Мұхассамоний, Шукрий Қардоший, Абул Аъло Мордин, Жозеф Шахт ва бошқалар. –Техрон- Нью-Йорк, 1955. –Б.34. (форс ва инглиз тилларида)

ichidan tanlanardi. Islom Payg‘ambari Hazrati Muhammad (payg‘ambarlikdan ilgari) Qa’bani ta’mirlash ishlari olib borilganda Qoratosh (hajar ul-asvad)ni o‘rniga qo‘yish bo‘yicha urug‘lar orasida yuzaga kelgan nizoni hakam sifatida hal qilishga muvaffaq bo‘lgan edilar.

Islom dini o‘z huquqiy tizimi va qonunchiligini rivojlantirar ekan, Qur’on va Sunnatga asoslangan holda ana shunday an’anaviy udumlardan foydalandi. Shu ma’nodaki, ularning ayrimlari Qur’on oyatlari yoki hadislar orqali bekor qilindi, ayrimlariga o‘zgartirishlar kiritilib qabul qilindi va ba’zilariga qonuniy tus berildi. Masalan, o‘sha davrda amalda bo‘lgan olti xil nikohdan avvallari to‘rttasi va keyinroq beshinchisi (mut’a yoki vaqtinchcha nikoh) ham bekor qilinib, ularning bir shakli – hozirgi qonuniy nikoh qabul qilindi<sup>1</sup>.

Beshinchchi hijriy asrda (622-722) islom huquqi shakllana boshlab, ikkinchi va uchinchi hijriy asrlarda taraqqiyot bosqichlariga ko‘tarildi. Hijriy ikkinchi asr boshlarida ilk huquqiy maktablar (mazhablar) yuzaga kela boshladi va yangi shakllangan islom jamiyatni o‘zining boshlang‘ich huquqiy va qonuniy muassasalarini qurishga muvaffaq bo‘ldi.

Arab xalifaligida ijroiylar faoliyatlar va qonun tuzish ishlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq edi va uning maqsadi yangi tasarruf qilingan mamlakatlar idoralarini islom qonunlari asosida tashkil etib, boshqarish edi.

Shariat yoki shar’ fiqh (huquqiy) atama sifatida qonun ma’nosida ifodalangan<sup>2</sup>.

Ikki-uch asr davomida islom shariati rivojlanib, o‘z qiyomiga yetdi. *Dunyoning eng yuksak va eng oliv huquqiy tizimlaridan biri bo‘lmish fiqh va uning qonunlari mukammal shaklda tartibga solinib to‘plandi*<sup>3</sup>.

Shariatning asosini Qur’on va Sunna tashkil etgan bo‘lsa ham, u amaliy hayot jarayonida boshqa qonuniy tizimlar kabi o‘z taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Shariat hukmlarini ilohiy manbalardan aniqlab olish, ulardan olingan tushunchalarni belgilab berish uslublarini yaratish kabi faoliyatlar islom tarixida erishilgan ilmiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy tajribalarning mahsuli edi.

O‘tmishda islomiy jamiyatlarni o‘z ta’siriga olgan tabiiy, iqlimi omillardan tashqari, yashash sharoitlari, unda mavjud bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy yo‘nalishlar, shariat rivoji uchun tarixiy omillar bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, islom dini tarqalish doirasining kengayishi, turli-tuman madaniyatlarga ega

<sup>1</sup> Каранг: Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Ислом хуқуқшунослиги, ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё факихлари. –Т., Тошкент Ислом университети нашриёти, 2002. –Б.16.

<sup>2</sup> Каранг: Доктор М.Ж.Жаъфарий Лангродий. “Хукуқ истилохи”. –Техрон. 1376 ҳ.й. –Б.386. (форс тилида)

<sup>3</sup> Журжи Зайдон. Ислом маданияти тарихи.3-жилд. –Техрон. 1336 ҳ.1. –Б.102-103. (форс тилида)

bo‘lgan etnik jamoalarning ushbu dinni qabul qilishi ham bu sohada o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Birinchi uch asr davomida aytib o‘tilgan omillar ta’siri ostida musulmon o‘lkalarda qurilgan davlatlarning turli muassasalari va siyosiy faoliyat tamoyillari shakllandi. Bularning hammasi islom qonunchiligining rivojida chuqur iz qoldirdi<sup>1</sup>.

Shar’ yoki islom qonunchiligining tizimli bir taqsim va tasnifiga hech qachon erishilmagan. Sunniylar uni tashqi ko‘rinishiga ko‘ra quyidagi uch qismga bo‘ladilar: *Ibodot* (ibodatlar va ularga tegishli majburiyatlar), *Muomalot* (fuqarolik huquqi munosabatlari), *Uqubot* (jazolar). Isnoashariy (Ja’fariy) shialar tomonidan esa quyidagidek tasnif etilgan: *Ibodot*, *Uqud* (ikki tomonlama-shartnomali huquqiy muomalot), *Iyqoot* (bitim-bir tomondan bo‘ladigan huquqiy muomalot), *Ahkom* (boshqa huquqiy hukmlar)<sup>2</sup>.

Hozirgi zamonning mashhur faqiji misrlik Abdullo Ahmad an-Naimning ta’kidlashicha, ijmo va qiyos Qur’on va Sunnada ochiq-oydin shariat manbalari qatorida zikr etilgan bo‘lmasa ham, bu ikki tushunchaning rivojlanishi oqibatida islom qonunchiligining ikki manbai darajasiga ko‘tarilishi ikkinchi va uchinchi hijriy asrlarda sunniylik huquqiy maktablarining asoschilari bo‘lmish imomlar ijtihodining natijasi edi.

*Ulumi shar’iya* (shariat ilmlari) haqida buyuk mutafakkir Abdurahmon ibn Xaldun (1332-1406) o‘zining mashhur asari “Al-muqaddima”da to‘xtalib o‘tgan. U ilmlarni ikki qismga bo‘ladi: *birinchisi*, inson uchun tabiiy bo‘lib, unga tafakkur orqali erishiladigan va *ikkinchisi* esa, naql (rivoyat) orqali erishiladigan ilmlardan iborat bo‘lib, insonlar uni asoschisi (Payg‘ambar)dan oladilar. Birinchi qism ilmlar hikmat va falsafaga mansub ilmlarni o‘z ichiga oladi. Inson ularni o‘z idroki yordamida turli mavzular va masalalarga doir dalillar orqali qo‘lga kiritadi.

Ikkinchi qism “naqliy va vaz’iy ilmlar” nomi bilan atalib, unda xabarlar (hadislar) orqali shariat asoschisidan naql va rivoyat etiladi. Bu ilmlar(ning asosiy qoidalari) haqida aqlni ishga solib, fikr yuritish mumkin emas. Faqtgina ularga bog‘liq bo‘lgan far’iy (juz’iy) masalalarni qiyos orqali belgilab olish mumkin. Bu esa *shar’iy ilmlar* va ularni o‘zlashtirish uchun bizga yordam beradigan ilmlardan iboratdir<sup>3</sup>.

Ikki qismdan iborat bo‘lgan mazkur fanlar “aqliy” va “naqliy” yoki “ma’qul” va “manqul” ilmlar deb ham yuritilgan.

Shariat ilmlari islom dini va unga bog‘liq bo‘lgan masalalarni qamrab oladi. Mazkur ilmlar *qiroat ilmi*, *tafsir ilmi*, *hadis ilmi*, *fiqh ilmi* va uning far’iy

<sup>1</sup> Қаранг: Абдулло Аҳмад ан-Наим. Ислом қонунчилигини ривожлантириш йўлида. –Қохира: Сино нашри, 1994. –Б.42. (араб тилида)

<sup>2</sup> Қаранг: Ислом энциклопедияси. 11-жилд. –Б.430.

<sup>3</sup> Қаранг: Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. –Искандария: Дору матбааи Ибн Халдун. –Б.305. (араб тилида)

(juz'iy) qismlari, shuningdek, ***kalom ilmi***idan iboratdir.

Arab tili va adabiyoti fanlari ham, ulumi shar'ianing o'rghanish vositasi bo'lgani uchun, uning bir qismi deb hisoblanadi<sup>1</sup>.

Birinchisi, ***qiroat ilmi***. Qur'oni karim islom dinining asosiy manbai bo'lgani uchun uni o'zgartirishlardan saqlash va mazmunini chuqr tushunish uchun qiroat va tafsir ilmlari yuzaga kelgan. Qiroat ilmi mutavotir rivoyatlar (ishonarli kishilar tomonidan qilingan rivoyatlar)ga doir ixtiloflarni nazarda tutish bilan birga Alloh kalomini to'g'ri va xatosiz o'qish masalalarini tekshiradi. Bundan tashqari uning asosiy maqsadi Qur'onnéni tahrif (o'zgartirish)dan saqlashdir.

Qiroat ilmi kamida yetti xilga bo'linadi. Ular bo'yicha juda ko'p kitoblar yozilgan.

Ikkinchisi, ***tafsir ilmi*** – Payg'ambar hadislari, arab tili grammatikasi qoidalari va balog'at ilmining usullariga tayanib Qur'on oyatlarining mazmunini yoritib beradigan ilmdir.

Tafsir ilmidan maqsad Qur'on oyatlarining haqiqiy mazmun va mohiyatini tushunishdir. Ushbu fan huquqiy muammolarni Qur'on oyatlari asosida hal qilishda katta yordam beradi.

Ba'zi rivoyatlarga qaraganda, Ibn Abbos birinchilardan bo'lib Qur'on tafsiri bo'yicha kitob yozgan va buni Ibn Nadim ilk tafsirlar qatorida zikr etgan<sup>2</sup>. Shialar da'vosiga ko'ra, eng qadimgi tafsir imom Muhammad Boqir qalamiga mansubdir<sup>3</sup>.

Qur'oni karim bo'yicha juda ko'p tafsirlar yozilgan bo'lib, ularning eng mashhuri buyuk tarixchi Muhammad ibn Jarir at-Tabariy qalamiga mansub "Tafsiri Tabariy" nomi bilan shuhrat qozongan "Jomi' ul-bayon fi tafsiril-Qur'on"dir.

Uchinchisi, ***hadis ilmida*** islom Payg'ambari hazrat Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, bajargan amallari va tasdiqlari haqida so'z yuritiladi. U ikki qism, ***rivoyat ul-hadis*** va ***diroyat ul-hadis*** ilmlaridan iboratdir.

Hadislarning birinchi to'plamlari ko'pincha fiqhii-huquqiy masalalarga doir hadislarni o'z ichiga olgan. Ikkinci hijriy asr oxirlari (VIII asr avvallari)ga kelib, mukammalroq usullarga tayanib yangi to'plamlar (***musnadlar***) tuzilgan. Hijriy uchinchi asrda sahib hadislarni soxta va to'qima hadislardan ajratib olish uchun hadislар roviylarini tanqidiy uslubda tekshirish zarurati yuzaga kelgan. Bu esa oltita eng sahib kitoblar (***Sihohi sitta***)ni to'plash davri edi. Ular ***Sahih al-Buxoriy***, ***Sahih al-Muslim***, ***Jome' at-Termiziy***, Abu Dovud, an-Nasoiy va Ibn

<sup>1</sup> Қаранг: Абдулҳай Ҳабибий. Афғонистон исломдан кейин. 1-жилд.-Қобул, Давлат матбааси, 1950. –Б.68. (дари тилида)

<sup>2</sup> Қаранг: Ибн Надим. Ал-Фихрист (Рўйхат). –Байрут, "Дор ул-маърифа" нашри (нашр йили берилмаган, араб тилида)

<sup>3</sup> Қаранг: З.Сафо. Торихе адабиёте Эрон (Эрон адабиёти тарихи). 1-жилд. –Б.70.

Moja “*Sunnan*”laridan iboratdir. Mazkur olti buyuk muhaddislardan ikki kishi (Imom Buxoriy va Imom Termiziy) Movarounnahrga, to‘rttasi esa Xurosonga mansub bo‘lgan.

To‘rtinchisi, *fiqh ilmi* – islom huquqidan iborat bo‘lib, undan maqsad shariat hukmlarini chuqur anglab olib, ularni amalga oshirish iqtidori va malakasiga ega bo‘lishdir<sup>1</sup>. Fihq ilmi hukmlarni Qur’on va Sunnatdan ijтиҳод orqali chiqarishga tayanadi. Ijтиҳod esa huquqshunoslar o‘rtasida ixtiloflar yuzaga kelishi va musulmonlar orasida turli mazhablarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Beshinchisi, *kalom ilmi*, Ibn Xaldunning ta’kidlashicha, imonga tegishli masalalarни aqliy dalillar bilan isbotlash va ahli sunna mazhablaridan chiqib ketgan bid’atchilar aqidalarini rad qilishga tegishli fandir<sup>2</sup>.

Islom dinining aqidaviy asoslari bo‘lmish yaralish, qaytadan tirilish, Allohning borligi, birligi va imon chegaralari, jabru ixtiyor, xayru shar (yaxshilik va yomonlik), tangrining zoti va sifatlari va uning kalomi (Qur’on) kabi masalalar kalom ilmining mavzuini tashkil etadi.

Axloqqa tegishli qoidalar mustaqil bir fan sifatida shakllangan bo‘lsa ham, ularni shariatdan, ayniqsa huquqiy me’yorlardan ajratib bo‘lmaydi.

“Hanafiy” mazhabining asoschisi, Abu Hanifa kunyasi, Imomi A’zam laqabi bilan shuhrat qozongan Nu’mon ibn Sobit 80 hijriy yili (699 m.y.) Kufa shahrida tug‘ilib, 150 hijriy yili (767 m.y.) o‘sha yerda vafot etgan va Bag‘dod shahrining “Askar Mahdiy” nomli mavzesida Xayzuron nomli qabristonning sharqiy tomonida dafn etilgan. A. Dehxudoning yozishicha, uning janoga namozi Hasan ibn Ammora imomligida o‘qilgan<sup>3</sup>.

Avvallari Abu Hanifa ko‘proq tijorat ishlari bilan shug‘ullanib, bo‘sh vaqtida olimlar bilan uchrashib turardi, turli guruhlar bilan munozara va bahs olib borib, ularning tafakkuri hamda dunyoqarashlari bilan oshno bo‘ldi.

Kufa olimlari uni ilm o‘rganishga targ‘ib va tashviq qilib kelgan bo‘lsalar ham, o‘sha davrning mashhur olimlaridan biri Sha’biy bilan uchrashuvi uning hayotida burilish nuqtasi bo‘ldi. Imomning o‘zi aytishicha, Sha’biy uning ilm o‘rganish maqsadida olimlar majlislariga ko‘proq qatnashishni tavsiya qilib “Men senda bir uyg‘oqlik va harakatni ko‘raman”<sup>4</sup>, degan edi.

U birinchi marta kalom ilmiga qiziqib, turli firqalar, ayniqsa mu’taziliylar va xavorij vakillari bilan bahslashib turdi. Hatto mu’taziliylar bilan munozara o‘tkazish maqsadida bir yilcha Basra shahrida qolib ketdi. U barcha fanlar, ayniqsa, kalom, hadis, tafsir, fiqh, hikmat eshiklarini qoqib o‘tib, har birida,

<sup>1</sup> Каранг: Ал-мавсузат ул-фиқхия.-Қувайт. Авкоф ва исломий ишлар вазирлиги. Дор ус-сафва матбааси, 1995. –Б.414. (араб тилида).

<sup>2</sup> Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. –Б.321.

<sup>3</sup> А.Деххудо. Лугатнома. 1-жилд. –Б.385. (форс тилида)

<sup>4</sup> Вахбий Сулаймон Ғовжий. Абу Ҳанифа ан-Нуъмон факих имомларнинг имоми. –Дамашк: Дор ул-калям, 1987. –Б.49. (араб тилида)

ayniqsa, kalom va hadis ilmlarida o‘z iste’dodini sinab ko‘radi, oxiri borib butunlay fiqh ilmiga beriladi.

U kalom ilmi bo‘yicha “al-Fiqh ul-Akbar”, “ar-Risolatu ila Usmonil Bustiy” va “Ar-raddu alal-qadariya” nomli risolalar yozgan bo‘lsa ham, o‘z shogirdlari va o‘g‘illarini ushbu yo‘lga o‘tishdan qaytarar edi.

Abbosiylar xalifalari siyosiy tomondan Abu Hanifani yoqtirmasalar ham, uning mazhabi va huquqiy ta’limotlariga katta zarurat sezardilar. Chunki ahli hadis mazhablariga nisbatan Hanafiy mazhabi o‘zining keng dunyoqarashi, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni yechishda yaratgan katta va keng qamrovli imkoniyatlari bilan, davlat uchun juda ko‘p qulayliklar yaratib, zamon talablariga, voqelikka muvofiq ravishda javob berishga qodir edi.

Misrlik mashhur olim Ahmad Amin o‘zining “Zuhal-islom” (“Islom yog‘dusi”) nomli asarida ta’kidlashicha, Abu Hanifa ibodat va huquqning turli sohalariga doir 60 mingdan 80 mingga qadar masalalarni chuqur yoritib bergen.

Misrlik olim Abdul-Halim al-Jundiy o‘zining “Abu Hanifa batalul hurriyati vat-tasomuh fil-islom” (“Abu Hanifa islomda erkinlik va murosa qahramoni”) nomli kitobida uning haqiqiy ilmiy siymosini yoritib berishga harakat qilib, katta muvaffaqiyatga erishgan. U bunday xulosa chiqaradi:

“Abu Hanifa har yerda, har doim, o‘tmish, hozir va kelajakda, har bir sohada – mulkchilik, ayollar va fuqarolar huquqlari bo‘yicha, shuningdek, har qanday tasarruf qilish sohasida erkinlik va murosani e’lon qilgan. Erkinlik va murosa uning nomi bilan abadiy oliy darajaga ko‘tarilgan. Uning ra’y va qiyos maqtabi islom huquqining onasi va zamon o‘tishi bilan uning manbai bo‘lib qoladi. U biron bir rasmiy madrasa yoki o‘quv yurtida ta’lim olmagan, u faqat jome’ masjidga kirib, hayot madrasasidan o‘rgangan”<sup>1</sup>.

Hindistonlik mashhur olim Mahmud To‘nkiy o‘zining “Majmaul-musannifyn” kitobida yozishicha, Abu Hanifa dars bergen shogirdlarining soni 880 taga yetib borgan edi. Uning shogirdi Abu Zahra qayd etganidek, “u dars o‘tishda yunon faylasufi Suqrot uslubiga o‘xshash metoddan foydalanan edi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri talabalarga ma’ruza o‘qimasdan, o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalardan birini o‘rtaga tashlab, unga tegishli bo‘lgan hukmlarning asoslarini izohlab bergandan keyin, shogirdlar u bilan bahsu munozaraga kirishar edilar. Har kim o‘z fikrini bildirib, gohi undan betaraflik asosida odilona nazar bildirishini so‘rardilar va ijtihogiga qarshi turardilar. Ba’zan unga nisbatan ovozlar baland ko‘tarilardi. U esa matonat bilan masalani har tomonlama tekshirgach, tortishuvlar xulosasi sifatida yuzaga kelgan fikrni o‘rtaga tashlar edi. Bu esa bahsu munozaralardan kelib chiqqan qat’iy xulosa va qaror bo‘lardi.

<sup>1</sup> Абдулҳалим ал-Жундий. Абу Ҳанифа баталул ҳуррияти ват-тасомух фил-ислом . –Қохира, 1966. –Б.193. (араб тилида)

O‘shanda barcha talabalar rozilik bilan uning fikri to‘g‘ri ekanligini e’tirof etardilar”<sup>1</sup>.

Abu Yusuf (113-182h.y./731-798 m.y.) dastlab hadislar hofizi va o‘qituvchisi bo‘lsa ham, Abu Hanifa bilan yaqinlashgandan keyin *ra'y* va *qiyos* taraforiga aylandi va Abu Hanifa izidan borib, ba’zan uning fikriga qarshi o‘ziga xos fikru mulohazalarini ham izhor etib turardi.

Abu Yusuf Horun ar-Rashid davrida eng oliy martabalarga ko‘tarildi. U birinchi bo‘lib islom dunyosida “Qozil-quzzot” unvoniga erishgan, o‘z mazhabi, ya’ni hanafiylik bo‘yicha birinchi bo‘lib kitob yozgan Abu Hanifa shogirdi bo‘lib, Ibn Xallikonning qayd etishicha, birinchi bo‘lib qozilar va olimlar uchun maxsus kiyim (uniforma) tayinlagan buyuk qozi edi. Mazkur libos qora salsa va taylason (libos ustidan yelkaga tashlab yuriladigan keng va uzun kiyim)dan iborat edi.

Abu Yusufning qozilik davrida Abbosiylar imperiyasi hududida Hanafiy mazhabi davlatning rasmiy mazhabi sifatida rivojlanib, nazariyot sohasidan amaliyot sohasiga o‘tib sayqallandi. Uning har bir usul-qoidasi hayot sinovidan o‘tib, amaliyotga tatbiq etildi.

Abu Yusufning eng muhim asari bo‘lmish “Kitob ul-xiroj” (“Soliq kitobi”) Abbosiylar xalifasi Horun ar-Rashid talabiga binoan yer soliqlari (ushr, xiroj), sadaqot (zakot), jizya (g‘ayridinlar islom davlatiga to‘laydigan soliq) va urushlardan tushgan g‘animatlar va fay’ (o‘ljalar)ni to‘plash haqida yozilgan.

Kitob islom davlati hududi kengaygan bir paytda, turli mamlakatlarda bu sohada vujudga kelgan muammolarni yechishga qaratilgan bo‘lib, Abu Yusuf uni asosan Abu Hanifaning huquqiy nazariyalariga tayangan holda, Payg‘ambarimiz hadislari, sahobalar, ayniqsa, Xulafoi Roshidiyn tomonidan aytilgan so‘zlar, qo‘llanilgan usul va qoidalardan foydalanib yozib Horunga taqdim etgan<sup>2</sup>.

Uning ahamiyati shunda ediki, birinchidan, mamlakatda davlat daromadining asosiy manbai bo‘lmish yer soliqlarini tizimlashtirgan uslubda tartibga solishda Abbosiylar buyuk imperiyasiga katta yordam berdi, ikkinchidan, moliyaviy sohada davlatning ijroiylarini Hanafiy mazhabi usul va qoidalari asosida yo‘lga qo‘ydi va shu yo‘sinda mazkur qoidalarni amaliyotga tatbiq etish uchun sharoit yaratib berdi.

Abu Hanifaning huquqiy nazariyalarini asosida ash-Shayboniy yozgan “Assiyar ul-kabiyr” islom huquqshunosligida xalqaro huquq bo‘yicha yozilgan muhim asardir. Umrining oxirigacha Farg‘onada yashab, 1097 yili shu yerda

<sup>1</sup> Иқтибос Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний томонидан ёзилган “Ислом хукуқшунослиги, Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё факихлари” китобидан. –Б.149.

<sup>2</sup> Қаранг: Доиратул маорифе бузурге исломий (Катта ислом энциклопедияси). 6-жилд. –Техрон. 1373 х.й./1994 м.й. –Б.441-449. (форс тилида)

vafot etgan Shams ul-aimma as-Saraxsiy tomonidan ushbu kitobga yozilgan katta sharh bizgacha yetib kelgan. Majid Xadduriyning yozishicha, ushbu kitobning tarjimasi Ovro‘poda 1825 yilda nashr etilgach, olmoniyalik mashhur sharqshunos olim *Jozef Hamer Fun Purgstal* (1774-1856) muallifni *islom Grotsiysi* deb atadi (Ovro‘poliklar tomonidan zalqaro huquq asoschisi sifatida tanilgan, 1583-1645 yillardan yashagan Gollandiyalik huquqshunos, jamiyatshunos va davlat arbobi Hugo de Groot Grotsiy).

Ushbu sharh 1917 yilda Haydarobodda (Hindiston) 4 jildda nashr etilgan. Fransiyalik olim Hans Gruse ham Shayboniyni islom Grotsiysi deb atab, 1955 yilda “Shayboniy” nomidagi xalqaro huquq anjumanini ta’sis etgan<sup>1</sup>.

O‘rta Osiyolik faqihlarning har biri o‘z ilmiy uslubi va yashagan davri sharoitiga qarab islom huquqi, ayniqsa, hanafiy mazhabi rivoji yo‘lida unutilmas xizmatlar qilib, o‘zlaridan barhayot asarlar qoldirganlar. Ular orasida imom Marg‘inoniy yozgan qimmatli huquqiy kodeks “al-Hidoya” o‘z ixchamligi, mukammalligi, hanafiy mazhabini boshqa sunniylik mazhablari bilan qiyosiy uslubda o‘rganib, har tomonlama yoritganligi uchun o‘ziga xos katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Al-Hidoya” kitobi 8 asrdan buyon hanafiy mazhabi bo‘yicha eng muhim va mo‘tabar qo‘llanma sifatida barcha musulmon mamlakatlari madrasalari va islomiy oly o‘quv yurtlarida o‘qitilib kelinmoqda<sup>2</sup>. Uning matni va qisqartmalari ustida mashhur faqihlar tomonidan 60 dan ortiq sharhlar va hoshiyalar yozilib, ushbu mazhabning tarqalishi yo‘lida ta’sirchan omil sifatida xizmat qilib kelgani ko‘philikka ma’lum.

Shuningdek, “Al-Hidoya”ning fors, ingliz va rus tillariga tarjima qilinishi, g‘arb olimlari uchun ham o‘rganishga qulayliklar yaratdi.

Imom Burhonuddin Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg‘oniy al-Marg‘inoniy 1123 yilda hozirgi Marg‘ilon yaqinida Rishton tumanida tug‘ilib, 1197 yili Samarqandda olamdan o‘tgan.

“Al-Hidoya” arab tilidan fors tiliga Sharqiy Hindiston shirkati tasarrufidagi Bengaliya viloyati mahkamalari uchun 1190 h.y. (1776 m.y.) yilda G‘ulom Yahyoxon tomonidan tarjima qilinadi. Ushbu tarjima 1221 h.y. (1807 m.y.) yilda Kalkutta shahrida chop etilgan.

“Al-Hidoya” kitobi o‘zining amaliy va nazariy ahamiyati jihatidan har doim buyuk faqihlar va islom shariati yirik vakillarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Har bir olim unga nisbatan o‘z fikrini bildirib kelgan. Ular jumlasida, kitob muallifining o‘g‘li Shayxulislom Imom Imouddin otasi haqida she’r

<sup>1</sup> Доктор Сайид Халил Халилиён. Исломий халқаро хуқуқ. 1368 х.й. –Б.62.

<sup>2</sup> Каранг: Хидоя: Комментарии мусульманского права. Ответственный редактор, автор вступительной статьи и комментариев профессор, доктор юридических наук А.Х.Саидов. Переведено с английского, под редакцией Н.И.Гродекова. –Т.:Ўзбекистон, 1994. –С.25-44.

yozgan. Mazmuni: “*Al-Hidoya*” kitobi uni o‘zlashtirgan kishini hidoyat yo‘liga boshlab, ko‘zi ojizlarning ko‘zini yoritadi. Ey, aql egasi, uni o‘qib o‘zlashtirgin, uni o‘lashtirgan kishi eng oliv g‘oyalarga erishgan bo‘ladi”<sup>1</sup>.

“Al-Hidoya” arab tilidan o‘zbek tiliga taniqli olim Salohiddin Muhiddinov rahbarligida bir guruh olimlar tomonidan tarjima qilinib, uning birinchi jildi 2000 yili “Adolat” nashriyotida bosmadan chiqarildi. Kitobning boshqa jildlari ham nashrga tayyorlanmoqda.

1346 yilda vafot etgan Buxorolik mashhur faqih Sadrush-sharia Ikkinchisi O‘rtacha Osiyoda islam huquqining yalovbardori hisoblanadi. Uning “*Muxtasar ul-Viqoya*” asari ko‘p asrlar davomida islam huquqini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi va hozirda ham o‘z e’tiborini yo‘qotgan emas.

Hajman “*Muxtasar ul-Viqoya*” “Al-Hidoya”ning o‘n biridan bir qismiga to‘g‘ri keladi. Lekin hajmiga qaramasdan, uni diqqat bilan o‘qigan malakali kishi, islam huquqining asosiy masalalarini o‘zlashtirib olishga erishadi.

“*Muxtasar ul-Viqoya*” o‘zbek tilida toshkentlik fiqhshunos olim Maqsudxo‘ja ibn Mansurxo‘ja tomonidan “*Majmaul Maqsud*” nomi bilan katta hajmda sharhu tarjima qilinib, XX asrning o‘n yettinchi yillarigacha “Majmaul Maqsud” yo “Muxtasarul-viqoyai turkiy” nomi bilan ikki jildda (1100 bet) nashr etilgan. Ushbu kitobning birinchi jildi 1999 yili “Adolat” nashriyoti tomonidan bosmadan chiqarildi.

Maqsudxo‘ja o‘z sharhida 50 dan ortiq fiqhiy manbalardan foydalanib, muhim va kerakli bo‘lgan huquqiy masalalarni har tomonlama ochib beradi.

Ma’lumotlarga qaraganda, asrlar davomida “Al-Hidoya”ga qiziqish qanchalik kuchli bo‘lgan bo‘lsa, uning xulosasi – “Muxtasar”<sup>2</sup>ga qiziqish ham shunchalik katta bo‘lgan.

Marg‘inoniyning shogirdlaridan biri bo‘lmish Burhon ul-islam az-Zarnujiy o‘zining “*Ta’lim ul-mutallim*” kitobida quyidagilarni aytgan ekan: “Hech qachon, ilm o‘rganish ishida uzilish yuz bermasligi kerak, negaki bu, katta yo‘qotishga olib boradi. Men ilm o‘rganish jarayonida, hech qachon uzilishga o‘rin qo‘ymaganim sababli, barcha safdoshlarimdan o‘zib o‘tdim”.

## 5-§. Ismoiliylarning diniy-falsafiy ta’limoti

Ismoiliylarning aqidasi Aflatun, Arastu, yangi afloatchilik, yangi pifagorchilik, xristian gnostisizmi ta’limotlari ta’sirida shakllangan murakkab tizimni tashkil etgan. Bu tizimga binoan barcha mavjud narsalarning yagona

<sup>1</sup> Муҳаммад Абдулҳай. Ҳидоя муқаддимаси сифатида ёзилган рисола. –Б.З. Лакнау нашри. 1394 х.й. (форс тилида)

<sup>2</sup> Қаранг: Мұхтасар (Шариат қонунларига қисқача шарх). –Т: Чүлпон, 1994. Нашрға тайёрловчилар Р.Зоҳид, А.Деҳқон.

ibtidosi oliy sir (arabcha – al-g‘ayb taolo) bo‘lib, uni ta’riflab ham, bilib ham bo‘lmaydi. U biror-bir sifatga ega bo‘limgan, ammo abadiy sokinlikda turuvchi zot, ya’ni “mutlaq xudo”dir. U ijodiy javharni o‘zidan ajratadi, u esa o‘z navbatida umumiy aql (arabcha – aql al-kull) bo‘lib, xudoning barcha sifatlariga egadir.

Umumiy aql o‘zidan nur chiqarib (emanatsiya) umumiy ruhni (arabcha – nafs al-kull) paydo qiladi.

Mukammallika erishmagan Umumiy ruh o‘z navbatida o‘zidan nur chiqarib (emanatsiya) – birlamchi moddani (arabcha – hayulo) vujudga keltiradi. U esa – yer, osmon va barcha tirik mavjudotlarni yaratadi. Emanatsyaning keyingi bosqichlarida makon, zamon, komil inson vujudga keladi. Shunday qilib emanatsyaning yetti bosqichi tashkil topadi.

Yetti bosqich umumiy jihatga ega bo‘lib, makrokosmga ham (koinotga), inson olamiga ham taalluqli edi. Payg‘ambarlar va ularning yordamchilari ham yettita bo‘lganlar, negaki, insoniyat tarixi payg‘ambarlikning yetti davriylik zamonidan, ya’ni Odam Ato, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad alayhissalomlar va kelajakda kelishi kutilayotgan Qoim (Imom Mahdiy) tushunchasidan iborat edi.

### **Uchinchi mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Ilohiyot falsafasi bo‘lgan kalom qachon vujudga kelgan?
2. Qaysi mutafakkirlar aql bilan dinni bir-biriga tadbiq etishga uringanlar?
3. Abul Hasan al-Ash’ariy (874-933) va Abu Mansur al-Moturidiy (870-944)larning kalom mакtablarining bir-biridan farqi bormi?
4. Ismoiliylarning diniy-falsafiy ta’limoti qachon vujudga kelgan?
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870)ning ilmiy qiziqishlari nimaga qaratilgan edi?
6. Nima sababdan hadisshunoslik ilmi vujudga kelgan?
7. Markaziy Osiyodan chiqqan yana qanday hadisshunoslarni bilasiz?
8. Imom Termiziyning qaysi asari mashhur?
9. Fiqh – musulmon huquqshunosligi qachon vujudga kelgan?
10. Burhoniddin Marg‘inoniyning qaysi asarini bilasiz?

## **4-mavzu. TABIATShUNOSLIKNING KELIB ChIQISHI VA ISLOM AQIDALARIGA NISBATAN ILMIY BAHSLARNING BOSHLANISHI**

### **1. Ibn Ravandiylar va Muhammad Zakariyo Roziy qarashlari**

Ozod bahs muhitida shakllangan falsafiy bedorlik IX-X asrlarda davom etdi. Ahmad ibn Tayyib Seraxsiy (899 yilda qatl etilgan) al-Kindiyning iste’dodli

shogirdi bo‘lib, bilimi va iqtidori tufayli xalifa saroyining nufuzli shaxslaridan edi. U ustozi Kindiy kabi mu’tazila tamoyili kuchli bo‘lganligidan o‘z qarashlari uchun aqlni asosiy me’yor qilib olgan edi. Buning asosida u diniy aqidalarga shubha bildirishgacha borib yetdi. U mantiq, kalom va ilmu nujum (astronomiya) bilan ko‘p shug‘ullanar edi. Seraxsiy dinga nisbatan o‘z shubhalarini hatto xalifa bilan qilgan suhbatlarida ham yashirmas edi. Abu Rayhon Beruniyning guvohlik berishicha, Seraxsiy bu bilan cheklanib qolmasdan, o‘zining ko‘p sonli risolalarida payg‘ambarlarni yolg‘onchilikda ayblab yozdi<sup>1</sup>. Bu masalada Seraxsiydan ham so‘lroq bo‘lgan Ibn Ravandiy (vaf. 297/910) diniy aqidalar shubhasiga xatarli darajada yaqinlashdi. Ibn Ravandiy vahiyini g‘ayri zaruriy narsa hisoblagan. Uning fikricha, inson aqli xudoni tanishga, xayr bilan sharrni (yomonlik) bir-biridan farq qilishga qodir. Uning aqidasicha, Qur’on ham badiiy jihatdan boshqa arabcha asarlardan benazir va tengi yo‘q-ijod namunasi emas<sup>2</sup>.

Butun islom tarixida va jumladan X asrda erkin fikr yuritish sohasida Abu Bakr Muhammad Zakariyo Roziy tengi yo‘q olim edi. U X asrning eng mashhur tabibi bo‘lgan. U Reyda tavallud topib, falsafa, tabobat (medisina) bilan shug‘ul-lanishdan oldin sarroflik qilgan. Tabobatda shunday darajaga erishganki, 32 yoshga yetmasdan o‘z tug‘ilgan shahridagi, keyinchalik Bag‘dod shahri kasal-xonasiga boshliq bo‘lgan. Roziy kimyo fanida ham zabardast olim bo‘lib, mashhur “Sir ul-asror” (“Sirlar siri”) kitobini yozgan. U 925 yilda vafot etgan.

Riyoziyotni istisno etganda Roziy tabiatshunoslik va ijtimoiy sohalarda 200 ga yaqin asar yozgan. Falsafaga doir asarlarining ro‘yxati quyidagicha:

1. Mantiqiy risolalar majmuasi. Unda kategoriyalar, burhon (dalil, isbot) va mantiqqa kirish (isog‘uchi) haqida bahs va kalomda mantiqni qo‘llash to‘g‘risida fikrlar mavjud.
2. Ilohiy falsafaga oid risolalar majmuasi.
3. Mutlaq va juz’iy hayulo (substansiya, modda).
4. Bo‘shliq, to‘lalik, zamon va makon.
5. Samoye tabiiy (tabiat ovozi kitobi).
6. Jahon yaratuvchi hakimga egaligi haqida.
7. Jism larning azaliyligi va foniyligi haqida.
8. Prokl ta’limotiga raddiya.
9. Plutarxning tabiatshunoslikka doir qarashlari haqida.
10. “Timey” kitobining tafsiri.
11. “Timey” kitobiga Plutarx qilgan tafsir haqida.
12. Jism o‘z zotiga ko‘ra harakatda ekanligi va harakat tabiatning ibtidosi

<sup>1</sup> Қаранг: Rosenthal, Ahmad b. at-Tayyib as-Sarahsi new Hoven, 1943. –Р. 132.

<sup>2</sup> Ўша жойда, –Б.35. Қаранг: .۲۰۰ // ابن نديم فهرست، ص.

ekanligi haqida.

13. Tibbi ruhoniy (ruhiy davolash).
14. Falsafiy yo‘l-yo‘riqlar.
15. Jon haqida kitob.
16. Imom Ma’sum aytganlari haqida.
17. Mu’tazila qarashlarining tanqid va tahlili haqida.
18. Ilmi ilohiy Aflatun nuqtai nazaridan.
19. Ilmi ilohiy Suqrot nuqtai nazaridan.<sup>1</sup>

Roziyning falsafiy qarashlarini o‘rganishga uning uch falsafiy risolasi manba bo‘lib xizmat qila oladi: “Kitob tibb ar-ruhoniy” (“Ruhiy davolash kitobi”), “Kitob siyrat al-falsafiya” (“Falsafiy hayot tarzi haqida kitob”) va “Maqola fi amorat iqbol va ad-davlati” (“Baxt-saodat va boylikka erishish yo‘llari haqida maqola”).

Roziy borliq va dunyoning tuzilishi haqida quyidagilarni yozgan: “Bu besh narsa (xoliq, ruh, birlamchi modda, makon va zamon) haqiqatda mavjud bo‘lgan dunyoning zaruriy manbalari (tagzamini)dir. Negaki, undagi his-tuyg‘u orqali qabul qilinadigan narsa – (har xil) shakllarni qabul qiluvchi, (turli-tuman) qo‘shiluvdagi birlamchi moddadir”.<sup>2</sup>

Roziyning dunyoning azaliyligi haqidagi qarashlarini biz uning qarashlarini shiddatli tanqid qilgan Nosir Xisravning “Zod al-musofirin” (Musofirlarning ozuqa xaltasi”) asaridan topamiz:

“Darhaqiqat, birlamchi modda azaliydir, negaki, narsalarning boshqa narsalardan paydo bo‘lishining imkonи yo‘q, maxsusan agar u jism bo‘lsa, chunki, aql bunday ta’limotni qabul qilmaydi”.<sup>3</sup>

Roziy yana shularni ta’kidlaydi:

“Modomiki, jismlar asosi muayyan narsa, ya’ni birlamchi modda bo‘lar ekan va uning zarrachalari dunyo deb atalmish ushbu hamma narsani qamrab oluvchi jismda qo‘shilishar ekan, qo‘shilishganda ham ba’zi jismlar boshqalaridan yuqorida, ba’zilari esa pastda bo‘lar ekan, ana shularning o‘zi isbotlaydiki, birlamchi modda tobe bo‘lmagan va uning tobeligi esa (dunyoning) mavjudligi bilan birgalikda paydo bo‘lgan. U paydo bo‘lguncha sochilgan holatda bo‘lgan va dunyo yo‘q bo‘lib ketgandan keyin ham, abadiy ravishda tarqoq holda qoladi”<sup>4</sup>.

Roziy modda bilan shaklning ajralmas ekanligini qayd etadi: “Moddaning shakli o‘z holatiga ko‘ra, javharning sifatidir. Modomiki, javhar o‘zining tashkil topishi va namoyon bo‘lishi uchun orazga (sifat) ehtiyoj sezmas ekan, shu

<sup>1</sup> Каранг: Можед Фахрий. Ислом оламида фалсафа давони. –Б.115-116.

<sup>2</sup> Абу Райхон Беруни. Избранные произведения (Танланган асарлар). Том 1. –Т., 1957. –С.288.

<sup>3</sup> Насири Хисрав. Зод ал-мусофирин. –Берлин. 1935. –С.74. (форс тилида).

<sup>4</sup> Насири Хисрав. Зод ал-мусофирин. –Берлин. 1935. –С.76.

tufayli orazga javharlilik ustidan afzallik xos xususiyat emas. Modda va shaklning holati shundaydir. Shuning uchun ham oraz va shakl o‘rtasida hech qanday farq yo‘qdir<sup>1</sup>.

Roziy Arastuning bo‘shliq haqidagi fikrini rad etib, Aflatunning bo‘shliq mavjud ekanligi haqidagi aqidasiga qo‘shilgan.

Zakariyo Roziy harakat, bo‘shliqnigina emas, balki jismlar tarkibini eng kichik zarrachalardan (atomlardan) tuzilganligi haqidagi Demokrit fikriga qo‘shilgan.

Roziy fikricha, jon aslida tirik, ammo beparvo va aqli sust bo‘lgan. U moddaga oshiq bo‘lgan va u bilan birlashib, unga surat va shakl bag‘ishlashni xohlagan va shu yo‘l bilan jismoniy lazzatdan bahramand bo‘lgan. Ammo modda tabiatи ruhdan sodir bo‘ladigan surat va shakllarni qabul qilishdan bosh tortgan. Shunda xudo jonga yordamga kelib, bu jahonni modda shaklida yaratgan. Xuddi shunday xudo insonni yaratib, “o‘z ilohiy zoti”dan unga aql ato etgan. Aql ruhni inson jismidagi zaminiy uyqudan uyg‘otib, o‘zining asliy vatani bo‘lgan, aqliy jahonga qaytaradi. Ungacha esa uni vazifasi, ruhning bu jahon bilan qo‘shilib turishi uchun falsafani uni esiga solib turadi. Ruh falsafa ta’limiga odatlangandan keyin rostlik yo‘liga kira oladi va aqliy jahonga yoki pifagorchilar aytganidek, “tug‘ilish charxi” najot topadigan dunyoga qaytadi<sup>2</sup>.

## **2. Muhammad Muso al-Xorazmiyning (783-850) tabiiy-ilmiy qarashlari**

Buyuk riyozidon (matematik), astronom va jo‘g‘rofiydon (geograf) Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi.

Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar shu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug‘ildi. Muhammad al-Xorazmiy shu fanlar olimlarining peshqadami va yo‘lboshchisi edi<sup>3</sup>.

Xorazmiy dunyo faniga g‘oyat katta hissa qo‘shdi. U algebra fanining asoschisi bo‘ldi. “Algebra” so‘zining o‘zi esa uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o‘nlik pozision hisoblash tizimi va shu tizimdagи amallarning Ovro‘poda tarqalishiga sabab

<sup>1</sup> Ўша жойда. –Б.32.

<sup>2</sup> Каранг: Можед Фахрий. Сайр фалсафа дар жаҳон ислом. –Б.118. (форс тилида)

<sup>3</sup> Каранг: Ахмедов А. Мусо ал-Хоразмий. //Маънавият юлдузлари. –Б.36.

bo‘ldi. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa “algoritm” shaklida fanda abadiy o‘rnashib qoldi. Uning jo‘g‘rofiyaga doir asari esa arab tilida o‘nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning “Zij”i (yulduzlar katalogi) Ovro‘poda ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan, “o‘z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri” (J. Sarton) bo‘lgan bunday siyomoning hayoti haqida ma’lumotlar deyarli saqlanmagan<sup>1</sup>.

Xalifa al-Ma’mun davrida Bag‘dodda Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh yirik olimlar ijod qilgan. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, al-Farg‘oniy, Habash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Forobdan Abul Abbas al-Javhariy va boshqa olimlar bor edi.

Bag‘dodda al-Ma’mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz – “Bayt ul-hikma” faoliyatini har tomonlama takomillashtirib, unga yirik davlat muassasasi tusini berib, avvaliga tarjimonlik faoliyatini keng ko‘lamda rivojlantirdi. Vizantiya, Hindistondan ko‘plab kitoblar keltirilib, “Bayt ul-hikma”ning faoliyat doirasi birmuncha kengaytiriladi, uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birinchisi 828 yilda Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tog‘ida 831 yilda barpo etiladi. Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan olimlar boshqaradi.

Xorazmiy davrida “Bayt ul-hikma”da ishlagan yirik tarjimonlar orasida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Abu Zakariyo Yuhanno ibn Bitriq, Hunayn ibn Ishoq va Kusto ibn Luqo al-Ba’albakkiylar bor edi. Bag‘dodga kelgan Markaziy Osiyolik olimlar orasida mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg‘oniy (vaf. 865)ning nomini eslash lozim. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo‘ldi. Yahyo 831 yili vafot etganidan so‘ng Xorazmiy bu rasadxonani boshqaradi va u yerdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Yahyoning qalamiga mansub “Zij al-mumtahan” (“Sinalgan zij”) nomli astronomik asari ma’lum. Damashq yaqinida Kasiyun tog‘idagi rasadxonani Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy boshqaradi. U ham o‘z “Zij”ini tuzadi. Xolid yer meridianining uzunligini o‘lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Marvlik mashhur astronom va matematik Habash al-Hosib (“Hisobchi habash”) laqabi bilan ma’lum bo‘lgan Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy ham Bag‘dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan. U ikkita “zij” tuzgan bo‘lib, bular O‘rta asr astronomlari tomonidan keng foydalilanilgan. Tadqiqotchilarining

<sup>1</sup> Ахмедов А. Мусо ал-Хоразмий. //Маънавият юлдузлари. –Б.37.

ko‘rsatishicha, u tangens va kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini ham keltirgan.

Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850 yilda Bag‘dodda vafot etdi.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular “Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” algebraik asar, “Hind hisobi haqida kitob” yoki “Qo‘shish va ayrish haqida kitob” – arifmetik asar, “Kitob surat ul-arz” – geografiyaga oid asar, “Zij”, “Usturlob bilan ishslash haqida kitob”, “Usturlab yordamida azimutni aniqlash haqida”, “Kitob ar-ruhoma”, ”Kitob at-ta’rix”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola”. Bu asarlarning to‘rttasi arab tilida, bittasi Farg‘oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas<sup>1</sup>.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o‘nlik pozision hisoblash sistemasining Ovro‘poda, qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Ovro‘poga hind raqamlari arablar orqali o‘tganligi uchun ular “arab raqamlari” deb ataladi va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Ovro‘poliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini “algorizmi” deb atab keldilar. Faqat XVI asr o‘rtalaridagina bu nom “arifmetika” iborasi bilan almashтирилади. Shundan keyin to hozirgi kungacha “algorizm” yoki “algoritm” deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo‘ldi. Bu ibora bilan al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

Xorazmiyning algebraik risolasining to‘liq nomi – “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”. Risolaning nomidagi “Al-jabr” va “al-muqobala” so‘zлари “to‘ldirish” va “ro‘para qo‘yish” – o‘rta asr algebrasining ikkita assosiy amalini anglatadi. “Aljabr” so‘zi lotincha transkripsiyada “algebra” bo‘lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo‘lib qoldi. Xorazmiyning algebraik risolasi uch qismdan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo‘lim – savdo muomalasidagi bob keltiriladi; 2) geometrik qism, algebraik usul qo‘llanib o‘lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Xorazmiy uni alohida nom bilan “Vasiyatlar kitobi” deb atagan. Xorazmiy o‘z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmunni butunlay so‘z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi.

Asarning boshida Xorazmiy o‘z oldiga qo‘ygan maqsad – kompleks masalalarni aks ettirgan. Shu bilan birga Xorazmiy xalifalikda kun tartibida turgan ehtiyojlar, islom va shariat talablariga ko‘ra yuzaga keladigan masalalar, me’morchilik va irrigatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilishni ham

<sup>1</sup> Қаранг: Ахмедов А. Мусо ал-Хоразмий. //Маънавият юлдузлари. –Б.39.

ko‘zda tutganligini bildiradi. Umuman olganda, Xorazmiy algebrasi – bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish haqidagi fandir.

Xorazmiyning aytishicha, algebrada uch xil son bilan ish ko‘riladi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol) va oddiy son yoki dirham (pul birligi). Yana uning aytishicha, ildiz o‘zini o‘ziga ko‘paytiriladigan miqdordir, kvadrat esa ildizni o‘ziga ko‘paytirishda hosil bo‘lgan kattalikdir. Xorazmiy ish ko‘radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlardir. U avval risolada ko‘riladigan oltita chiziqli va kvadrat tenglamaning tasnifini keltiradi. Bundan keyin aniq misollar bilan boshqa har qanday tenglamalar risola mohiyatidagi asosiy amallar – aljabr va al-muqobala amallari yordamida olti konoik ko‘rinishga keltiriladi.

Xorazmiy asos solgan algebra fanini undan keyingi Sharq olimlari muvaffaqiyatli rivojlantirdilar.

Xorazmiyning boshqa asarlaridan farqli o‘laroq, uning algebraik risolasining uchta ko‘lyozmasi saqlangan. Ular Qobulda, Madinada va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi.

Risola 1145 yili Seviliyada (Ispaniya) Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Asarning arabcha qo‘lyozmalari va lotincha tarjimalari XIX va XX asr olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning “Zij”idir. Olim bu asarni 830 yilda yozgan.

Xorazmiyning “Zij”i 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Xorazmiy “Zij”i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o‘ziga jalgan etdi. Unga Xorazmiyning zamondoshlaridan Farg‘oniy, Al-Hoshimiyy va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayhon Beruniy bu “Zij”ni sharhlashga uchta asarini bag‘ishlagan. Fan tarixida ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007 yili ko‘chirilgan nusha diqqatga sazovordir. Bu nushani 1126 yili Adelard Bat Ispaniyada lotinchaga tarjima qildi. Xorazmiy “Zij”i hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjimaning to‘rt qo‘lyozma nushasi asosida 1914 yili X. Zuter “Zij”ning lotincha tanqidiy matnini, shu matn asosida O. Neygubauer esa 1962 yili uning inglizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida “Zij”ning to‘la ruscha va qisman o‘zbekcha tarjimalari nashrga tayyorlandi<sup>1</sup>.

Xorazmiy “Zij”ining Ovro‘po faniga ta’siri X. Zuter, K. A. Nallino va I. Yu. Krachkovskiylar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Tadqiqotchilar yakdillik bilan ta’kidlashicha, Xorazmiyning bu asari uning arifmetik va algebraik risolalari kabi bunday asarlarga ehtiyoj tug‘ilgan paytda yuzaga keladi va bu asari bilan olim astronomik asarlar yozilish uslubini standartlashtirdi, bu standart esa to

<sup>1</sup> Қаранг: Ахмедов А. Мусо ал-Хоразмий/Маънавият юлдузлари. –Б.42.

Ulug‘bek “Zij”igacha o‘z kuchini saqladi.

Xorazmiy o‘z “Zij”ida boshlang‘ich meridian sifatida, hind an’anasiga ko‘ra, Arin (hozirgi Hindistondagi Ujayn) shahridan o‘tgan meridianni tanlagan. Ovro‘poda XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g‘oyasining tarafdorlari bo‘lganlar. Arin g‘oyasiga ko‘ra, Ayyalik Petr (Fransiyadan) 1410 yili o‘zining “Er tasviri” nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487 yili chop etilgan bir nushasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o‘ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko‘ra, Arin g‘oyasi unda yerning noksimon ekanligi va yerning Aringa diametral qarama-qarshi tarafida Aringa o‘xshash joy bo‘lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Shunday qilib, Xorazmiyning “Zij”i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo‘ldi.

Akademik V.V.Bartold bu asar 836-847 yillar orasida yozilganligini aniqlagan<sup>1</sup>.

Asar 1037 yili ko‘chirilgan yagona arab nusxasida bizgacha yetib kelgan bo‘lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobda shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog‘lar, orollar va boshqa ob‘ektlar iqlimlar bo‘yicha taqsimlangan. Iqlim so‘zi aslida yunoncha klima – “og‘ish” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, uni fanga Gipparx (er. old. II asr) kiritgan. Gipparx Yerning odamlar yashaydigan qismini 12 ta iqlimga ajratgan. Undan so‘ng Ptolemey iqlimlarning sonini 8 tagacha kamaytiradi, lekin o‘z “Geografiya”sida u iqlimlar nazariyasiga to‘la rioya qilmaydi, chunki geografik joylarni mintaqalar va yeparxiyalar bo‘yicha taqsimlaydi.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to‘la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma’mur, ya’ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan farqli o‘laroq, mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki birinchi iqlimdan to yettinchi iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Xorazmiy ham Ptolemey kabi uzunliklarni Kapar orollaridan boshlab hisoblaydi. U ekvatoridan janubda 8 shahar, 1-iqlimda 64 shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 shahar, 4-iqlimda 146 shahar, 5-iqlimda 79 shahar, 6-iqlimda 63 shahar, 7-iqlimda 25 shahar va 7-iqlimdan shimolda 40 shaharning koordinatlarini keltiradi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog‘lar tavsiflanadi. Tog‘larning boshi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Xorazmiy Yaqin va O‘rta Sharqdagi hamda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog‘larni ham u yerdagi shaharlar kabi bat afsil bayon qiladi.

<sup>1</sup> Қаранг: Бартольд В.В. Введение к изданию худуд ал-алам. Сочинение: Т. 8. –М., 1973, –С. 504-545.

Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to‘rtinchi bobida orollarning qirg‘oq chiziqlari va ulardagi punktlarni, beshinchi bobda esa mamlakatlarni, oltinchi bobda daryolar va buloqlarni tavsiflaydi.

Xorazmiyning “Kitob surat ul-arz” asari ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Lekin asar shu paytgacha to‘la ravishda birorta hozirgi zamon tiliga tarjima qilinmagan. 1983 yili olimning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan bizda bu asarning o‘zbekcha tarjimasi Xorazmiyning “Tanlangan asarlar”i tarkibida chop etildi<sup>1</sup>.

Xalifa Xorun ar-Rashid 809 yili Tusda to‘satdan vafot etadi va uning vasiyatiga ko‘ra, Bag‘dodda taxtga o‘g‘li – Muhammad al-Amin nomi bilan o‘tiradi. Saroydagi xurosonlik a’yonlar esa Abdullohni taxtni qo‘lga olishga da’vat etadilar. 811 yildan 813 yilgacha aka-uka Muhammad va Abdulloh o‘rtasidagi taxt uchun olib borilgan kurash Abdullohning g‘alabasi bilan tugaydi va al-Amin qatl qilinadi. O‘sha yili Abdulloh taxtga al-Ma’mun nomi bilan o‘tiradi. Lekin u Bag‘dodga bormay 819 yilgacha Marvda yashaydi. Natijada, Marv 813 yildan 819 yilgacha xalifalikning vaqtincha poytaxti bo‘lib turadi. 819 yili al-Ma’mun butun saroy a’yonlari va ulamolari bilan birga Bag‘dodga ko‘chadi. Ular orasida al-Farg‘oniy ham bor edi<sup>2</sup>.

Abu Rayhon Beruniyning bir xabariga ko‘ra, Bag‘dod rasadxonasining ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa Xolid ibn Abdumalik va al-Farg‘oniy bilan birga ikkinchi guruh olimlar ishlaganlar. U shuningdek, al-Farg‘oniyning Suriya shimolida, Sinjor sahrosida 832-833 yillarda Tadmur va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o‘lhashda ishtirok etganini ham aytgan.

### 3. Ahmad Farg‘oning tabiiy-ilmiy qarashlari

Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi eng so‘nggi va eng aniq xabar 861 yil bilan bog‘lanadi. U shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya’ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta’mirlagan.

Ma’lumki, al-Ma’mun Marvdan Bag‘dodga nafaqat olimlarni, balki g‘ulomlari bo‘lmish turk askarlarini ham olib kelgan edi. Bag‘dodga kelishi bilan u lashkarni turklashtirdi: ana shu turk askarlaridan lashkarboshilar tayinladi. Turk g‘ulomlaridan biri buxorolik To‘lunni xalifa Suriya, Falastin va Misrdagi lashkarlarning amiri etib tayinladi. Uning o‘g‘li Ahmad esa Suriya va Misrni mustaqil deb e’lon qilib, To‘luniylar sulosasiga asos soldi. Al-Xorazmiy xalifa al-Ma’munning yaqin odami va maslahatchisi bo‘lgani kabi al-Farg‘oniy

<sup>1</sup> Каранг: Мұхаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. –Т.: Фан, 1983.

<sup>2</sup> Каранг: Аҳмад ал-Фарғоний//Маънавият юлдузлари, –Б.45.

ham To‘lunning yaqin odamlaridan biri bo‘lganligi taxmin qilinadi.

Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi ma’lumotlar juda kam bo‘lganligiga qaramay, o‘rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo‘lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq tazkirana vislari uni o‘z asarlarida eslatadilar.

Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiyligi nujum kitobi” (“Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”) XII asrda Ovro‘poda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Ovro‘po tillariga ham tarjima qilingandan so‘ng, uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida G‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning ushbu kitobi shu asrlar davomida Ovro‘po universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi. Al-Farg‘oniy asarining lotincha tarjimasini birinchi marta 1492 yilda nashr etilgan bo‘lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669 yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakub Golius al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasini bilan nashr etganidan so‘ng, al-Farg‘oniy va uning asarining Ovro‘podagi shuhrati yanada ortdi. Ovro‘po Uyg‘onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo‘lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma’ruzalarni al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Al-Farg‘oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan.

Ovro‘po olimlaridan Dalambr, Brokelman, I.Yu.Krachkovskiy, A.P.Yushkevich, X.Zuter va B.A.Rozenfeldlar al-Farg‘oniyning ijodini yuqori baholaganlar<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda al-Farg‘oniyning sakkiz asari ma’lum bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar odatda uni “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomi bilan ham atashadi – qo‘lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. “Asturlob yasash haqida kitob” – qo‘lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, “Asturlob bilan amal qilish haqida kitob” – birgina qo‘lyozmasi Rampurda (Hindiston), “Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola” – qo‘lyozmasi Qohirada, “Etti iqlimni hisoblash haqida” – qo‘lyozmalari Gotada va Qohirada, “Quyosh soatini yasash haqida kitob” – qo‘lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. “Al-Xorazmiy “Zij”ining nazariy qarashlarini asoslash” asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo‘lyozmasi topilmagan.

Al-Farg‘oniyning bu ro‘yxati boshidagi ikki asaridan boshqalari hali hech kim tomonidan o‘rganilmagan.

Iqlimlarning al-Farg‘oniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiyning usulidan

<sup>1</sup> Қаранг: Ахмедов А. Аҳмад ал-Фарғоний//Маънавият юлдузлари, –Б.47.

farq qiladi. Al-Xorazmiy o‘zining tavsiflash usulida Ptolemey an’anasiga asoslangan bo‘lsa, al-Farg‘oniy hindlarning an’anasiga asoslanib, rub’i ma’murning tavsifini eng sharqiy chekkasidan boshlaydi. Uning iqlimlar tavsifida 3, 4, 5, 6 va 7-iqlimlarning tavsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyoning va unga tutash yerlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi. Shuning uchun quyida o‘sha tavsiflarni o‘z ichiga olgan parchani keltiramiz:

“Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so‘ng Hind mamlakatidan va so‘ngra Qobul va Kerman viloyatlaridan o‘tadi.

To‘rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so‘ngra Xurosondon o‘tadiki, bunda Xo‘jand, Usrushona, Farg‘ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirota, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishapur shaharlari bor. Undan so‘ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahondan o‘tadi.

Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so‘ng Xurosonning shimolidan o‘tadi, unda Toroz shahri – savdogarlar shahri bor, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turarband (O‘tror-hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Arminiya (Armaniston) viloyati, Barda’a (Barda), Nashava (Naxchivon) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Yajuj mamlakatidan o‘tadi, so‘ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volgabo‘yi), Jurjon (Kaspiy) dengizining o‘rtasidan kesib o‘tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Yettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so‘ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo), so‘ng Jurjon dengizining shimolidan, so‘ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib, saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o‘tadi va G‘arb dengizida (Atlantika) tugaydi”<sup>1</sup>.

Keltirilgan parchadan ko‘rinadiki, al-Farg‘oniy katta kengliklardagi o‘lkalarni tavsiflagan bo‘lsa ham, o‘zining asl vatani Movarounnahri mufassalroq tavsiflagan. U Yajuj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy yerni emas, balki Hozirgi Mo‘g‘ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-sharqiga mos keladigan aniq geografik hududni aytgan.

Farg‘oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G‘arbda mashhurdir. Hozirgi kunda ko‘chalar, o‘quv yurtlariga uning nomi berilgan. 1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Farg‘oniyning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi.

Ol Buya sulolasi hukmronligi davrida “Ixvon as-safo” nomli maxfiy diniy-falsafiy anjuman Basrada faoliyat ko‘rsatdi. 52 falsafiy risola va bitta umumiylarga bag‘ishlangan kitob yozgan bu anjumanning tahrir hay’atida quyidagilar bor edi: Abu Sulaymon Bo‘stiy (Muqaddisiy nomi bilan ham mashhur), Abul Hasan Zenjoniy, Abu Ahmad Nahrjuriy (boshqa nomi

<sup>1</sup> Қаранг: Аҳмедов А. Аҳмад ал-Фарғоний//Маънавият юлдузлари, –Б.49.

Mehrjony), Aufiy va Zeyd ibn Rifo'iy. Sijistonining qayd etishicha, ular “olimlardan tashkil topgan guruh bo‘lib, birgalikda “Ixvon as-safo risolalar majmuasi”ni ta’lif etishgan. Ular bir fikrga kelganliklaridan keyin Muqaddasiy qalam bilan bitgan”<sup>1</sup>.

“Ixvon as-safo” (“Sof birodarlar”) anjumanining risolalari X asrda musulmon olamiga yoyilgan falsafiy ilmlarning doiratul ma’orifi (ensiklopediya) maqomida bo‘lib, undagi eng muhim jihat riyoziyot (matematika) va ilmi nujum (astronomiya) edi. Andaluziya munajjimi Majritiy (vaf. 1008) yoki uning shogirdi Kermoniy (vaf. 1066) bu risolalarning nushalarini boshqa yunoncha va arabcha asarlar qatorida Andaluziyaga olib kelishgan<sup>2</sup>.

Qirq to‘rtinchchi risola “Ixvon as-safo e’tiqodi va rabboniylar mazhabining bayoni” deb atalib, unda qayd etilishicha, anjuman a’zolarining birinchi darajali qiziqishi “ilohiy ilm” bo‘lgan. “Ixvon as-safo” yozgan 52 risola yangi pifagorcha va yangi aflatuncha fikrlar qorishmasidan, hamda tabiatshunoslik – matematik tushunchalardan iborat edi.

Inson badani “Ixvon as-safo” qarashlariga binoan katta olam bo‘lgan Koinotning xulosasi edi. Inson dunyoni bilishning kalidi bo‘lib, mohiyati esa uning o‘zini bilishda edi. Inson benihoyat kichik zarra bilan benihoyat katta zarra o‘rtasida o‘rtacha vaziyatda turadi. Uning tanasi unchalik katta ham, unchalik kichik ham emas. Umrining uzunligi ham shunday: qisqa ham, uzun ham emas. Uning yer kurrasida paydo bo‘lishi ham tez yoki uzoq muddatga cho‘zilmagan. Inson ma’rifati ham jaholat bilan komillik o‘rtasida turganligidadir.

“Ixvon as-safo” Pifagorga ham doim izzat-hurmat ko‘rsatib, uni “hakim” deb atadilar va uni maqtash va unga tayanishni to‘xtatmadilar. Ammo ular har qanday boshqa manbalardan foydalanishni ham davom ettirdilar. Ularning shiori shunday ediki, “hech qanday ilm manbasi inkor etilmasdan foydalanilsin va barcha diniy e’tiqodlarning ijobiylari tomonlari o‘zlari yaratayotgan ta’limotlarga kiritilsin”<sup>3</sup>.

Ular falsafa bilan imon-e’tiqod o‘rtasidagi hijobni olib tashlashga harakat qilgan edilar.

#### 4. X asrda islom falsafiy madaniyatining yoyilishi

1. *Abu Hayyon Tavhidiy*. X asr oxirlarida adabiy va falsafiy doiralarda

<sup>1</sup> //بيهقى، أبو الحسن. تاريخ حكماء الإسلام، -دمشق، ١٩٤٦.

<sup>2</sup> Каранг: //قطى، على، تاريخ الحكماء. -لابيزك، ١٩٠٣.

<sup>3</sup> //مجمال الحكمة. ترجمة رسائل أخوان الصفا. -تهران، ١٩٩٦.

mashhur bo‘lgan olimlardan biri Abu Hayyon Tavhidiy (vaf. 1023) edi. U yunon madaniyatidan yaxshi xabardor bo‘lgan Abu Sulaymon Sijistoniyning (vaf. 1000) shogirdi va do‘sti edi.

Tavhidiyning eng muhim asari “Al-imto’ val mu’onisata” bo‘lib<sup>1</sup>, xilma-xil adabiy va falsafiy mavzularda “Ming bir kecha” uslubida yozilgan. Uning o‘zi garchi falsafa sohasida mutaxassis bo‘lmasa ham, chuqur falsafiy mushohadalarga ega bo‘lgan. U o‘z zamondoshlari bo‘lgan tarjimon Ibn Zarradan tortib, faylasuf Miskaveyhga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lgan va ular bilan bahsga kirishgan. Tavhidiy nazaricha, ular molu-dunyoga xirs qo‘ygan, lazzattalab kishilar bo‘lganlar.

Abu Hayyon o‘z kitobining sakkizinch kecha voqealarida o‘zi bilan yirik mantiqshunos Abu Bishr Matto va grammatika sohasida yetuk mutaxassis va faqih Abu Said Sarofiy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan namunaviy munozarani keltiradi. Munozara 932 yilda vazir Ibn Firot huzurida bo‘lib o‘tgan. Mattoning xulosalariga ko‘ra, mantiq to‘g‘ri bilan noto‘g‘rini ajratadigan qurol (Arg‘anun)dir. Sarofiy buni inkor qilib, bunday sifatiy imtiyozga ega bo‘lgan narsa grammatika ekanligini ta’kidlaydi. Sarofiy shunday savol qo‘yadi: yunoniy manbalardan kelib chiqqan mantiq qanday qilib, turklar, hindlar yoki arab tilida gaplashuvchilarni tilni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ishlatishlaridan saqlaydi? Mattoning javobi shunday: mantiq tilda yashiringan ma’no va tushunchalar bilan ish ko‘radi va bunda qavmiy va irqiy tafovutlar ta’sir ko‘rsatmaydi. Masalan, hamma joyda ikki karra ikki to‘rtdir.

X asrda yunoniy manbalar va falsafaga qarshi taassub avj olayotgan edi. Tavhidiy o‘z kitobining o‘n yettinchi kechasi voqealarida o‘sha zamonning eng muhim nizoli mavzusi bo‘lgan falsafa bilan islomiy aqidalar aloqasiga to‘xtaydi. U qayd etadiki, “Ixvon as-safo”dan epchilroq bo‘lgan uning dushmanlari, ular erishganchalik muvaffaqiyat qozona olmadilar. Diniy aqidalar ilohiy vahiyga qarab ish tutganligi sabab faylasuf, mantiqshunos va munajjimlarning hunarlaridan beniyozdirlar.

Tavhidiy fikricha, “aql vahiyga bo‘ysunganidek, faylasuf ham payg‘ambarga bo‘ysunadi. Agar aqlning o‘zi haqiqatni kashf etishi uchun yetarli bo‘lganda, dinning mavjudligi ortiqcha bo‘lar edi. Ammo insonlarning yurish-turishlarining egalaridan biri bo‘lgan aql, ular orasida barobar taqsimlanmagan. Shuning uchun agar vahiy bo‘lmasa, insonlarning ko‘pchiligining qo‘li haqiqatga erishishga kaltalik qiladi”<sup>2</sup>.

2. *Abu Ali Miskaveyh*. Miskaveyh Iziddavla Dilamiy huzurida xazinador

<sup>1</sup> Қаранг: توحیدی، ابو حیان. الامتاع و المؤنسة. فاہرۃ، ۱۹۳۹-۱۹۴۴. تавхидий, Абу Ҳаййон. Ал-имтөъ вал мӯъонисата. –Қоҳира. 1939-1944. (араб тилида)

<sup>2</sup> Тавхидий, Абу Ҳаййон. Ал-имтөъ вал мӯъонисата. 2-жилд, 10-саҳифа. (араб тилида)

bo‘lib ishlar edi. Tavhidiy garchi Ibn Sino kabi Miskaveyhning ilmiy maqomiga unchalik qoyil qolmagan bo‘lsa ham, o‘zining boshqa bir asari “Al-havomil va al-shavovil”da<sup>1</sup> uning falsafiy qarashlari to‘g‘risida mukammal ma’lumot beradi.

Miskaveyh tarix, ilmul nafs (ruh va jon) va axloq sohasida ijod qilgan. Uning “Tajorib ul-umam” asari umumiyligi jahon tarixiga bag‘ishlangan edi<sup>2</sup>. Bu musulmon madaniyatida jahon tarixi bo‘yicha birinchi kitob hisoblanishi mumkin. Keyinchalik unga taqlid qiluvchilar paydo bo‘ldi. Miskaveyhning eng mashhur asari “Jovidone xirad” (“Abadiy donishmandlik”)<sup>3</sup> bo‘lib, yunon, fors, arab manbalaridan olingan axloqiy pand-nasihatlar majmuasi edi. Uning “Tahzib ul-axloq” (“Ahloqni tuzatish”)<sup>4</sup>, ilmul nafsga doir bir qancha risolalari ham mavjud. Qadimgi manbalarda qayd etilishicha, uning dorishunoslikka (giyohdan tayyorlanadigan dorilar) oid asarlari ham bo‘lgan<sup>5</sup>.

Miskaveyh o‘zining yirik asarlaridan biri bo‘lgan “Al-fuzul asg‘ar” kitobida<sup>6</sup> yangi aflatuncha hikmat namunalarini beradiki, vaqt jihatidan Ibn Sinoning “Najot” asaridan oldin yozilgan.

Miskaveyh aqliy ilmlarni quyidagi tartibda eslatadi: riyoziyot, mantiq, tibbiyot, moba’dul tabia (metafizika). Islomiy yangi aflatunchilik an’anasiga ko‘ra, jumladan, Forobiy va Ibn Sino asarlarida odatda mantiq boshqa aqliy ilmlarni o‘rganish muqaddimasida kelar edi.

Miskaveyh fikricha, barcha qadimgi zamon hakimlari xudoning mavjudligi va uning yagonaligiga ishonib, bu masalada payg‘ambarlar ta’limoti bilan muvofiq edilar. (Miskaveyh. Al-fuzul asg‘ar. 2-bob).

Miskaveyh aqidasicha, ashylar manbai xudovand bo‘lib, ular sodir etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu birinchi ibrido va borliq manbasidan sodir etilgan narsa birinchi aql bo‘lib, uni aqli faol (faol aql) deb ataydilar. Islomiy yangi aflatunchilar bunday nomni o‘ninchisi aqlga beradilar. Ikkinci sodir etilgan narsa – ruh, uchinchisi – falakdir. Uning fikricha, xudovand hamma narsani yashiringan yo‘qlikdan yaratgan.

Miskaveyhning axloq falsafasi tabobatga o‘xshab, yomonliklarni oldini oluvchi va ulardan tiyib turuvchilikdan tashqari, ruhni salomat saqlovchi va kuchaytiruvchi vosita vazifasini o‘tar edi.

3. *Yahyo ibn Adiy*. Yahyo ibn Adiy X asrdagi kalom va falsafiy ilmlarning

<sup>1</sup> Каранг: . ١٩٥١ // توحيدى، أبو حيان. الهمام و الشوامل. – قاهره، مسکو، ١٩٥١. – Кохира. 1951.

<sup>2</sup> Каранг: Можед Фахрий. Сайре фалсафа дар жаҳони ислом. –Б.204.

<sup>3</sup> Каранг: . ١٩٥٢ // مسکویہ، ابو علی. جاودان خرد. – قاهره، مسکو، ١٩٥٢. (араб тилида)

<sup>4</sup> Каранг: . ١٩٦٦ // مسکویہ، ابو علی. تهذیب الاخلاق. – بیروت، ١٩٦٦. (араб тилида)

<sup>5</sup> Каранг: Қифтий. Торихе хукамо. –Б.331.

<sup>6</sup> Каранг: . ١٣١٩ // مسکویہ ابو علی. الفوز الاصغار. بیروت، هـ ١٣١٩. (араб тилида)

yirik namoyandalaridan biri edi. U o‘z davrining eng yirik mantiqshunosi ham bo‘lgan.

Yahyo ibn Adiyning “Tahzib ul-axloq” asari Miskaveyhning shu nomdagi asaridan 50 yil ilgari yozilgan bo‘lib, bizgacha yetib kelgan arab tilida yozilgan axloqqa oid asar edi.

Uning bu risolasida aytishicha, insonning tabiiy tamoyili hayvoniy fitrat xususiyatiga ega bo‘lib, faqat axloqiy tarbiyagina bu tamoyilni ma’lum hududgacha bartaraf qila oladi. Agar shunday bo‘limganda axloqiy fasod shunchalik kuchli bo‘lar ediki, uni tuzatishga hech qanday umid qolmas edi.

Yahyo ibn Adiy Miskaveyh kabi asosiy axloqiy tafovutlarni ruhning bir-biri bilan kurashadigan uch quvvatidan, ya’ni shahvat quvvati, g‘azab va oqillikdan kelib chiqishini ta’kidlaydi. Agar insonda shahvat quvvati g‘alaba qilsa, u insonlikdan ko‘ra hayvonlarga o‘xshab qolib, o‘z jismidan qochadi va inonixtiyorini maishatparastlikka va tabiiy tamoyillarga berib qo‘yadi. Bunday kishi chorasiz ravishda o‘z yo‘lidan adashsa, davlatning vazifasi uni jamiyatdan uzoqlashtirib, tarbiyalashi lozim. Uni jamiyatdan uzoqlashtirishdan maqsad shundaki, mabodo u o‘zining noma’qul fe’li bilan boshqalarni ham fasodga boshlamasin. G‘azab quvvati kishida g‘alaba qilgan chog‘da, u isyonkor va tajovuzkor bo‘lib, boshqalar bilan janjal ko‘taradi<sup>1</sup>. Aql quvvati yagona kuchdirki, insonni hayvonot olamidan ajrata oladi. Har bir insonning kamoli shu quvvatgagina bog‘liqdirki, u qolgan ikki quvvatdan ustun chiqishi lozim. Bu quvvatning maxsus fazilatlari quyidagilardan iborat: ma’rifat kasb etish, shaxsiy va ijtimoiy ishlarga ma’qul keladigan munosib yo‘l tanlash, do‘stlik, yaqinlik, mehribonlik, sabr-toqat va chidam, hamda o‘rta miyonalikka intilish.

Razilliklarga bog‘liq bo‘lgan quvvat quyidagilardan iborat: firibgarlik, riyo, rashk.

Axloqiy fazilatlarni tarbiyalash barcha fazilatlarning sarchashmasidir. Shunday fazilatlarni hosil qilgan kishi o‘zidagi hayvoniy va g‘azab quvvatini mu’tadillashtirib, barcha nafsoniy quvvatlarni bir-biriga hamohang qila oladi<sup>2</sup>.

## 5. Abu Nasr Forobiyning naturfalsafasi

**Форобийнинг  
борлиқ хақидағы  
таълимоти**

Biz bilamizki, falsafadagi asosiy masala “nega borliq mavjud?” degan savoldir. Mazkur savolga beriladigan javobga qarab, falsafa tarixida turli davrlarda bir-biridan farqlanuvchi falsafiy qarashlar vujudga kelgan. Arastu bu savolga shunday javob

<sup>1</sup> Карап: // جیبی بن عدی. تهذیب الاحقق. Яхё ибн Ядий. Таҳзіб ул-ахлоқ (Ахлоқни тузатиш), –Б.15, 18. (араб тилида)

<sup>2</sup> Карап: Ўша жойда. –Б.21.

berganki, uning javobi Aflatun javobining o‘zginasi emas. Ammo, uning javobiga munosabati va aloqasi bor. Forobiyning bu masalaga bergen javobi, yunon falsafasining bu ikki buyuk namoyondasi javobidan tubdan farq qiladi.

Forobiyning fikricha, borliq xudodir va faqat ugina mohiyatlarga vujud bag‘ishlaydi. Forobiy falsafa tarixida birinchi bo‘lib mavjudotlarni ikki qismga: aqliy vujudga va mohiyatga, mohiyatlarni esa to‘qqiz javhar va oraz (aksidensiya) tushunchasiga taqsim qiladi. Vaholanki, Arastuning o‘nta kategoriyasi, vujud ma’quloti bo‘lib, mohiyat tushunchasi emas. Binobarin, bunday taqsimlash tarzi ahamiyatsiz va shunchaki bir ish emas. Uni hikmat asoslariga kiritilgan juz’iy o‘zgartirishgina deb emas, balki islom falsafasidagi asosiy masalalarga qo‘yilgan yechimlar rejasi, deb qabul qilmoq kerak. Shunga asosan endi haqiqat va sababiyat tushunchalari mutlaqo boshqacha ma’no kasb etadi. Forobiy aytganidek, haq xudodir va haqiqatning boshqa ma’nolari uning asarlarida xuddi shu ma’noda qo‘llaniladi. Zero, barcha mavjudotlar ilmi ilohiyda mavjud bo‘lib, nimaiki ilohiy qazoda bor bo‘lgan bo‘lsa, qadar darajasiga tushib qolgan, deydi u<sup>1</sup>. Xuddi shuningdek, haqni azaliy, deganda, alloma aynan mana shu ma’noga asosiy e’tiborni qaratadi. Bunga qo‘srimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, sababiyat ham uning asarlarida boshqacha ko‘rinish va talqinga ega bo‘lib, ko‘proq faollik ma’nosini kasb etadi. Bu ma’nolarning hech birini yunon faylasuflari asarlaridan topa olmaymiz. Agar diqqat bilan kuzatsak, shu narsa ma’lum bo‘ladiki, islom falsafasida yunon falsafasiga xos bo‘lmagan biror yangi masala o‘rtaga qo‘yilsa, bu faqat diniy mulohazardan kelib chiqibgina shunday qilingan, deyish mutlaqo noto‘g‘ridir. Chunki, aksariyat hollarda bunday masalalar yangi usulning zaruriyati tufayligina yangicha tarzda qo‘yilgan, xolos. Shuning uchun ham Forobiyni ma’lum ma’noda islom falsafasining muassisasi, ya’ni asoschisi, deb bilmox kerak.

Forobiy “Al-jam’e bayne royil hakimin” “Ikki hakim qarashlari o‘rtasidagi jamlanma”<sup>2</sup> kitobining muqaddimasida ushbu mulohazalarini qayd etadi: “Ko‘rdimki, zamona ahli olamning ibtidosi va uning paydo bo‘lishi, shuningdek, yaratilganlik va azaliylik masalalarida bir-birlari bilan nizo qiladilar, xohladimki, ushbu nizolarni bartaraf qilsam”<sup>3</sup>.

Forobiy bu nizolarni qanday qilib bartaraf etdi?-degan savol tug‘iladi. Haqiqat shundan iboratki, u Aflatun qarashlarini ham, Arastu fikrlarini ham isbot qilib o‘tirmadi, balki ularning har ikkisi qarashlarini o‘z falsafasi asosida tafsir qildi. Uning bu tafsiri faqat ilohiy bilim bilangina chegaralanmaydi, balki

<sup>1</sup> Каранг: Ризо Доварий Ардаконий. Форобий – муассис фалсафайе исломи. –Б.123-124 (форс тилида).

<sup>2</sup> Каранг: فارابی، ابو نصر. الجمع بين الرأي الحکمین. – بیروت، ۱۹۶۰ // Форобий, Абу Наср. Икки ҳаким қарашлари ўргасидаги жамланма. –Байрут. 1960 (араб тилида)

<sup>3</sup> Ризо Доварий Ардаконий. Форобий – ислом фалсафаси муассиси. –Б.133 (форс тилида).

falsafaning barcha tarkibiy qismlarini ham qamrab oladi.

**Форобийнинг  
билиш назарияси  
ва мантиғи** Forobiy fikricha, bilishning quroli: nutq, tasavvur va hisdan iborat. Narsalar to‘g‘risidagi bilim nutq quvvati orqali, tasavvur va his-tuyg‘u vositasida hosil bo‘ladi. Har vaqt bilim hosil qilishga iroda ko‘rsatilsa, uning idroki nutq quvvatining sha’nidir. Nutq vositasida kelib chiqqan ilm o‘z e’tibori bilan his-tuyg‘u uyg‘otuvchi ishlarni bayon etadi. Demak, ilm hissiy quvvat natijasida kelib chiqadi. Ilm mavzusining tasavvurga taalluqligi, tasavvur esa o‘z navbatida orzu tug‘dirishi va his-tuyg‘uga boshqacha tasavvurlarning kirib kelishi nutq quvvatining hosilalaridir. Shunga binoan tasavvuriy ma’rifatning mavzusi eng yuqori zotlarning vujud bosqichlaridan tortib to mavjud bo‘lmagan yolg‘on narsalarni ham o‘z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan avvaldan vujudga kelgan narsalar ikki xil: 1) his-tuyg‘u bilan bilinadigan narsalar; 2) isbot va dalil orqali bilinadigan narsalar<sup>1</sup>.

Tasavvuriy ma’rifat borliqdagi barcha mavjudotlarga taalluqli bo‘lganligidan tasavvur orqali hosil qilingan ilm ham xuddi dalil va isbot vositasida hosil qilingan mavjudotlar kabi bilib olinishi, ya’ni his-tuyg‘u uyg‘otadigan bilimlarni ham tasavvuriy ma’rifat jumlasidan deb hisoblash mumkin.

Vahiy agarchi hamma narsa to‘g‘risidagi mavhum ma’rifat bo‘lib, moddadan ajratilgan bo‘lsa ham, ilohiy ilmlar jumlasidan hisoblanadi.

Vahiy – mavjud ashyolarning qandayligidan qat’iy nazar ularning qaysilari foydali va qaysilari zararli ekanligini aniqlashdir. Vahiy ilohiy ilhomdir.

Faol aqlning ruh fazosiga qo‘yan birinchi qadami tushdir. Ammo tasavvuriy quvvatning o‘z nihoyasiga yetishi tushda ko‘rgan voqeа va hodisalar bilan chegaralanmaydi. Faol aql uyqu vaqtida tasavvurga kirganidek, bedorlikda ham o‘z holatini saqlaydi. Faol aql fayzining mahsuli “ko‘rish”dir, ya’ni nutq quvvati nimaniki dalil asosida “qabul qilsa”, tasavvuriy quvvat uni “ko‘radi”.

Tasavvuriy quvvat nutq quvvatining “o‘rinxbosaridir”. Aql va tasavvur faol aql fayzi vositasida shahar raisiga sof va xolis, shu bilan birga ajoyib ma’rifat majmuasini taqdim etadiki, u bu orqali osmoniy belgilarni ko‘radi va tushuna oladi. Natijada Fozil shahar raisi bu ko‘rganlarini yerga tushirib, shahar hayotiga tadbiq etishga kirishadi<sup>2</sup>.

Forobiy fikricha, inson o‘zining tabiiy holatida kamchilikka ham, kamolotga ham ega emas. Bu yerda Forobiyning mazkur xulosasidan kelib chiqadigan o‘ta muhim narsa shundaki, u fazilatni “bir yaxshi amal” ma’nosida ta’riflamaydi. Uning fikricha, fazilat xayrli amalning inson ruhidagi “in’ikosi” va “natijasi” bo‘lgan ruhiy vakillikdirki, yaxshi odatlar, xayrli ishlar va sharafli xatti-

<sup>1</sup> Каранг: Ризо Доварий Ардаконий. Форобий – ислом фалсафаси муассиси. –Б.117.

<sup>2</sup> Каранг: Форобий. Фазилат, баҳт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи. 2002. –Б.25-26.

harakatlarning takrorlanishi ta'sirida kelib chiqadi. Xuddi shuningdek, razolat va kamchiliklar ham ruhda o'z izini qoldiradigan yomon amallar va ko'ngilsiz ishlarning takrorlanishi oqibatida kelib chiqqanlar. Uning fikricha, barcha fazilatlarning maqsadi ruhiy xayrixohlikdir. Forobiyning dalili shundaki, modomiki, barcha ruhiy quvvatlar xayrda to'planar ekan, ular orasidagi ixtilof va qarama-qarshiliklarga o'rinn qolmaydi. Ammo ular o'rtasidagi osoyishtalik qachonki buzilsa, ruhda sharr, yomonlik va buzg'unchilik alomatlarini axtarib topish kerak bo'ladi. Demak, Forobiy fikricha, baxt-saodat laziz va razolatli narsalardan o'zini tiyish evaziga inson uchun berilgan mukofot emas, balki, ulardan qutulishning natijasi va oqibatidir.

Shunday qilib, fazilat va baxt-saodat o'rtasidagi sabab va oqibat nisbati dalilidan Forobiy shunday natija chiqaradiki, baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan amal bo'lmasdan, balki uning o'z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiy holatdir.

Forobiy yashagan vaqtida zaruriyat yoki zo'rlik haqidagi nazariya ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hisoblanar edi. Forobiy shu vaqtgacha qo'llanilmagan "ixtiyor" istilohini ilmiy adabiyotga olib kirish bilan, insonning iroda erkinligi uning taqdiriga ta'sir etishi mumkinligi masalasini o'rtaga tashlab, haqiqatda keng yoyilgan nazariyaga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. U bunday fikrni yoyish bilan, kishilarni shunga da'vat etdiki, inson tabiiy, irsiy, sinfiy to'siqlarga qaramasdan o'z bilganicha, o'zini qaytadan shakllantirishi va siyosiy nuqtai nazardan ham madaniy jamiyatning "etuk" va "barkamol" a'zosi bo'lishi mumkin.

Forobiy inson mohiyatini tarbiyalashni uzoq muddat davom etadigan yaxshi amal, deb bildi. Uning fikricha, har qanday yaxshi axloq, agar zehnda takroran joyhana bersa, uning natijasida inson ongingin quvvati va fazilati orta boradi.

Madaniy jamiyatning sifati mohiyatan iroda va ixtiyorda bo'lganligidan jamiyat boshlig'inining vazifasi ushbu irodani xayr (yaxshilik) tomon yo'naltirishdir.

Forobiy fikricha, siyosat tabobat sifatidagi narsa bo'lib, jarrohlik yo'li bilan bo'lsa ham davolanishi zarur bo'lgan fuqarolarning dardiga malham qo'yishdir. Tabibning maqsadi bemorning dardini davolash bo'lganidek, fozil siyosatning ham oxirgi maqsadi jarohatlarga malham qo'yish, singan suyaklarni payvandlash singari aholining farovonligini ko'tarish orqali uning ruhini va salomatligini yaxshilashdir.

Forobiy axloqiy fazilatlarni ruh uchun badan salomatligidek narsa, deb tushungan. Demak, sihat-salomatlilikni tiklash uchun inson tabibga ehtiyoj sezganidek, bemor insonning ruhi uchun ham tabib zarurdirki, uni holatini davolay olsin. Shundan kelib chiqadiki, qonuniy hukumat raisining bo'lishi

jamiyat uchun isbot qilingan zaruriyatdir.

Forobiyning fozil shahar to‘g‘risidagi o‘z nazariyasini taklif qilishdan maqsadi, barcha insonlarga baxt-saodat va kamolotga erishish yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat edi.

## 6. Abu Ali ibn Sinoning naturfalsafasi

*Abu Ali ibn Sino.* Agar Forobiy islomiy yangi aflatunchilik falsafasining assoschisi va uning G‘arbdagi oxirgi namoyandasini Prokldan keyingi eng buyuk faylasuf bo‘lsa, bu falsafani ham Sharqda, ham G‘arbda himoya qilgan shaxs Abu Ali Husayn ibn Sinodir (980-1037). XIII asrda lotin tilida qalam tebratgan mualliflar uni Avisenna, deb atashgan. U islomda yangi aflatuncha falsafani yuqori darajaga ko‘targan edi. XII va XIII asrning mashhur olimlari bo‘lgan “Millal va nihal” (“Millatlar va mazhablar”) muallifi Shahristoniy (vaf. 1153 y.), mutakallim Faxriddin Roziy (vaf. 1209 y. ) va Nasriddin Tusiy (vaf. 1273 y.)lar Ibn Sino asarlariga sharh va tafsirlar yozishgan.

Ibn Sino islomiy falsafa madaniyatini boyitib ham arab, ham fors tillarida asarlar yozgan. Uning “Donishnoma”si fors tilida yozilgan birinchi mashhur falsafiy asardir.

Dominikan ordenining ruhoniysi Jorj Qanavotiy o‘z tazkirasida Ibn Sino asarlarining 274 nomdagi ro‘yxatini keltirgan.

Ibn Sinoning eng katta falsafiy asari “Kitob ash-shifo” bo‘lib, islomiy va yunoniy ilmlardan tortib, mantiq va riyoziyotni ham o‘z ichiga olgan. Uning boshqa yirik asari “Kitob al-ishorat va tanbihot” talabalar orasida “Kitob ash-shifo” dan ko‘ra, katta e’tiborga sazovor bo‘lgan edi. Ushbu kitob uning umrining oxirlarida yozilganligi tufayli, mustaqil fikrlar bayonidir.

Ibn Sino tafakkuri shakllanishida ikki omil muhim o‘rin tutgan: birinchisi “Ixvon as-safo” falsafiy anjumanining risolalari, ikkinchisi Abu Nasr Forobiy asarlari. XII asr tarixchisi Bayhaqiyning yozishicha, Ibn Sino otasi kabi “Ixvon as-safo” risolalarini qayta-qayta o‘qir edi<sup>1</sup>. U bir necha irfoniy risoladar yozib, ularni “Sharq falsafasi” yoki “ishroq” deb atagan.

Ibn Sino Forobiy kabi Arastu-Ptolemy dunyoqarashlariga asoslangan yangi aflatuncha qarashlar tizimini vujudga keltirgan. U dunyoning ilohiy sudur bosqichlaridan kelib chiqqanligini isbotlashga urinadi. Ibn Sino o‘zining “Kitob ash-shifo” asarini mantiq ilmining qisqacha bayonidan boshlab, unga Arastu, yangi aflatuncha va ravvoqiyalar qarashlarini qo‘shtiradi.

Ibn Sinoning harakat, sokinlik, zamon, makon, bo‘shliq, cheksiz va

<sup>1</sup> ١ بِيْهَقِيُّ، ابُو الْحَسْنِ مُنْتَخِبُ صَوَالِ الْحَكْمَةِ، نَسْخَةُ خَطِيِّ بُوْدَلِيَانِ. Каранг: Байҳақий, Абул Ҳасан. Сувонул ҳикма. 40-саҳифа. (араб тилида)

cheklanganlik haqidagi fikrlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uch katta bo‘limdan tashkil topgan – metafizika, fizika, logika-mantiqda o‘z aksini topgan bo‘lib, metafizika – ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi, tarkibi haqidagi masalalarni talqin etadi; fizika-tabiatshunoslik masalalari, jism, moddani o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni o‘z ichiga oladi; mantiq to‘g‘ri fikrlash san’ati, aqliy bilish shakllarini o‘rganadi. Umumiy falsafiy masalalar nazariy va amaliyga bo‘linib, o‘z navbatida, ularning har biri qator ilmlarni o‘z ichiga oladi.

Vujud, mavjudot tarkibi, ilmlar tasnifi Ibn Sinoning borliq, mavjudot haqidagi ontologik ta’limotini Forobiy ta’limotining davomi, rivoji deb ta’riflash mumkin.

Ibn Sino vujudni ikkiga: zaruriy vujud-vojib ul-vujud va mumkin ul-vujud – vujudi mumkinga ajratadi. Zaruriy vujud hamma mavjud narsalarning boshlang‘ichi – birinchi sababi – ya’ni Allohdir, undan kelib chiquvchi boshqa borliq narsalar vujudi mumkindir<sup>1</sup>.

Birinchi yagona vujuddan kelib chiquvchi vujudlar, mavjud borliqning turli tuman shakllari, boshlang‘ich yagona vujudning ifodalanishidir. Asta-sekin kelib chiquvchi borliq shakllari, ya’ni so‘nggi vujudlar sabab-oqibat munosabati shaklida o‘zaro bog‘liqdir. Birinchi vujudning xislatlari undan kelib chiquvchi barcha vujudlarga o‘tib boradi. Vujud haqidagi fikrlar, mavjudot shakllarining o‘zaro bog‘lanishi, emanatsiya Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining metafizika bo‘limida har tomonlama bayon etilgan.

Ibn Sino vujudi mumkinni javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya)ga ajratadi. Javhar turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u sodda va murakkabdir. Sodda javhar boshlang‘ich unsurlar – olov, havo, suv, yerdan iborat, shuningdek, modda va shaklning birligidan tashkil topib tabiat, o‘simlik, hayvonot, inson shaklida mavjuddir<sup>2</sup>.

Falsafa fanini Ibn Sino ikki katta bo‘limga ajratadi:

1) Nazariy falsafa – metafizika (oliy fan), matematika (o‘rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan)dan iboratdir.

2) Amaliy falsafa – siyosat, huquq, uy ishlarini o‘rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya’ni etikadan tashkil topadi.

Metafizika oliy ilm sifatida mutlaq vujudni o‘rganish, yaratuvchini bilishni o‘z ichiga oladi. Falsafa fanini ifodalashda Ibn Sino Arastuga asoslanadi.

<sup>1</sup> Қаранг: Хайруллаев М.М. Абу Али ибн Синонинг илмий-фалсафий ва ижтимоий карашлари. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавхалар. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б.63.

<sup>2</sup> Қаранг: Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.:Фан, 1976. –С.351.

Matematika miqdoriy munosabatlarni – o‘lchov va sonlarni o‘rganadi. U turli tarmoqlarga, chunonchi, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, optika, mexanika, osmon jismlari harakatini ilmiy asbob-uskunalarni o‘rganuvchi fan kabi tarmoqlarga ega. Tibbiyat, astrologiya, fiziognomika, kimyo kabi ilmlar ham tabiatshunoslikka kiradi.

Ibn Sino o‘zining “Ishorat va tanbihot” asarida shunday ta’kidlaydi: “Inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo‘libgina ularni qondira olishi mumkin”<sup>1</sup>. Buning uchun barcha jamoa a’zolarini birlashtirib turuvchi huquqiy qonunlar zarur bo‘ladi. Jamoaning barcha a’zolari foydali mehnat bilan shug‘ullanmoqlari zarur. U insonlarning jamiyatdagi o‘rni va vazifalariga qarab 3 guruhga ajratadi:

A) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar;

B) bevosita xom ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lganlar;

V) davlatni qo‘riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta’minlovchi harbiylar.

Jamiyatning bu guruhlari o‘zaro bir-birlariga bog‘liq va har doim muloqotda bo‘ladilar, bir-birlarisiz yashay olmaydilar.

Ibn Sino o‘zining “Risolatu tadbiri manzil” asarida shunday yozadi: “Odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o‘zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababidir”<sup>2</sup>.

Ibn Sino yana boshqa bir asarida shunday yozadi: “O‘zaro bog‘liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun insonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv zarur bo‘lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o‘rnatalidi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart bo‘lgan majburiyat tusini beradi. Shuningdek, u yomon ishlarni qiluvchilarni ham, yaxshi ishlarni ro‘yobga chiqaruvchilarga ham baho berishi zarur. Buning uchun oliy qonunshunos va qozini tan olish zarurki, insonlar o‘z faoliyatlarida ularning hukmlaridan foydalansinlar”<sup>3</sup>.

Demak, har qanday jamiyat, davlat ma’lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak. Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishida islomdagi demokratik oqimlar o‘z ta’sirini o‘tqazgan.

<sup>1</sup> ابن سينا. الاشارات و التبيهات. – قاهره، ١٩٥٧-٦٠. – Б.54. (араб тилида)

<sup>2</sup> Каранг: Раховский Б.Э. Философское наследие Ибн Сины (Ибн Синонинг фалсафий мероси).//Вопросы философии. –№5. –М., 1955.

<sup>3</sup> Ўша жойда.

## **7. Abu Abdulloh Xorazmiyning falsafiy qarashlari (X asr)**

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf Xorazmiy ijodi kam o‘rganilgan mutafakkirdir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o‘tgan. U Xuroson shaharlarida ham ta’lim olgan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo‘lib xizmat qilgan davrida cho‘qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u “al-kitob al-Xorazmiy” nomi bilan tanilgan<sup>1</sup>. Abu Abdulloh o‘z xizmat vazifasi yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va u yerdagi ko‘pgina olimlar bilan hamsuhbat bo‘lgan. Ilimga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997 yilda vafot etgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning dunyoqarashi o‘sha davrda keng tarqalgan mantiqiy tafakkur namoyandalari Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Bakr ar-Roziy ta’siri ostida shakllangan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha faqat yagona asari – “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”) yetib kelgan. “Mafotih al-ulum”ning qo‘lyozma nushalari chet ellardadir. Yaqin-yaqingacha uning to‘rt nushasi bor deb hisoblanar edi. Ana shu to‘rt nushadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida 7528, 23429 va 2524 raqamlari, hamda Berlin kutubxonasida 1051 raqami ostida saqlanadi. Amerikalik olim K. Bosvort XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nushasini Turkiya kutubxonasida borligini aniqlagan. Barcha olti nusha Istambul shahridagi kutubxonalardadir.

“Mafotih al-ulum”ni birinchi bo‘lib o‘rgangan va 1895 yilda nashr etgan olim – gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir. Shuningdek, I.Yu.Krachkovskiy, V.V.Bartold, K.Brokelman, E.Videman, D.Sarton, M.M.Xayrullaev, U.Karimov, G.P.Matvievskaya, H.Hasanov, M.Ziyovuddinova<sup>2</sup>, A.Sharipovlar ham asrning turli tomonlarini tadqiq etganlar. “Mafotih al-ulum” o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, o‘sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Olim barcha fanlarni ikkiga – “arab ilmlari” va “arab bo‘lmagan ilmlar”ga ajratadi.

Uning birinchi an’anaviy “arab ilmlari” qismi o‘n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o‘n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish, besh bobdan iborat she’r va aruz hamda to‘qqiz bobdan iborat tarixdan tashkil topgan.

Ikkinci qismiga esa “arab bo‘lmagan” quyidagi ilmlar kiritilgan:

<sup>1</sup> Қаранг: Баходиров О.М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий. //Маънавият юлдузлари. –Б.82.

<sup>2</sup> Қаранг: Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг “Мафотих ал-улум” асарида поэтика. –Т., 2001.

Ular – uch bobdan iborat falsafa, to‘qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tibb, besh bobdan iborat arifmetika, to‘rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to‘rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyo.

Shunday qilib, asar ikki qismidan iborat bo‘lib, unda o‘n besh ilm (predmet) to‘qson uch bobda bayon etilgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

I. *Shariat va u bilan bog‘liq “arab” ilmlari.*

1. Fiqh, ya’ni musulmon huquqshunosligi.
2. Kalom, ya’ni dinning mantiqiy asoslari.
3. Grammatika.
4. Ish yurgizish.
5. She’riyat va aruz.
6. Tarix.

II. *“Arab bo‘lmagan” ilmlar (yunon va boshqa xalqlar)*

1. Nazariy falsafa:

- a) quyi ilmlar hisoblangan tabiatshunoslik – tibbiyot (tibb), samoviy hodisalar – meterologiya, mineralogiya, alkimyo, mexanika;
- b) o‘rtancha ilmlar hisoblangan riyoziyot (grammatika, handasa, ilm an-nujum, musiqa);
- v) oliv ilm hisoblangan ilohiyot, ya’ni metafizika;
- g) mantiq.

2. Amaliy falsafa:

- a) axloq – etika (ta’lim-tarbiya, odamni boshqarish);
- b) manzil tadbirlari (uy xo‘jaligini boshqarish);
- v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish).

An’anaviy arab ilmlari. Shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom huquqshunsligining asosi bo‘lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur’on, payg‘ambar so‘zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini eks ettiruvchi sunnat, hadis va uning xillari; ijmo’ – islom jamoasining yakdillik bilan qabul qilgan qarori, shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya’ni tahorat qilish, namoz o‘qish, azon aytish, ro‘za tutish, zakot to‘lash ustida to‘xtab o‘tgan.

Ikkinchi bo‘lim kalomda mazhablarning yettiga bo‘lib bayon etilishi, ayniqsa, mu’taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga ega. Unda islomgacha bo‘lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e’tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba’zi dualistik oqimlar hamda zardushtiylik bayon etilgan. Bu ma’lumotlar Yaqin va O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dirlari tarixini o‘rganishda g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Ish yurgizish bo‘limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq

yig‘uvchilarning vazifalari, askarlar ro‘yxati, ularning kiyim-kechagi va to‘lanadigan maoshlari, kanal xillari, suv uskunlari, ikki daryo (Sirdaryo va Amudaryo) oralig‘idagi sug‘orish tizimlari haqidagi ma’lumotlarni yoritib bergenligi bilan muhim edi.

Asarning tarix bo‘limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakat hukmronlari; Ummaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo‘lgan davrdagi Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma’lumotlar keltirilgan.

“Arab bo‘lmaq” ilmlar qatorida birinchi bo‘lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

## **8. Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) naturfalsafasi**

Markaziy Osiyo va butun Yaqin va O‘rta Sharqda tabiiy-ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkur taraqqiyotiga Abu Nasr Forobiyyidan keyin Ibn Sino bilan bir davrda Abu Rayhon Ahmad Beruniy (973-1048) katta ta’sir ko‘rsatdi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy ishlarining serqirraligi, fikriy parvozining yuksakligi bilan kishini hayratda qoldiradigan buyuk dahodir. U bir yuz ellikdan ortiq asar yozgan o‘rta asrning ulug‘ allomasi (ensiklopedisti)dir.

Abu Rayhon Beruniy hijriy 362 (mil. 973) yilning 2-zulhijja oyida Xorazmning ilk markazi Kat (Qiyot) shahri atrofida dunyoga keldi. U o‘z tug‘ilgan maskanida yaxshi ta’lim oldi, ilk yoshligidan ilmiy ishlarga berilib ketdi. O‘sha paytda Xorazmda yuz bergan siyosiy tanglik sababli o‘z vatanini tark etdi va, taxminan, 998 yildan to 1004 yillar mobaynida Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy chekkasidagi Jo‘rjon (Gurgon)da yashadi. Shu yillari o‘zining yirik asari – “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobini yaratdi. Bu kitobning rus tiliga qilingan tarjimasi 1957 yili va o‘zbek tilidagi tarjimasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyotida alohida-alohida kitob bo‘lib, bosilib chiqdi.

1005 yili Beruniy Xorazmga qaytib keldi va Xorazmshoh Abu Abbas Ma’mun (1009-1017) saroyida hurmatli martabani egalladi. 1017 yili Mahmud G‘aznaviy (998-1030) Xorazmni o‘ziga bo‘ysundirgach, Beruniy boshqa olimlar qatori poytaxt G‘aznaga olib ketildi va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashadi<sup>1</sup>.

G‘aznada Beruniy ilmiy ishlarga berilib ketdi. Sulton qo‘sishnlari bilan birga u bir necha bor Hindistonda ham bo‘ldi. Shu paytlarda bu o‘lkani atroflicha o‘rganishga kirishdi, natijada, 1030 yili Hindiston haqida ajoyib asar – “Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi”

<sup>1</sup> Қаранг: Шарипов А. Берунийнинг табиий-илмий ва фалсафий қарашлари. –Т.: Фан, 1972.

(qisqacha “Mo‘lanhind” – “Hindiston”)ni<sup>1</sup> yaratdi (Bu asar 1963 yilda rus tilida “Fan” nashriyotida nashr etildi). Bundan oldinroq, 1025 yili esa “Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning chegaralarini aniqlash” (qisqacha “Geodeziya”)<sup>2</sup> asarini yozib tugatgan edi.

Mahmudning vorisi sulton Mas’udga (1030-1041) Beruniy o‘zining matematika va astronomiyaga oid eng yirik asari – “Qonuni Mas’udiy”ni bag‘ishladi. Undan keyingi sulton Mavdud (1041-1048) davrida Beruniy mineralogiyaga oid asari – “Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami” (qisqacha “Mineralogiya”)<sup>3</sup>ni, umrining oxirida esa “Dorivor o‘simpliklar haqida kitob” (qisqacha “Saydana”)<sup>4</sup> asarini yozdi.

Beruniy hijriy 440 yilning 2-rajabida (mil. 1048 yil, 11 dekabr) G‘aznada vafot etdi.

Beruniy o‘z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo‘lib, bu uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muhim omillardan hisoblangan.

Beruniy borliq dunyo yaratilganmi yoki yo‘qmi, degan savollarga dunyo yaratilgan, deb javob beradi. Uning qarashlarida namoyon bo‘lgan ikki qaramaqarshi g‘oyalar, ya’ni bir tomondan, dunyoning yaratilganligini inkor eta olmaslik, ikkinchi tomondan esa, tabiatni mustaqil deb bilish, Beruniyning tabiatshunos sifatida dunyoni va tabiatni tushunishda ma’lum darajada deistik (xudo dunyoni yaratib qo‘yib, boshqa uning ishlariga aralashmaydi) yo‘nalishga moyilligini ko‘rsatadi. Xudo dunyoni butunligicha yaratadi va unga azaldan ma’lum qonunlarni beradi. Ana shu qonunlar tufayli tabiiy kuch, ya’ni tabiat harakat qiladi. Lekin keyinchalik Beruniy hatto deizm qobig‘ining torligini sezadi va moddiy dunyoning abadiy mavjudligini tan olishni zarurligini his etadi. Bu fikrning isbotini u Qur’ondan ham topadi. O‘sha davrdagi tabiatshunoslik fanida erishilgan yutuqlar uni Arastuning tabiat falsafasiga tanqidiy yondoshishga, shuningdek, uning zaif tomonlarini farqiga borishga olib kelgan. Bu uning Ibn Sino bilan yozishmasida o‘z ifodasini topgan. Ularning bu yozishmlari asosan Arastuning “Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo‘yicha olib borilgan.

Bu yozishmada Ibn Sino Arastuning tabiat falsafasini himoya qilgan. Beruniy esa Ibn Sinoga e’tiroz bildirgan. Ularning bahsi asosan Arastu tabiat falsafasining muhim masalalaridan biri – jismlarning cheksiz bo‘linishi bo‘yicha bo‘lgan. Bu borada Beruniyning Ibn Sinoga qarshi chiqqanligini ko‘rgan ayrim mualliflar uni Demokrit atomizmining tarafdoi degan xulosaga kelganlar. Lekin

<sup>1</sup> Қаранг: Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон. –Т.: Фан, 1965.

<sup>2</sup> Қаранг: Абу Райхон Беруний. Геодезия. –Т.: Фан, 1966 (рус тилида)

<sup>3</sup> Абу Райхон Беруний. Минералогия. –Т.: Фан, 1967.

<sup>4</sup> Абу Райхон Беруний. Доривор ўсимликлар хакида китоб (Сайдана). –Т.: Фан, 1968.

Beruniy bu masalaga birmuncha jiddiyroq qaragan. U bo‘linish muammosini hal etishda shunday yo‘lni topishga harakat qiladiki, ikki ta’limot – atomistik va cheksiz bo‘linishning o‘ziga xos qarama-qarshiliklarini va cheklanishlarini bartaraf etishga intiladi.

Beruniy atomistik nazariyasini Demokrit atomistik nazariyasidan farqi shundaki, Abu Rayhon bo‘shliqni inkor etsa, Demokrit bo‘shliq – dunyoning zaruriy ajralmas qismi, deb hisoblaydi.

Beruniy Arastuni tanqid qilishda dastavval tajribaga murojaat etadi. Uning bu yo‘li Arastuning kuzatuvchilik usuliga qarshi qaratilgan edi. Shunday qilib, Beruniy jismlarning cheksiz bo‘linuvchanligini tan olish va bo‘linmas zarrachalar to‘g‘risidagi atomistik ta’limotning cheklanganligini ko‘rsatishga intiladiyu, biroq bu muammoni to‘liq hal qila olmaydi. Shunga qaramay, masalaning bunday qo‘yilishining o‘zi ham mutafakkirning katta yutug‘i bo‘lgan.

#### **Берунийнинг билиш назарияси**

Beruniy barcha unsurlar, shuningdek, og‘irroq unsurlar- ning boshqa unsurlardan oldin markazga intilishi to‘g‘risida gapirib, “Hamma unsurlar markazga qarab intiladi, lekin vazminroqlari boshqa unsurlardan o‘zib ketadi”<sup>1</sup>, deb ta’kidlaydi. Beruniy “Hindiston” asarida unsurlarning Yerga oddiy intilishi to‘g‘risida emas, balki barcha og‘irliliklarning Yer markaziga tortilishi haqida fikr yuritadi. Beruniyning Ibn Sinoga bildirgan e’tirozlarida muhitning og‘irligini e’tirof etishi bu fazo jismlari bilan Yer o‘rtasidagi tortilish kuchlari borligini tan oladigan fikrga yaqinlashganligini ko‘rsatadi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to‘g‘risidagi tahmini uning falsafiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Beruniy boshqa dunyo haqida fikr yuritar ekan, boshqa moddiy dunyo ehtimol bizning dunyomiz singari tabiiy xususiyatga ega bo‘lib, “harakat yo‘nalishlari esa, bizning dunyomizdagi harakat yo‘nalishlaridan farq qiladi”, deydi<sup>2</sup>.

Buyuk tabiatshunos Beruniy o‘zining salaflari, xususan, Ahmad Farg‘oniy va Muhammad Xorazmiy ishlab chiqqan bilishning ilmiy usulini rivojlantirib, yanada chuqurlashtirdi. Uning aytishicha, “Kuzatishning ko‘pligi ko‘rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi”. Beruniy o‘zining o‘gitida: “Biliming shundayki, u yalang‘och bo‘lsang ham o‘zingda qoladi, uni hammomga kirganingdagi xo‘llik ham yo‘qota olmaydi”, -deydi. Beruniy inson xotirasini “Allohning tuhfasi”, deb hisoblaydi. U “tirishqoqlik va ko‘p shug‘ullanish bilan ham xotirani mustahkamlash mumkin”<sup>3</sup>, -deydi.

<sup>1</sup> Шарипов А. Малоизвестные страницы переписки между Беруни и Ибн Синой //Общественные науки в Узбекистане, –№ 5. 1965, –С.39.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

<sup>3</sup> Ўша жойда.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rtal Sharqda tajribaga tayanuvchi fanlarning asoschilaridan bo‘lgan Beruniy tabiat hodisalarini bilishdagi nazariy-mantiqiy xulosa, qiyoslashning ahamiyatini benihoya katta ekanligini uqtirib o‘tadi. Beruniy tarixiy hodisa va voqealar haqiqatini bilishga taalluqli hamma masalalarni har taraflama o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi va bu bilan noto‘g‘ri yo‘lga tushib qolishdan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. U shunday yozadi:

“Xabar ko‘z bilan ko‘rgandek bo‘lmaydi, degan kishining so‘zi juda to‘g‘ridir. Chunki ko‘rish ko‘ringan narsaning o‘zi bor paytida va o‘z joyida turganida qarovchi ko‘zining uni uchratishdan iboratdir. Xabarga yolg‘on-yashiqlar qo‘silmaganda, u ko‘rishga nisbatan ortiqroq o‘rinda turgan bo‘lar edi. Chunki ko‘rish va qarash shu payt, shu on bilan cheklanadi. Xabar esa narsaning ko‘ringan payti va vaqtdan ilgari o‘tgan va keyin keladigan hollaridan darak beradi; ana shuning uchun xabar mavjud narsalardan ham, kelajak narsalardan ham darak beraveradi. Yozish xabar turlarining biri bo‘lib, uni boshqa turlardan ko‘ra afzalroq hisoblash mumkin; qalamning mangu yodgorliklari bo‘limganda, xalqlarning tarixini qanday bilar edik?!

So‘ngra, odatda bo‘lgan hol haqida berilgan xabar bir xil emas, balki (farqsiz) rost va yolg‘on bo‘lishi mumkin”<sup>1</sup>.

Beruniy yolg‘on xabarlarning muayyan va umumiy ildizlarini ochib tashlaydi. U bularni ma’lum guruh kishilarining manfaatlarini qarama-qarshiligida ko‘radi. Uningcha, chinakam jasorat, qahramonlik so‘zdamni yo amaldami, har ikki holatda ham yolg‘onga qarshi kurashda o‘limni ham pisand qilmaslikda namoyon bo‘ladi. “Yolg‘onchilikdan chetlanib, rostgo‘ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg‘onchining o‘zi ham sevib maqtaydi. Axir, o‘z zararingizga bo‘lsa ham, rost gapiring deyilganku”<sup>2</sup>, deb yozadi u.

Kuzatish, ko‘rish, tajribalar qilish, mantiqiy umumlashmalar chiqarish, ma’lumotlarni to‘plash, xalq og‘zaki ijodi, yozma yodgorliklarni o‘rganish, barcha xabar, manbalarga tanqidiy qarash haqiqatni aniqlash uchun ularni bir-biri bilan taqqoslab ko‘rish, til qurilishini, yozuvlarni o‘rganish – bular hammasi o‘rtalarning buyuk qomuschisi Abu Rayhon Beruniy ilmiy usulining asosini tashkil etadi.

## **8. Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Xojiblarning dunyoqarashlari (XI-XII asrlar)**

Ahmad Yugnakiy nomiga “Adib” so‘zi qo‘sib aytilishi ma’lum sababga ega. U o‘zini shoir emas, balki adab ilmi namoyandasini deb biladi. Uning dostoni ham turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, ma’naviy-axloqiy kamolot sirlaridan

<sup>1</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2-жилд, –Т.: Фан, 1965. –Б.25.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

ta’lim berishga mo‘ljallangan. Buni undagi bob sarlavhalaridan ham anglash mumkin. Birinchi bob (annav’ul-avval) – “Ilm manfaati va jaholatning zarari haqida” deb atalgan. Ma’lumki, islomning ilk nozil bo‘lgan oyatlari “Iqro!” (ya’ni, “O‘qi!”) deb boshlanadi va ilmga tashviq etish islom ma’naviyatining muhim asoslaridan birini tashkil etadi. Doston matni orasida payg‘ambarimizning “Ilm Chin eli (ya’ni Xitoy)da bo‘lsa ham, o‘rganing!” degan hadislari arab tilida keltirilgan va ushbu fikr turkiy to‘rtliklar shaklida sharhlangan. “Saodat yo‘li bilim bilan bilinadi”, deydi Adib. U bilim egasi bo‘lgan ayol kishini erlar qatorida ko‘radi, bilimsiz erkakni esa ayoldan ham zaif biladi<sup>1</sup>.

Bilim egasi vafot etganda ham uning nomi boqiy qoladi, deb xulosalaydi shoir, ammo bilimsiz kishi tirigida ham o‘likdan farqi yo‘qdir. Ilm qadriga faqat ma’rifatli odam yetadi, nodonga esa nasihat befoydadir. Adib Ahmadning fikricha, bilim tuganmas boylikdir, u faqir kishini boy etadi, ilm ahlini esa arab ham, ajam ham olqishlaydi.

Ikkinchi bob “Tilni tiyish va boshqa odoblar haqida” deb nomlanadi. Bu bobdagi mashhur satrlar –

*“Tiling bekta tutg‘il tishing sinmasun,  
Qali chiqsa bekta, tishingni siyur” –*

yana Alisher Navoiyning Adib Ahmad haqida yozganlarida biroz o‘zgargan holda takror etiladi. Adib fikricha, kishi boshiga har qanday ish tushsa, tili tufayli sodir bo‘ladi, ba’zilar yaxshilik ko‘radi, ba’zilar afsus chekadi. Axmoq odamning tili – dushmani, ko‘p kishilarning tili tufayli qoni to‘kildi. Adib Ahmad behudago‘ylik va yolg‘on so‘zlashni qattiq qoralaydi. So‘zning to‘g‘risi va qisqasi yaxshi deb hisoblaydi. Bob davomida sir saqlashning muhimligi ta’kidlanadi, “hatto yaqin do‘stingdan ham ehtiyyot bo‘l” – deya ogohlantiradi shoir. Bunday ogohlantirishlar zamonaning qaltisligini eslatib turadi.

Uchinchi bob ham shunga muvofiq “Dunyo holatlarining o‘zgarib turishi va dunyo axlida vafo kamligi haqida”. Muallif o‘z asarini keksalik chog‘ida yozganligi ushbu bob mazmunidan seziladi. Adib dunyoning o‘tkinchiligi, kishi umrining yeldek o‘tishi, obod o‘lkalar xarob bo‘lib, donolarning ko‘pi dunyonи tark etganini afsus bilan qayd etadi. Dunyo bir qo‘li bilan kishiga asal tutsa, ikkinchi qo‘li bilan og‘u tutadi. Shu sababli “egulicing va kiygulicing bor bo‘lsa, ko‘p ham mol-dunyo yig‘ishga ruju qo‘yma”, deydi Ahmad Yughnakiy.

“Hibat ul-haqoyiq” asari asosiy qismining keyingi 4-7-boblari ham insonlarning yuksak fazilatlarini ta’riflash, nuqsonlarini qoralashga bag‘ishlangan.

Yusuf Balasog‘uniy Yettisuv o‘lkasidagi Kuzo‘rda (Balasog‘un) shahrida

<sup>1</sup> Қаранг: Ўша жойда, –Б.51.

1016-1018 yillar orasida dunyoga keldi. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston o‘lkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan Qoraxoniylar sulolasiga qo‘l ostida edi. Bu sulola VI-IX asrlarda hukm surgan Buyuk Turk hoqonligining davomchilari bo‘lib, IX asr o‘rtalaridan davlatni boshqarib keladilar. X asr boshlarida Abdulkarim Sotuq Bug‘raxon (924-955) islom dinini qabul qildi va shu bilan turkiy elatlar ham uzil-kesil islom mintaqaga madaniyatiga kelib qo‘shildilar. X asr oxiriga kelib, Somoniylar tanazzulga yuz tutgach, Qoraxoniylar Movarounnahrni tugal egalladilar. Balasog‘un ushbu ulkan mamlakatning shimoldagi poytaxti edi.

“Qutadg‘u bilig” asarini 50 yoshlarda hijriy 462 yili (1069/70) yozib tugatgan Yusuf o‘zi haqida asar muqaddimasida shunday ma’lumot beradi: “Bu kitobni tasnif qilib‘li Balasog‘un mavludlig‘ parqiz idisi er turur. Ammo bu kitobni Koshg‘arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg‘achxan uskinga kekurmish, malik ani ag‘irlab, ulug‘lab o‘z Xas Hojibliqi anga bermish turur, aning uchun Yusuf Ulug‘ Xas Hojib teb ati javi yazilmish turur” (Bu kitobni tartib beruvchi Balasog‘unda tug‘ilgan, parqiz sohibi (sabr-qanoatli) kishidir. Ammo bu kitobni Qoshg‘arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg‘achxon dargohiga keltiribdir. Malik uni yorlaqab, ulug‘lab o‘z (saroyida) Xos Hojiblik (lavozimini) beribdi. Shuning uchun Yusuf Ulug‘ Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi)<sup>1</sup>. Kitobda nomi tilga olingan xoqon Nasriddin Tavg‘ach ulug‘ Bug‘ro Qoraxon Abu Ali Hasan Xorunxon binni Arslonxon bo‘lib, 1075-1103 yillar davomida Qoraxoniylar davlatini boshqargan. “Qutadg‘u bilig” asari unga bag‘ishlangan paytda u Qoshg‘arda Arslon-tegin To‘g‘rul Qoraxoqon Mahmudxon (1059-1075)ning o‘rtoq-qog‘oni sifatida hukm surardi.

Qoraxoniylar sulolasida shunday odat bo‘lib, Balasog‘unda asosiy xoqon hukmdor bo‘lganda Qoshg‘arda uning o‘rtoq-qog‘oni ish yuritardi.

Asar mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojib arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanish bo‘lgan. Bundan tashqari shoir qadim turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar og‘zaki ijodini ham yaxshi bilgan, ular muhitida tarbiya olgan. Shoir turkiy elatlarning qadimiy qo‘shnilari xitoy, mo‘g‘ul, hind, eroniy xalqlar madaniyati, yunon falsafasi va boshqa o‘sha davr ma’naviy hayotining turli tomonlari haqida mukammal ma’lumot egasi bo‘lgan.

“Qutadg‘u bilig” asarining hozir bizning qo‘limizga yetib kelgani oxirgi tahrir va xoqonga taqdim etilgan nusxadir. Bu nusxa tarkibi quyidagicha:

Uch bosqich muqaddima:

1. Nasriy muqaddima (38 satr);
2. She’riy muqaddima (77 bayt);

<sup>1</sup> Қаранг: Ўша жойда, –Б.108.

### 3. Muqaddimaviy boblar (II bob, 390 bayt).

Ikkinchchi va uchinchi bosqich orasida bob sarlavhalari ro‘yxati (fihristi abvob) berilgan.

Asosiy qism – doston mavzui 68 bobda rivojlanadi. Undagi sarlavhalar hisobiga, agar ishtirok etuvchilarning savol-javoblarini ham kirtsak – 174 sarlavha ostida berilgan. Umumiy hajmi – 5896 bayt. Xotima qismi – 2 qasida va masnaviy bobdan iborat bo‘lib, oxirgi masnaviy bob mazmunigina ma’lum darajada dostonga aloqadordir. Muqaddimaning faqat uchinchi bosqichi (II bobdan iborat) bevosita doston tarkibiga uyg‘unlashgan. Oldingi ikki bosqich esa qayta tahrirda kitob haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun atayin nasr va nazmda ilova qilingandir. Shu sababli ular boblar nomlanishi ro‘yxatidan ham ilgari berilgan<sup>1</sup>.

Asosiy qism mazmuni va mundarijasiga ko‘ra “Qutadg‘u bilig” dostonini mintaqa adabiyotining birinchi bosqichida yaratilgan turkiy tildagi islom ma’naviyatining badiiy falsafiy, ijtimoiy axloqiy qomusi deb ta’riflasak arziydi. Bunday ulkan yaxlit kitob al-Buxoriyning “Jome’ as-sahih”idan keyin arab va fors tillarida ham yaratilmagan edi. VIII-IX asrlarda Abdulhamid al-Kotib, Ibn al-Muqaffa (720-756), Adib Ahmad Yugnakiy, al-Johiz (775-868) kabi yirik adiblar tomonidan asos solingan adab ilmi, Abu Nasr al-Forobiyning ijtimoiy-axloqiy falsafasi, “Shohnoma” va turk xoqonlarining yodnomalari, mintaqa xalqlarining boy ma’naviy merosi bu asar mag‘ziga singdirilgan. Firdavsiyning “Shohnoma”si mintaqa xalqlarining o‘tmish tarixini badiiy aks ettirsa, Yusuf Xos Hojib asari uning yangi davrdagi holatini badiiy tafakkur qonuniyatları asosida mujassam etdi. Muallif o‘z asarini “Shohnomayi turkiy” deb shuhrat topganini aytadi, bu qiyos shu ma’noda to‘g‘riki, o‘tmishda mintaqa eroniy hukmdorlar – Sosoniylar hukmida bo‘lgan bo‘lsa, Yusuf davrida Sosoniylar mulki turkiy hukmdorlar qo‘liga o‘tgan edi. Balasog‘undan Bag‘dodgacha turkiy sulolalar hukm surar edilar. Shu sababli endi sulolalar tarixi emas, davlatni boshqarish odobi muhim edi<sup>2</sup>. Asarning yana boshqa shuhrat topgan nomlari “Adab ul-muluk” (“Hukmdorlar odobi”) va “Oyin ul-mamlakat” (“Mamlakatni idora etish qoidalari”) xuddi shu jihatni aks ettirar edi.

Doston mazmuni Yusuf Xos Hojib tasavvuridagi shunday bir badiiy olamni aks ettiradiki, uning asosiy qahramonlari 4 timsoldan tashkil topgan. Birinchisi, Adolat – u bosh hukmdor, uning nomi Kuntug‘di, u quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchisi, Davlat – turkiyda Qut, u bosh vazir, uning ismi Oyto‘ldi. Qut yoki Davlat ichki mazmuniy tushuncha bo‘lib, Boylik, Baraka, Omad, Baxt, Qudrat ma’nolarini o‘zida jamlagan, hukmdorning tayanchi, uning

<sup>1</sup> Каранг: И момназаров М. Юсуф Хос Хожиб. //Маънавият юлдузлари. –Б.109-110.

<sup>2</sup> Каранг: Ўша жойда, –Б.110.

beliga quvvat, ko‘ziga nur, mulkiga farovonlik baxsh etuvchi bosh maslahatchi va nozir. Ammo Oyto‘ldining umri foni, Davlat, Baxt, Omad degan narsalar poydor emas, Osmondag Oy singari goh to‘lib ko‘rinmay qolishi ham mumkin. Oyto‘ldi asar davomida xastalanib vafot etadi. Ammo uning vorisi, o‘g‘li O‘gdulmish uning o‘rinbosari, hukmdorning yaqin maslahatchisi bo‘lib qoladi. O‘gdulmish Aql va Bilim ramzi. Agar Boylik, Omad, Baxt o‘tkinchi bo‘lsa, kishi qo‘lida doimiy turmasa, Aql va Bilim ularning o‘rnini bosa oladi. Asli asarning bosh qahramoni O‘gdulmish, ya’ni Aql va Bilimdir. Shu sababli kitobning nomi ham “Qutadg‘u bilig” (“Baxtga eltuvchi bilim”). Baxt, qutbaraka, omad, qudrat manbai bo‘lmish bilim bilan bog‘liqdir. Asardagi to‘rtinchi timsol – Qanoat. Agar insonda, jamiyatda qanoat bo‘lmasa, uning barcha xosiyati bir pul, oqibati ayanchlidir. Qanoatning ismi O‘zg‘urmish bo‘lib, u Oyto‘ldining, ya’ni Baxt va Davlatning, O‘gdulmishning, ya’ni Aql va Bilimning qarindoshidir. Ammo Oyto‘ldi qarindoshini eslamaydi. Baxt va Omad Qanoatni xotirga keltirmaydi. Hukmdorga (Elig) O‘zg‘urmish qarindoshi haqida O‘gdulmish eslatadi, ya’ni Adolat Aql yordamida Qanoatdan xabar topadi va uning suhbatini istaydi. Asar oxirida O‘zg‘urmish ham xastalanib vafot etadi. Kuntug‘di va O‘gdulmish, ya’ni Adolat va uning bosh maslahatchisi Aql qoladilar<sup>1</sup>.

Asar qahramonlari jonli shaxslar – Elig – Kuntug‘di – adolatli, insofli hukmdor, Oyto‘ldi – donishmand, tadbirli, tajribali alloma, murakkab xarakterli shaxs, yurt, jamiyatga foydasi tegishini o‘ylab poytaxtga keladi va musofirparvar Ko‘sالish yordamida Eligning Xos Hojibi Ersig bilan tanishib, u tufayli Kuntug‘di saroyiga kirib boradi. Elig bilan tanishadi. Elig va Oyto‘ldi orasida ko‘p suhbatlar bo‘lib o‘tadi. Ular bir-birining botiniy qiyofasi, fe'l-atvorini yaxshi o‘rganib, asta-sekin umumiy til topishadi. Oyto‘ldining xastaligi va o‘limi, unga Elig va O‘gdulmishning qayg‘urishi, hamdardligi juda tabiiy, hayotiy kechinmalarda tasvirlanadi. O‘zg‘urmish bilan bo‘lgan suhbatlar ta’sirida O‘gdulmishning ongi o‘zgarib, rivojlanib boradi. U ma’lum vaqt O‘zg‘urmish ta’sirida tavba-tazarruga berilib, moddiy dunyo tashvishlaridan o‘zini olib qochmoqchi bo‘ladi, ammo O‘zg‘urmish va Kunto‘ldilar yana uni bu niyatdan qaytaradilar, el-yurt tashvishi bilan yashashga undaydilar. Hojib Aql va Bilimni el-yurt, xalq farovonligi yo‘lida xizmat ettirish eng asosiy burch deb hisoblaydi. Aql avvalo Adolatga himoyachi va maslahatgo‘y bo‘lmog‘i talab etiladi. O‘zg‘urmish shaxsi tarkidunyo etgan, zohidlik va taqvoni yashash tarziga aylantirgan so‘fiylarni eslatadi. Yusuf Xos Hojib tasavvuf g‘oyalari, amaliyotidan chuqr xabardor ekanligini ushbu qahramoni tavsifida ayon etgan. Tasavvuf, taqvo, zohidlik va faqir uning nazaricha avvalo Qanoatning timsoli,

<sup>1</sup> Қаранг: Ўша жойда, –Б.110-111.

yorqin namoyandasidir. Qanoat Oqibatni o‘ylash bilan bo‘ladi, u insonga Ofiyat (ruhiy osoyishtalik, qoniqish) keltiradi. Adolat Qanoatsiz bo‘lmaydi. Hukmdor so‘fiyning, zohidning suhbatidan baxramand bo‘lib turishi kerak. So‘fiy hukmdorni qidirib kelmaydi, hukmdor uni o‘zi qidirishi, suhbatiga intiq bo‘lishi kerak. Kuntug‘di, O‘gdulmishni O‘zg‘urmishga maktub bilan uch marta jo‘natadi. Hojib fikricha, agar hukmdor e’tibor ko‘rsatsa va mayl bildirsa, so‘fiy ham suhbatdan bosh tortmasligi kerak. Albatta, zohid O‘zg‘urmish saroy ayoniga aylanmaydi, u ma’lum vaqt Elig bilan fikr almashib, yana o‘z kulbasiga qaytib ketadi, hayot tarzini o‘zgartirmaydi.

“Qutadg‘u bilig” kitobi avom xalq uchun emas, birinchi navbatda, xoqon va beklar, ya’ni yurtning hukmdorlari uchun atab yozilgandir. Turkiy sulolalar butun islam mintaqasida hukmfarmo bo‘lib kelayotgan bir paytda, ijtimoiy jihatdan “Shohnoma”dan ko‘ra “Qutadg‘u bilig”, ya’ni “hukmdorlar adabnomasi” ko‘proq zarur va bu kitob aynan turkiy tilda yozilmog‘i kerak edi<sup>1</sup>. Yusuf Xos Hojib ushbu ijtimoiy zaruratni vaqtida anglab yetdi; unga yuksak saviyada javob bera oldi.

O‘sha davr ijtimoiy, axloqiy voqeligining juda ko‘p, xilma-xil jihatlari asar mazmuniga singdirilgan. Ayniqsa, Kuntug‘di va O‘gdulmish suhbatlariga bag‘ishlangan 15-25-boblar, O‘gdulmish va O‘zg‘urmish suhbatiga oid 31-53-boblar davrning barcha ijtimoiy toifalari ahvol-ruhiyati, jamiyatdagi o‘rni, fe'l-atvori haqida mufassal tasavvur beradi.

Yusuf Xos Hojib jamiyatni tubdan o‘zgartirishni emas, muvofiqlashtirish, uyg‘unlashtirish, takomil baxsh etishni maqsad qilib qo‘yadi.

## 9. Nosir Xisravning (1004-1088) falsafiy qarashlari

Nosir Xisrav Markaziy Osiyodan chiqqan xassos shoir va mutafakkir edi. U “qidiruvchi-topuvchidir” degan iborani qaytarishni yaxshi ko‘rar edi. Nosir Xisrav butun umri davomida, o‘zligini unitish darajasida, haqiqat qidirdi.

Xisrav o‘g‘li Abu Muin Nosir 1004 yilda Tojikistonning Qabodiyon shahrida tug‘ildi. Nomidan ma’lumki, bu shahar afsonaviy shoh Qay Qubodga (“Shohnoma”da kuylangan) borib taqaladi. XX asrning ikkinchi yarmida olib borilgan qazilmalar guvohligicha, bu shahar qadimgi madaniy markazlardan biri bo‘lgan.

Nosir Xisrav umrining oxirgi yillarini hozirgi Afg‘onistonning Badaxshon viloyati Jurm tumanining tog‘li chekka qishlog‘i bo‘lgan Yumganda o‘tqazgan. Shu yerda u o‘zining qarmatiylik (ismoiliylik) diniy mazhabini asoslashga qaratilgan asosiy asarini yozgan. Shu davrda forsiy she’riyatda yangi janr bo‘lgan falsafiy qasidalar yozish rasm bo‘lgan ediki, bu sohada Nosir

<sup>1</sup> Ўша жойда. –Б.112.

Xisravgina yetakchi maqomni egalladi.

Nosir Xisravning falsafiy asarlaridan ikkitasi hammadan ko‘ra ko‘proq diqqatga sazovordir: “Zod al-musofirin” (“Musofirlarning safar ozuqasi”) va “Ikki donishmandlik uyg‘unligi”.

Har ikki asarda ko‘tarilgan asosiy masala inson fikrining buyukligi haqidadir. Ikki donishmandlik – bu qadimgi yunon falsafasi (yunon donishmandligi) va qarmatiylik ilohiyotidir. Nosir Xisrav ularning bir-biriga qarama-qarshi emasligini isbotlashga urinadi. Uning fikricha, qarmatiylik tizimigina yagona g‘oya bo‘lib, Suqrot, Aflatun, Empedokl, Pifagor va Arastu kabi mutafakkirlarning falsafiy fikrlari mohiyatini to‘g‘ri talqin qiladi va rivojlantiradi.

Fransuz olimi Korben ta’biri bilan aytganda, Nosir Xisrav fikricha, haqiqat qidirish – bu o‘rni almashgan ilohiylikdir, fikrlovchi ruh esa shuning uchun yaratilganki, u ashyolar mohiyatiga kirib, ularga savollar berishi, anqliklar kiritishi va tadqiq etishi lozim.

Nosir Xisrav chuqur fikr qilish natijasida shuni idrok etdiki, voqealarni tushunishda uni tashqi ko‘rinishdan mohiyati tomon siljib borish zarur, yuzakiroq mohiyatlardan tub ildiziy mohiyatlarga erishish uchun majhul fikrlashga e’tibor berish lozim. Shundagina barcha tasodifiy, o’tkinchi narsalardan xalos bo‘lib, voqelikning ichki qonuniyatlarini ochishga muvaffaq bo‘linadi. Uning ilmiy-falsafiy jasorati shunda ediki, barcha voqeylekka va har bir ayrim olingan predmetga nisbatan, uning barcha tomonlarini qamrab oluvchi tashqi ko‘rinish (zohiriy) va mohiyatini ifodalovchi ichki (botiniy) xususiyatlariga e’tiborni jalb etdi. Ammo bunday aqidaga ilohiy tus berib, “ichki” mohiyatni tabiatdan yuqori turuvchi, narigi dunyoga taalluqli, deb bildi<sup>1</sup>.

Nosir Xisrav fikricha, dunyodagi hamma narsa o‘zgarishda va harakatda bo‘lib “oqin suvdek” holatdadir. Paydo bo‘lgan narsa eskiradi va halok bo‘ladi, ammo teskari harakat yo‘q, harakat dunyoni foniylikka olib bormaydi, balki yangini tug‘ilishiga va nash‘u namoga olib keladi. U o‘zining she’rlari va risolalarida o‘zgarmas, deb topilgan, turg‘un aqidalarga qarshi chiqadi. Uning xulosasiga ko‘ra, taraqqiyot uzluksiz jarayon bo‘lib, tabiat va inson doimiy takomillashishdadir. Birlamchi modda, agarchi xoliq tomonidan yaratilgan bo‘lsa ham, yaratilgandan keyin, o‘zining moddiy sabablari qonuniyatiga muvofiq rivojlanib boradi. Dastlab “moddiy dunyoning asosi” bo‘lgan to‘rt unsur: tuproq, suv, havo va olov, hamda to‘qqiz sayyoraviy doira paydo bo‘ladi. Ularning o‘zaro ta’siri natijasida tadrijiy ravishda minerallar, o‘simliklar, hayvonlar va inson paydo bo‘ladi. Inson – bu hayvonlarning eng oliysi bo‘lib, “gapiruvchi ruh” bilan ta’minlangan va o‘zining ikki alohida belgisi, ya’ni aqli

<sup>1</sup> Қаранг: Брагинский И. 12 миниатюр. –М.: Художественная литература, 1966. –С. 58.

va mehnat faoliyati tufayli dunyoni o‘ziga bo‘ysundiradi: “Insoniyatning mohiyati uning faoliyati orqali vujudga kelgan”.

Nosir Xisrav o‘zining “Zod al-musofirin” (“Musofirlarning safar ozuqasi”) risolasida qayd etadiki, faqat inson o‘zining mehnati jarayonida to‘rt unsurni harakatga keltirib, undan foydalanadi: suvdan foydalanib qayiqlar yasaydi va daryo, hamda dengizlarda suzadi; tuproqdan foydalanib – binolar quradi; shamoldan foydalanib – shamol tegirmonlarini barpo etadi va olovdan foydalanib, taomlar pishiradi va temirlarni eritadi.

“Har bir mavjudot zina ba zina ko‘tarilib borib, komil inson darajasiga erishishi lozim”. Bunday odam zavol topmaydi, negaki, jismoniy o‘limdan keyin uning o‘lmas ruhi dunyoning Umumiy ruhi bilan qo‘shiladi – “faqat birgina dahshatli o‘lim bor, u ham bo‘lsa qayta tirilmaydigan ruhdirkni, u bilimsizlik va aqlsizlik natijasida zavol topadi”<sup>1</sup>.

Doimiy izlanish, bilim olishga sig‘inish darajasida intilish, aql quvvati va insoniy fikrlash komillikk olib boradi.

Nosir Xisrav she’riyatining markazida – haqiqat izlovchi, qidiruvchi shaxs turadi. Uning she’riyati bu jihatdan Avestoning “Gotlar” qismiga yaqindir. “Gotlar” kabi Nosir Xisravning she’rlari Rudakiy she’riyat maktabi tajribasi bilan boyitilgan. U o‘z she’rlarida Rudakiyning samimiyat bilan eslaydi. Uning she’rlari zeriktiruvchi tashviqot va yuksak didli nasihatlar emas, balki xayrli xabar keltiruvchi samimiyy payg‘ambarona chaqiriqlar kabi jaranglaydi.

Nosir Xisrav ismoiliylik g‘oyalarini targ‘ib etganligi uchun o‘sha zamondagi hukmron doiralar va musulmon ruhoniylari tomonidan ta’qib etildi. Uning aqidasicha, agar ismoiliylar tavsiya etgan jamiyat qurilsa, barcha muammolar hal etilib,adolat barqaror topadi va barcha baxt-saodatga erishadi.

Nosir Xisrav fikricha, tashqi dunyoni bilish mumkin; tashqi hodisalar sezgi organlari orqali bilib olinsa, ichki jarayonlar – aql yordamida bilib olinadi. Uning bilish nazariyasi o‘z asosiga ko‘ra, aqlga tayanadi: “ilm – bu ashyolarni qanday bo‘lsa, shundayligicha bilishdir, ashyolarni esa, qanday bo‘lsa, shundayligicha bilib oluvchi narsa aqldir”. U bilish jarayonining cheksizligini ham qayd etadi: “Insonni bilishi uchun hech narsa qolmagan holatning bo‘lishi, hech qachon mumkin emas”<sup>2</sup>.

Moddiy dunyoni o‘rganish borasida mutlaq haqiqatni topdim, deyish ostonasiga kelib qolgan Nosir Xisrav o‘z ilohiyotida butunlay boshqacha talqinlarga yo‘l qo‘yib, barcha narsalarni raqamlar kombinatsiyasi orqali tushuntirishga urinadi. U o‘ziga savol qo‘yib, o‘zi javob beradi:

1 raqami nima, degan ma’noni bildiradi? Bu – Alloh; Uning tomonidan nozil

<sup>1</sup> Ўша жойда, –Б.116.

<sup>2</sup> Брагинский И. 12 миниатюр. –М.: Художественная литература, 1966. –С.124.

qilingan Kitob – Qur'on; hamda Alloho ni bilish usuli bo'lgan – "ta'vil" ("Qur'oni ramziy talqin qilish").

2 raqami nimani bildiradi? Ikki javhar – ruhiy va jismoniy, hamda ta'vilning ikki tomonini – "zohir" – ko'rinishdagi, jismiy, bu dunyodagi, ezoterik va "botin" – mohiyatiy, ruhiy, u dunyodagi, ezoterik.

3 raqami nimani ifodalaydi? Avestoning Gotlar qismidagi uchlikni eslatuvchi Oliy uchlikni mujassamlashtiradiki, u yagona xudo – xoliq, uning birinchi nuri – Umumiy Aql va keyingi nuri – Umumiy ruhni, ammo ko'proq majhulroq ma'noda.

4 raqami nimani bildiradi? Birinchi to'rt unsurni – suv, havo, tuproq va olovni hamda yaratuvchi nutqning to'rt modusini: xoliqqa xos bo'lgan "hukmiy modus"niki, u tufayli ruhiy javharlar vujudga keladi; Payg'ambarga xos bo'lgan "e'lon qiluvchi modus"niki, u tufayli ilohiy vahiy sodir bo'ladi; va nihoyat imomga xos bo'lgan "qayta so'rash modusi"niki, u tufayli ta'vil yordamida vahiyning yashirin ma'nosi (botin) ochiladi.

5 raqami nimani ifodalaydi? Doiraviy aloqa bilan bir-biriga bog'langan besh samoviy doirani ifodalaydiki, har bir doira o'z ichida yagona tartibga egadir.

6, 7 va hokazo raqamlar nimani bildiradi? Har biriga yuqoridagidek, simmetrik va mutlaq javoblar mavjud<sup>1</sup>.

Haqiqatda oddiy shohona zot bo'lgan imomni ilohiylashtirish ta'limoti zolim hukmdorga diniy ilohiylik bag'ishlashga olib keladi: u yoki bu hokimiyatni ma'lum amaliy ijobiy tomonlarini tan olish boshqa-yu, ammo uni "mutlaq haqiqat" sifatida e'lon qilib, bu bilan siyosiy va ijtimoiy zulmni ruhiy qaramlikka aylantirish boshqa gap.

Nosir Xisrav mansub bo'lgan qarmatiylik qarashlari islom ichidagi bid'at edi. U shoir va mutafakkirlarga islomga to'g'ridan-to'g'ri qarshi shaklda bo'lmasa ham, uning o'zgarmas, deb topilgan ilk aqidalariga qarshi qadimgi dunyoqarash an'analarini kun tartibiga qo'ydi.

Qadimgi davrlar hikmatiga murojaat qilish, vatanparvarlik ongini uyg'otishga turki bo'ldi.

Nosir Xisravning o'zi istamagan holda fanga qilgan yana bitta katta xizmati uning o'z asari "Zod al-musofirin"da Zakariyo Roziyoning moddiyuncha qarashlarini tanqididir. Shu tanqid tufayli Roziyoning yo'qotib yuborilgan ajoyib falsafiy asari bilan tanishib, undan bahramand bo'lamiz.

## 10. Umar Xayyomning (1048-1130) tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

<sup>1</sup> Қаранг: Носир Хисрав. Жамиъал хикматайн (Икки донишмандлик уйғунлиги). –Техрон-Париж. 1953. – Б.52-58. (форс тилида).

Umar Xayyom Saljuqiylar davri ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va ilmiy tafakkurining eng atoqli namoyandalaridan biridir. U Xurosonning o'sha vaqtdagi markazi bo'lgan Nishapur shahrida 1048 yilning 18 mayida tug'ildi. Uning vafoti ham aniq hisoblangan bo'lib, 1130 yilning 4 dekabrida ro'y bergan. Olimning laqabi bo'lgan "Xayyom" ("chodir tikuvchi")dan ma'lumki, uning kelib chiqishi hunarmandlardan bo'lgan. Umar Xayyom Xuroson va Movarounnahrning Balx, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarida o'qib ulg'aydi va o'z zamonasining yetuk olimlaridan biri bo'lib yetishdi. U tabiatshunoslik fanlari sohasida, ayniqsa matematikadan zabardast olim bo'lib yetishdi.

Falsafada Umar Xayyom o'zini Ibn Sinoning izdoshi, deb hisoblar edi. 25-26 yoshlaridayoq uni o'z zamondoshlariga, keyinchalik esa, asrlar davomida barcha ilm ahliga mashhur qilgan algebraga doir risolasini yozib tugatdi. U astronomiyada ham shuhrat qozondi.

1074 yilda Umar Xayyom Saljuqiylar sultonı Malikshoh tomonidan poytaxt Isfahondagi rasadxonaga mutasaddilik lavozimiga chaqirildi. U yerda 471 hijriy yilning o'ninchi ramazonida (1079 yilning 15 marti) uzoq astronomik izlanishlar natijasida hozirgacha mavjud bo'lgan quyosh taqvimlari (kalendor) ichida eng anig'i bo'lgan "Malikshoh solnomasi", deb atalgan taqvimni yaratdi. O'zining ikkinchi eng muhim riyoziyotga doir asari bo'lgan "Evklid kitobi muqaddimasining tushunish qiyin bo'lgan joylariga sharh" va ba'zi qisqacha falsafiy asarlari, jumladan, "Risola fil vujud" ("Borliq haqida risola")ni ham shu yerda yozdi. Uning matematika, astronomiya, falsafa va boshqa fanlar sohasida "Risolat ul-kavn vat-taklif" ("Koinot va uning vazifalari"), "Risola fi-kulliyoti vujud" ("Borliqning umumiyligi haqida risola"), "Risolai jabr" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan.

Umar Xayyom o'zining "Risolai jabr" kitobi muqaddimasida: "Biz ilm ahlining inqirozini boshdan kechirdik, ko'p jafo ko'rgan faqat bir kichik guruhgina qoldi, xolos. Endi bizning zamon donishmandlarining aksariyati rostni yolg'on bilan yashiradilar, bilimda shuhratparastlikdan nariga o'tolmaydilar. Agar ilm bobida biror narsa bilsalar, uni ham faqat tuban maqsadlar va o'z maishatlari uchun sarf qiladilar. Agar biror kishi haqiqatni qattiq talab qilsa, to'g'rilikni afzal ko'rsa, firib va yolg'oni rad etishga harakat qilsa, riyokorlik va xiyladan xalos bo'lishga azm qilsa, uni haqorat qiladilar, masxaralaydilar", deb yozgan edi.

1092 yilda Umar Xayyomga homiylik qilgan Malikshoh va uning bosh vaziri Nizomulmulk vafotidan keyin Isfahondagi rasadxona berkitiladi. Umar Xayyom keyingi taxt vorislarini qiziqtirish maqsadida o'z astronomik izlanishlarini davom ettiradi. U quyosh taqvimi bilan bog'liq bo'lgan Navruzga bag'ishlab

fors tilida risola yozadi. Oy taqvimi noqulay va o‘zgaruvchan bo‘lganligidan Xayyom, Turkiston va Eron arablar istilosidan oldin foydalanib kelgan 365 kundan iborat Quyosh taqvimini qaytadan tuzib chiqdi. Ammo uning hukmdorlarni qiziqtirishga bo‘lgan urinishlari yaxshi natija bermadi. Bir necha yildan keyin Saljuqiyarning poytaxti yana Marvga ko‘chirildi. Zamona hukmdorlari bilan ish ko‘rishga majbur bo‘lgan Umar Xayyom Marvga kelib, o‘z ilmiy faoliyatini davom ettirdi. Tabiatshunoslik sohalarida yozgan uning o‘nta risolasi bizgacha yetib kelgan.

Ilmiy ishlari tufayli xudosizlikda shubha qilinganligi uchun Umar Xayyom haj safariga boradi. Safar davomida Bag‘dodga kelganda qadimgi fanlar bilan shug‘ullanadigan uning ko‘plab hammaslaklari Umar Xayyom suhabatiga shoshiladilar. Haj safaridan o‘z ona shahri Nishopurga qaytgan Umar Xayyom kamtarona hayot kechiradi. Erta va shom namoziga chiqib tursa ham, o‘zining chuqur ilmiy mulohazalarini boshqalar bilan o‘rtoqlashishdan o‘zini tiyadi.

Xayyom davrida va undan keyin ham uzoq vaqt davomida Sharqda kitob nashr etishni kashf etilmaganligi sababli uning qimmatli ilmiy kashfiyotlari Yevropaga o‘z vaqtida yetib bormadi. XVI asrda Eron madaniyatini o‘rgangan Yevropa olimlari uning ismi bilan yaxshi tanish emas edilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Umar Xayyom Eron va O‘rta Osiyoda go‘yo unitilgan, degan fikr paydo bo‘ldi.

Algebraga juda katta yangiliklar kiritgan uning riyoziyotga doir risolalari, parallelli munosabatlар nazariyasi, raqamlar haqidagi ta’limot, noyevklid geometriyasi elementlarini aniqlash kabilar unitila yozdi. Umar Xayyom tomonidan XII asrda qilingan bu sohadagi kashfiyotlarni Dekart yana qaytadan ochishga majbur bo‘ldi. Uning algebraga doir risolasi birinchi marta Yevropada faqat 1742 yildagina tilga olinadi.

Serqirra ilmiy asarlar yozgan qomusiy olim Umar Xayyom jahonga o‘zining asarlarining ilmiy qimmati bilan emas, balki kitoblari hoshiyasiga dam olgan kezlarida yozgan she’rlari bilan mashhur bo‘ldi. XIX-XX asrlarda tadqiqotchilar uning ruboiylariga e’tibor bera boshladilar. Holbuki, XIII asrning o‘rtalarida yashagan mashhur tarixchi al-Qiftiy o‘zining “Tarixi hukamo” (“Hakimlar tarixi”) asarida Xayyom to‘g‘risida quyidagilarni yozgan edi: “Astronomiya va falsafa sohasida unga teng keladigan kishi yo‘q edi”<sup>1</sup>.

XIX asrda yashagan Yevropa tadqiqotchilari Renan, Myuller, Vepka va boshqalar uni tarki dunyochilik qarashlari ustidan kulgan bo‘lsalar ham, ammo uni erkin fikrlovchi faylasuf sifatida qadrlaganlar.

Umar Xayyom o‘zining she’riy asarlari – ruboiyoti bilan butun olamga mashhur bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

<sup>1</sup> Қаранг: Умар Хайём. Рубоийлар. Шоислом Шомухамедов мукаддимаси. –Т.: Шарқ, 1997. –Б.11.

U o‘z ruboiylarida ham ilmiy-falsafiy kitoblarda bo‘lganidek olam sirlari, hayot haqiqatini izlaydi, bu boradagi fikru o‘ylarini ajoyib she’riy siymolarga o‘rab, mo‘jizakor to‘rtliklarda ifodalab beradi.

Eron olimi Mujtaboh Minaviyning “Xayyom haqida daqiqiy tadqiqotlar” to‘plami ma’lumotlariga qaraganda, faqat 1929 yilgacha Yevropa va Amerikada shoir Umar Xayyom haqida yozilgan kitoblar va maqolalar soni 1500 dan oshib ketgan. Ustod Said Nafisiy esa shunday yozadi: “Mening hisobimcha, Xayyom ruboiylari 32 marta ingliz tiliga, 16 marta fransuzchaga, 11 marta urdu tiliga, 12 marta nemischaga, 8 marta arabchaga, 5 marta italyan, 4 marta turkiyga, 8 marta ruschaga, 2 marta daniyaliklar tiliga va boshqa tillarga tarjima qilinib chop etilgan. E. Fitsjeraldning inglizcha tarjimasining o‘zagina to 1925 yilgacha 139 marta chop etilgan”<sup>1</sup>.

Eron olimi Ali Dashtiy o‘zining 1965 yilda chiqqan “Dame bo Xayyom” (“Bir lahza Xayyom bilan”) degan kitobida Umar Xayyom haqidagi kitob va maqolalar shoyadki, 2000 dan oshib ketsa, deydi.

Bundan tashqari juda ko‘p so‘z san’atkorlari Xayyom ruboiylarini o‘z asarlariga kiritadilar, minglab kishilar bu durdoni to‘rtliklarni yoddan o‘qib yuradilar, uning kitoblarini bir-birlariga sovg‘a kiladilar.

Umar Xayyom fikricha, borliq murakkab (ashyo, modda) va oddiy (birinchi ibtidolar, birlamchi asoslar) narsalardan tashkil topgan.

Borliq, to‘xtovsiz taraqqiyot holatidadir. U jonsiz dunyodan tajridiy ravishda yuqori shaklga, ya’ni odam darajasigacha yuksaladi. Har bir doiraning aqliga ruh muvofiq keladi. Ruh – harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, aql esa – ishq va muhabbatni qo‘zg‘ovchidir. Bu birlikdagi rahbar kuch aqldir, ammo ruh aqldan yuqoriroq ko‘tarilishga harakat qiladi. Ruhning aqlga qarama-qarshiligi tufayli turli doiralarda rivojlanish yuz berib turadi.

Dunyo moddiy bo‘lib, o‘zining qonuniyatlariga ega. Borliq – ibtidosi va intihosi bo‘lmagan doimiy oqimdir. Moddaning mavjudligining bir shaklidan boshqasiga cheksiz ravishda o‘tib turishi, bir sifatiy holatdan ikkinchisiga aylanishi borliqning tabiiy holatidir.

Ijtimoiy sohada Umar Xayyomning orzusi – hur fikrli, ozod fikr yurituvchi, sof dilli, falsafiy tafakkurga mukkasidan ketgan inson edi.

Uning fikricha, inson baxt-saodatli yashash uchun tug‘iladi. Bu baxt-saodatning asosi tabiatdir. Ammo undan, ya’ni uning boyliklaridan foydalanish uchun uning o‘zini o‘rganish kerak.

Umar Xayyom inson ijodiy faoliyatining g‘alabasi uchun, uning yer yuzidagi baxt-saodati uchun kurashdi. Buni quyidagi misralarda tarannum etdi:

---

<sup>1</sup> Ўша жойда.

Dunyoning tilagi, samari ham biz,  
Aql ko‘zin qorasi – javhari ham biz.  
To‘garak jahonni uzuk deb bilsk,  
Shaksiz uning ko‘zi – gavhari ham biz.

Faqat ilm bilan balandmas odam,  
Ahdu vafo bilan baland-past odam.  
So‘zi bilan ishi bir kelsa agar  
Har narsadan baland, muqaddas odam.

O‘lik-tirik ishin tuzatkuvchisen,  
Tarqoq koinotni kuzatkuvchisen,  
Yomon bo‘lsam hamki, sening bandangman,  
Men nima ham qilay? Yaratkuvchi – Sen.

Falakka hukm etgan Tangriday bo‘lsam,  
Falakni qillardim o‘rtadan barham.  
Yangidan shunday bir falak tuzardim,  
Yaxshilar tilakka yetardi ul dam.

Kishi o‘zligidan yaxshi-yomon ham,  
Qazovu qadar u quvonch yoki g‘am.  
Aql aytur: bularni charxga to‘nkama,  
Charx sendan ojizroq, bechora-yu kam.

(Forschadan Shoislom Shomuhamedov tarjimasi)

### To‘rtinchi mavzu yuzasidan savollar:

1. Tabiatshunoslik ilmlari islom dunyosiga qachon kirib keldi?
2. Hurfikrlilik ibn Ravandiy va Muhammad Zakariyo Roziy qarashlarida qanday namoyon bo‘ladi?
3. Muhammad Muso al-Xorazmiy jahon faniga qanday hissa qo‘shdi?
4. Ahmad al-Farg‘oniy astronomiya va jo‘g‘rofiya fanlariga qanday yangiliklar kiritdi?
5. Yangi pifagorcha falsafa qachon shakllandii?
6. X asrda islom falsafiy madaniyati qanday rivoj topdi?
7. Markaziy Osiyoda yangi aflatuncha maktab qachon shakllandii va uning namoyandalari kimlar edi?
8. Abu Nasr Forobiy din va falsafa haqida qanday yangi fikrlarni o‘rtaga tashladi?

9. Forobiyning borliq haqidagi ta’limoti tabiatshunos mutafakkirlar qarashlaridan nimasi bilan farq qiladi?
10. Mantiq ilmi sohasida Forobiy qanday asarlar yaratdi?
11. Forobiyning adolatli jamiyat haqidagi qarashlarida o‘z zamoni uchun qanday yangiliklar bor edi?
12. Ibn Sinoning Yevropada mashhur bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi?
13. Ibn Sinoning “Ash-shifo” asari nimaga bag‘ishlangan?
14. Ibn Sinoning “Donishnoma” asari qaysi tilda yozilgan?
15. Ibn Sinoning ilohiyotida qanday yangiliklar bor?
16. Abu Abdulloh Xorazmiyning (X asr) qanday asari mashhur?
17. Abu Rayhon Beruniyning eng yirik beshta asari qanday ataladi?
18. Beruniyning bilish nazariyasida qanday yangilik bor edi?
19. Jamiyatning paydo bo‘lishi haqida Beruniy qanday fikrda bo‘lgan?
20. Ahmad Yugnakiyning qanday asarini bilasiz?
21. Yusuf Xos Xojibning dunyoqarashida qaysi tamoyil ustunlik qiladi?
22. Nosir Xisravning (1004-1088) falsafiy qarashlari uning qaysi asarida o‘z aksini topgan?
23. Umar Xayyomning (1048-1130) tabiiy-ilmiy qarashlariga xos xususiyat nimada edi?
24. Umar Xayyomning falsafiy qarashlari uning qaysi asarlarida o‘z aksini topgan?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *Karimov I.A.* O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. –T.: O‘zbekiston, 1996
2. *Karimov I.A.* O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O‘zbekiston, 1997.
3. *Karimov I.A.* Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir//Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: O‘zbekiston, 2000.
4. *Karimov I.A.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
5. *Abu Nasr Forobiy.* Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
6. *Abu Nasr Forobiy.* Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Muqaddima, tarjima va izohlar muallifi M. Qodirov. –T.: Yozuvchi, 2002.

7. *Abu Rayhon Beruniy*. Hindiston. –T.: Fan, 1965.
8. *Abu Rayhon Beruniy*. Geodeziya. –T.: Fan, 1966 (rus tilida)
9. *Abu Rayhon Beruniy*. Mineralogiya. –T.: Fan, 1967.
10. *Abu Rayhon Beruniy*. Dorivor o'simliklar haqida kitob (Saydana). –T.: Fan, 1968.
11. *Abu Rayhon Beruniy*. Tanlangan asarlar. 1-jild, –T.: Fan, 1965.
12. *Abu Rayhon Beruniy*. Tanlangan asarlar. 2-jild, –T.: Fan, 1968.
13. *Abu Rayhon Beruni*. Izbrannie proizvedeniya. T. 1. –T., 1957.
14. *Abu Rayhon Beruni*. Izbrannie proizvedeniya. T. 2. –T., 1963.
15. *Ibn Sina*. Kniga znaniya "Danishname". –Stalinabad, 1957.
16. *Muxammed al-Xorezmi*. Matematicheskie traktati. –T., 1964.
17. *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy*. Tanlangan asarlar. –T.: Fan, 1983.
18. *Navoiy A.* Nasoyim ul-muhabbat. 15-tom. –T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
19. *Umar Xayyom*. Ruboiylar. Shoislom Shomuhamedov muqaddimasi. –T.: Sharq, 1997.
20. *Romitoniq Xoja Ali*. Risolai Hazrat Azizon. 1327 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 12548/II.
21. *Shayx Muhammad Ali at-Tahovaniy al-Hindiy*. "Kashshofu istilohotil-funun". –Istambul, Iqdom matbaasi. 1317 h.
22. *Jurjoniq*. Sharhe mulaxxas al-haya al-Chag'miniy. O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 2655-raqamli qo'lyozma (arab tilida).
23. *Shahobiddin ibn bintu Amir Hamza*. Maqomoti Miri Kulol. 1436 y. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 1158.
24. *G'ijduvoniy Xoja Abdulkoliq*. Vasiyatnama. Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasi, inv. –№ 3844.
25. O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozmalar fondi: "Oyinaye gitinamo", 2984-raqamli qo'lyozma (fors tilida).
26. Islom, ensiklopediya (A-H) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. –T., 2004.
27. Xidoya: Kommentarii musulmanskogo prava. Otvetstvenniy redaktor, avtor vstupitelnoy stati i kommentariev professor, doktor yuridicheskix nauk A.X.Saidov. Perevedeno s angliyskogo, pod redaksiey N.I.Grodekova. –T.:O'zbekiston, 1994.
28. Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Mas'ul muxarrir: M. M. Xayrullaev. To'ldirilgan katta nashr. –T., A. Qodiriq nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999.
29. Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane (O'zbekistonda ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan

- materiallar). –T.: Fan, 1976.
30. Ocherki istorii obshchestvenno – filosofskoy misli v Uzbekistane. –T.: Fan, 1977.
  31. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik M.M.Xayrullaev tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston, 1995.
  32. *Abdulhakim Shar’iy Jo ‘zjoniy*. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. –T., Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2002.
  33. *Abduhalimov B. A.* “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). –T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.
  34. *Abdullayeva M.N., Abdurashidov M. va b.* Falsafa. Qisqacha izohli lug‘at.–T.: Sharq, 2004.
  35. *Ziyovuddinova M.* Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. –T., 2001.
  36. *Ibragimov N.* Ibn Battuta i yego putesthestviya po Sredney Azii. –M.: Nauka. 1988.
  37. *Imomnazarov M.* Milliy ma’naviyatimiz takomil bosqichlari. –T.: Sharq, 1996.
  38. *Yo‘ldoshev S.* Antik falsafa. –Bishkek: Uchqun, 1999.
  39. *Lega V.P.* Iстория западной философии. –T., 1998.
  40. *Muminov I.M.* Filosofskie vzglyadi Mirzi Bedilya. –T.: Fan, 1957.
  41. *Murtazoyev S.* Sa’duddin Taftazoniy asarlarida dunyoqarash, bilish nazariyasi va mantiqiy masalalarning yoritilishi. Avtoreferat. -T.; 1975.
  42. Safo Z. Torixe adabiyote Eron. 1-jild.
  43. *Usmon Turor.* Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqlol, 1999.
  44. *Uinter T.J.* XXI asrda islom. –T., Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2005.
  45. *Faxruddin Ali Safiy.* Rashahot (obi hayot tomchilari). –T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.
  46. *Xayrullaev M.* Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. –T.: O‘zbekiston, 1971.
  47. *Xotamiy S.M.* Islom tafakkuri tarixidan. Tarjimon N. Qodirzoda. –T.: Minhoj. 2003.
  48. *Sharipov A.* Maloizvestnie stranisi perepiski mejdu Beruni i Ibn Sinoy.//Овластенные науки в Узбекистане, –№ 5. 1965.
  49. *Sharipov A.* Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari. –T.: Fan, 1972.
  50. *Qodirov M.* Islomiy ma’rifat, madaniyat va ma’naviy qadriyatlar falsafasi. “Islom, tarix va ma’naviyat”. –T., A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.

51. *A'loxon Afsaxzod*. Lirika Abd ar-Raxmana Djami. –M.: 1988.
52. *Bartold V.V.* Istorya Turkestana//V. V. Bartold. Sochineniya. T. II. –M.: Nauka, 1963.
53. *Bartold V. V.* Vvedenie k izdaniyu xudud al-alam. Sochinenie: T. 8. –M., 1973.
54. *Bertels Ye. E.* Sufizm i sufiyskaya literatura. T. 3. –M.: Nauka, 1965.
55. *Braginskiy I.* 12 miniatyur. –M.: Xudojestvennaya literatura, 1966.
56. *Volkova A.N., Gornev V.S., Danilchenko R.N. i dr.* Istorya filosofii. Uchebnik dlya vuzov.// Pod red. V. M. Mopelman i Ye. M. Penkova. –M.: PRIOR, 1997.
57. *Dan Medovnikov, Aleksandr Mexanik.* Neumolimiy rok innovasiy. Jurn. «Ekspert». –№ 28. 14-20 iyul 2008.
58. *Diogen Laertskiy.* O jizni, ucheniyax i izrecheniyax znamenitix filosofov. – M., 1986.
59. *Kedrov B. M.* Klassifikatsiya nauk. V 3-tomax. –M.: Misl, 1961-1965.
60. *Platon.* Sochineniya v 3-x tomax. –M., 1970.
61. *Raxovskiy B. E.* Filosofskoe nasledie Ibn Sini.//Voprosi filosofii. –№5. –M., 1955.
62. *Rashid al-Baraviy, Muhammad Hamza Uleysh.* Ekonomicheskoe razvitiye Yegipta v novoe vremya. Sokr. per. s arabskogo. –M., IL, 1954.
63. *Rojanskaya M.M.* Mexanika v Xorasane i Maverennaxre v srednie veka. – M., 1986. avtoreferat.
64. *Sebeos.* Istorya imperatora Irakliya. Per. s armyanskogo K. Patkanyana. – SPb., 1862.
65. *Stepanyans. M.T.* Filosofskie aspekti sufizma. –M.: Nauka, 1987.
66. *Trimingem D.S.* Sufiyskie ordena v islame. –M.: Nauka, 1989.
67. *Xaydegger M.* Osnovnie ponyatiya metafiziki (Vvedenie). //Voprosi filosofii. –M., 1989. –№9.
68. *Chantishev A.N.* Nachalo filosofii. –M., 1982.
69. *Yushkevich A.P.* Istorya matematiki v srednee veka. –M., 1961.
70. *Yushkevich A.P.* Arifmeticheskiy traktat Muxamma ibn Musa al-Xorezmi. Trudi instituta istorii yestestvoznaniya i texniki AN SSSR, vip. 1. –M., 1964.
71. Drevneindiyskaya filosofiya (nachalniy period). –M., 1963.
72. Drevnekitayskaya filosofiya. V 2-x tomax. T.1. –M., 1972.
73. Islam (ensiklopedicheskiy slovar). –M.: Nauka, Glavnaya redaksiya vostochnoy literaturi. 1991.
74. Maks Plank i filosofiya. Per. s nem. –M., 1963.
75. Filosofskaya ensiklopediya. Drevneegipetskaya religiya i mifologiya. V 5-ti

- tomax. –M., 1962.
76. Islom ensiklopediyasi, 11-jild. –Istambul, 1970.
  77. Islomda huquq. To‘plovchilar Majid Hadduriy va Herbert J.Libesni. Mualliflar guruhi, Sharq va G‘arbning 12 ta mashhur huquqshunos, islomshunos va sharqshunos olimlari. Shu jumladan, Muhammad Abu Zahra, Subhiy Muhammasmoniy, Shukriy Qardoshiy, Abul A’lo Mordin, Jozef Shaxt va boshqalar. –Tehron-Nyu-York, 1955. (fors va ingliz tillarida)
  78. *Kamilov A.Sh.* Fizicheskie trudi ar-Razi i Ibn Sini. –Dushanbe, 1991.
  79. *Nikolas Resher.* K istorii arabskoy logiki. –Pitsburg. Izd-vo Pittsburghskogo universiteta. 1963.
  80. *Renan E.* Sobranie sochineniy. –Kiev. 1960.
  81. *Ulrix Rudolf.* Al-Maturidi i sunnitskaya teologiya v Samarkande. –Almati: Fond XXI vek, 1999.
  82. *Abdullo Ahmad an-Naim.* Islom qonunchiligini rivojlantirish yo‘lida. –Qohira: Sino nashri, 1994. (arab tilida)
  83. *Abdulhalim al-Jundiy.* Abu Hanifa batalul hurriyati vat-tasomuh fil-isлом . –Qohira, 1966. (arab tilida)
  84. *Abulfazl ibn Manzur.* “Lison ul-arab”, 3-jild. –Bayrut: Dor sodir, 1997. (arab tilida)
  85. Al-mavsuat ul-fiqhiya. –Quvayt. Avqof va islomiy ishlar vazirligi. Dor us-safva matbaasi, 1995. (arab tilida).
  86. //اشعرى، ابو الحسن. مقالات الاسلاميين. استانبول، ١٩٣٩-٤٠. *Ash’ariy, Abul Hasan.* Maqolot al-islamiyyin. –Istambul. 1939-40.
  87. //اشعرى، ابو الحسن. الابانة عن اصول الديانة، حيدرآباد، ١٩٤٨. *Ash’ariy, Abul Hasan.* Din usullariga tafsir. Xaydarobod, 1948. (arab tilida)
  88. //بغدادى ع. ق. اصول الدين. استانبول، ١٩٢٨. *Bag‘dodiy.* Usul ad-din. –Istambul. 1928. (arab tilida)
  89. //بيهقى، ابو الحسن. تاريخ حكماء الاسلام، دمشق، ١٩٤٦. *Bayhaqiy, Abul Hasan.* Torixe hukamoul islam. –Damashq, 1946. (arab tilida)
  90. //بيهقى، ابو الحسن. التمهيد، بلاقلانى ا. Boqilloniy A. At-tamhid. –Bayrut. 1957. (arab tilida)
  91. //بيهقى، ابو الحسن. منتخب صوال الحكمة، نسخة خطى بودليان. *Bayhaqiy, Abul Hasan.* Suvonul hikma. (arab tilida)
  92. *Vahbiy Sulaymon G‘ovjiy.* Abu Hanifa an-Nu’mon faqih imomlarning imomi. –Damashq: Dor ul-qalam, 1987. (arab tilida)
  93. *Ibn Arabiy.* Fusus al-hikam (nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi Abu A’lo Afifiy). –Qohira. 1949. (arab tilida).
  94. //ابن خلدون ع. المقدمة، القاهرة، ١٩٥١. *Ibn Xaldun.* Al-muqaddima. –Qohira,

1951. (arab tilida)
95. *Ibn Xaldun*. Al-Muqaddima. –Iskandariya: Doru matbaai Ibn Xaldun. (arab tilida)
96. *Ibn Kallikon*. Vafiyot ul-a'yon. –Qohira 1949, 3-jild. (arab tilida)
97. *Ibn Bajja*. Rasoil moba'dul tabia. –Bayrut. 1968. (arab tilida).
98. .٦٠-١٩٥٧//ابن سينا. الاشارات و التبيهات. – قاهرة، ١٩٥٧. *Ibn Sino*. Al-ishorot va-l-tanbihot. –Qohira. 1957-1960. (arab tilida)
99. *Ibn Nadim*. Al-Fixrist (Ro'yxat). –Bayrut, “Dor ul-ma'rifa” nashri (nashr yili berilmagan, arab tilida)
100. // جويني، ابو المعالى. كتاب الارشاد، باريس، ١٩٣٨. *Juvayniy*. Kitob al-irshod (Qo'llanma kitob). –Parij. 1938.
101. *Komil Mustafo al-Shaybiy*. Al-Halloj devonining sharhi. –Bayrut-Bag'dod. 1394/1974. (arab tilida)
102. *Mir Sayyid Sharif Jurjoniy*. At-ta'rifot. –Istambul: Dor ul-tabaote Omera. 1818 y. (arab tilida)
103. // مسکویہ، ابو علی. جاودان خرد. – قاهرہ، ١٩٥٢. *Miskaveyh Abu Ali*. Jovidone xirad. –Qohira. 1952. (arab tilida)
104. // مسکویہ، ابو علی. تهذیب الاخلاق. – بیروت، ١٩٦٦. *Miskaveyh*. Tahzib ul-axloq. – Bayrut. 1966. (arab tilida)
105. // مسکویہ ابو علی. الفوز الاصغار. – بیروت، هـ. ١٣١٩. *Miskaveyh*, Abu Ali. Al-fuzul asg'ar. –Bayrut. 1319 hijriy yil. (arab tilida)
106. // ماجد فخری. تاريخ الفلسفة الاسلامية. – بیروت: دار المتحدة للنشر ١٩٧٤. *Mojed Faxriy*. Islom falsafasi tarixi. –Bayrut, 1974. (arab tilida)
107. *Sa'duddin Taftazoniy*. “Sharh ul-aqoidin-nasafiya”. –Laknau (Hindiston), Yusufiy matbaasi, 1913 (arab tilida).
108. // صاعد بن صاعد اندلسی. طبقات الامم. – بیروت، ١٩١٢. *Soed ibn Soed Andaluziy*. Taboqot ul-umam. –Bayrut. 1912. (arab tilida)
109. // توحیدی، ابو حیان. الامتاع و المؤنسة. – قاهرہ، ١٩٣٩-٤٤. *Tavhidiy, Abu Hayyon*. Al-imto' val mu'onisata. –Qohira. 1939-1944. (arab tilida)
110. // توحیدی، ابو حیان. الھوامل و الشوامل. – قاهرہ، ١٩٥١. *Tavhidiy, Abu Hayyon*. Al-havomil va al-shavomil. –Qohira. 1951.
111. *Taqrib al-marom fi tahzib al-kalom*. 2-qism (arab tilida, qo'lyozma).
112. *Forobiy*. Risolat fi al-aql, –Bayrut, 1939. (arab tilida)
113. // فارابی، ابو نصر. احصاء العلوم. قاهرہ، ١٩٤٩. *Forobiy*, Abu Nasr. Ixsoye ulum. – Qohira. 1949.
114. *Forobiy*. “Fozil odamlar shahri aholisining fikru-zehni”. Albir Nodir tahriri ostida. –Bayrut. 1959. (arab tilida)
115. // فارابی، ابو نصر. الجمع بین الرأی الحکیمین. – بیروت، ١٩٦٠. *Forobiy, Abu Nasr*. Ikki hakim qarashlari o'rtasidagi jamlanma. –Bayrut. 1960 (arab tilida)

116. *Forobiy*. Falsafatu Aristotelis va ajzoi falsafata va marotib ajzoihos Muxsin Mahdi tahriri ostida “Matnlar silsilasi”. –Bayrut, 1-jild, 1961. (arab tilida).
117. *Forobiy*. Kitob al-siyosat al-madaniya. Favzi Najjor tahriri ostida. –Bayrut, 1969. (arab tilida)
118. // شهرستانی، محمد، الملل و النحل. لندن، ١٨٩٢.
119. // شهرستانی، محمد، نهاية الاقدام. لندن، ١٩٣٩.
120. // يحيى بن عدى. تهذيب الاخلاق. Yahyo ibn Yadiy. Tahzib ul-axloq. (arab tilida)
121. // قسطنطینی، علی، تاريخ الحکماء. لایپزیک، ١٩٠٣. Qiftiy, Ali. Torixe hukamo. – Leypsig. 1903 (arab tilida).
122. *Qushayriy*. Ar-risolatul Kushayriya. (arab tilida)
123. *G'azzoliy, Abu Homid*. Ihyo ulum ad-din. –Qohira. 1348 hijriy yil. (1931) 4-jild. (arab tilida)
124. *G'azzoliy, Abu Homid*. Mushkot ul-anvor. –Qohira. 1961. (arab tilida)
125. // الفلاسفة الاسلامية و بناء الانسان المعاصر، القاهرة، ١٩٩٧. Mualliflar jamoasi. Islom falsafasi va hozirgi zamon kishisining asli. –Qohira, 1997.
126. *Abdulhay Habibiy*. Afg'oniston islomdan keyin. 1-jild.-Qobul, Davlat matbaasi, 1950. (dari tilida)
127. Doiratul maorife buzurge islomiy. 6-jild. –Tehron. 1373 h.y./1994 m.y. (fors tilida)
128. // مجمل الحکمة. ترجمة رسائل اخوان الصفا. تهران، ١٩٩٦. Majmal al-hikma (Ixvon as-safo risolalari tarjimasi): Muhammad Taqi Donishpajuh va Iraj Afshar taxriri ostida. –Tehron, 1996. 4-jild. (fors tilida)
129. *Ali Akbar Dehxudo*. Lug'atnama. –Tehron universiteti nashri. 1965. (fors tilida).
130. *Badaviy*. Shahidat ul-ishq al-ilohiy. –Tehron, 1962. (fors tilida)
131. *Doktor Sayyid Xalil Xaliliyon*. Islomiy xalqaro huquq. 1368 h.y.
132. *Doktor M.J.Ja'fariy Langrodiy*. “Huquq istilohi”. –Tehron. 1376 h.y. (fors tilida)
133. // ابن نديم، م: كتاب الفهرست. القاهرة، بي تا، ١٩٥٨. Ibn Nadim. “Kitobe Al-Fehrist” (“Ro'yxat kitobi”). –Qohira: Bito. 1958.
134. *Jurji Zaydon*. Islom madaniyati tarixi. 3-jild. –Tehron. 1336 h.1. (fors tilida)
135. // ذبيح الله صفا. تاريخ علوم عقلی در تمدن اسلامی. تهران، ١٩٢٣. Zabihullo Safo. Islom madaniyatida aqliy ilmlar tarixi. –Tehron, 1923, 1-jild. (fors tilida)
136. *Mavlono Jaloliddin Rumiy*. Masnaviye ma'naviy: Muqaddima. Qobul. 1982. (fors tilida).
137. // ماجد فخرى. سیر فلسفه در جهان اسلام. Mojed Faxriy. Sayr falsafa dar jahone islom (Islom olamida falsafa davoni). –Tehron., Tehron universiteti nashri.

Hijriy 1372/1983. (fors tilida)

138. *Muhammad Abdulhay*. Hidoya muqaddimasi sifatida yozilgan risola. –B.3.  
Laknau nashri. 1394 h.y. (fors tilida)
139. *Nosir Xisrav*. Jami'al hikmatayn. –Tehron-Parij. 1953. (fors tilida).
140. *Nasiri Xisrav*. Zod al-musofirin. –Berlin. 1935. (fors tilida).
- // رضا داوری اردکانی. فارابی مؤسس فلسفه اسلامی، پژو هشگاه علوم انسانی و مطالعات . ۱۳۷۷ Rizo Dovariy Ardakoniy. Forobiy islom falsafasining asoschisi. Ilmiy-tekshirish va madaniy tadqiqotlar muassasasi. –Tehron, hijriy 1377/1998. (fors tilida)
142. *Faxruddin Ali as-Safiy*. Rashahot ayn-ul-hayot. O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozma asarlar xazinasi. Inv. –№ 3593. Litografiya. Laknau. 1890. (fors tilida)
143. *Mckarthy R. J.*, Theology of al-Ash'ari. –Beirut, 1953.
144. *Affifi*. The Mystical Philisophy of Ibnul-Arabi. Cambridge, 1938.
145. *Yahia, O.* Histoire et classification de l'oenvre d'Ibn Arabi. –Damascus, 1964. I, 73 f. (fransuz tilida)
146. *Watt W. M.* Islamic Philosophy and Theology. –Edinburgh, 1962.
147. *O'leary, De Lacy*. Arabic Thought and its Plase in History. –London, 1922.
148. *Hitti, PH*, History of the Arabs. –London, 1953.
149. *Asin Palacios*, m. Ibn Masarra y su escuela. –Madrid, 1948 (ed. and trans.)  
El rejimen del solitario. –Madrid and Granada, 1964.
150. *Cruz Hernandes, M.* Filosofia hispano-musulmana. –Madrid, 1957.
151. *Corbin H.* History de la Philosophie islamique. –Paris, 1964.
152. *Jourdain, A.* Recherches critiques sur L'age et L'origine des traductions d'Aristote. –Paris, 1819.
153. *Kraus P.* Epitre de Beruni. –Paris, 1936.
154. *Renan, E.* De philosophia peripatetica apud Suros. –Paris, 1852.
155. *Renan, E.* Averroes et L'averroisme. –Paris, 1882
156. Revue de L'Orient Chretien. Vol. 22 (Tome II, XXII). 1920.
157. *Munk, S.* Melanges. De philisophie juive et arabe. –Paris, 1859.
158. *De Boer, T. J.* Geschichte der Philosophie in Islam. –Stuttgart, 1901.
159. *Rosenthal, Ahmad b. at-Tayyib as-Sarahsi* new Hoven, 1943.
160. *Fakhry*, "The Classical Islamic Arguments for the Existence of God", Muslim World, XLVII <1957>.